

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLATUNIVERSITETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

"HOZIRGI O'ZBEK TILI"

Fani bo'yicha

MA'RUZALAR MATNI (2- semestr)

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	120000– Gumanitar fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

TERMIZ – 2017

Mazkur ma'ruzalar matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017 -yildagi-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan o'quv rejava 201 -yildagi-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan fan o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

O'.M.Xoliyorov – Termiz DU O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Sh.Bobomurodova	Termiz DU O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.n.
B.Umurqulov	Termiz DU O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

O'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti Ilmiy kengashida ko'rib
chiqilgan va ishlatishga tavsiya qilingan.
(2017-yil "27" __08__ dagi _1_-sonli bayonnomma)

BIRINCHI BO'LIM

TILSHUNOSLIK UCHUN ZARURIY TUSUNCHALAR

1- ma'ruza

"HOZIRGI O'ZBEK TILI" FANI HAQIDA TUSHUNCHASI. ILMUY BILISH VA UNING BOSQICHLARI

Reja:

1. "Hozirgi o'zbek tili" fani ob'yekti va predmeti.
2. Ilmiy bilish haqida umumiy ma'lumot.
3. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida bilishning o'rni.
4. UMIS va AHVO tushunchalari.

Kalit tushunchalar:

bilish, belgi, ilmiy tadqiqot, falsafa, "Ko'rlar va fil hikoyati", empirik fizika, nazariy fizika, til, nutq, sath, fonema, tovush, leksema, so'z, substansiya, aksidensiya, zot, tajalli, zohir, botin, grammatik shakl, gap qolipi

O'zlashtiriladigan tushunchalar:

ilmiy bilish, fahmiy (empirik) bilish, nazariy (idrokiy, mantiqiy, ratsional) bilish, zohiriyligi, belgi, botiniy belgi, empirik yondashuv, nazariy yondashuv, myносабат, UMIS va AHVO, WPm

1. "Hozirgi o'zbek tili" fani ob'yekti va predmeti.

O'quv fanining avvalgi nomi ("Hozirgi o'zbek adabiy tili") XX asrning ikkinchi yarmida yetakchilik qilgan, asosiy maqsadi o'zbek adabiy tili me'yorlarini yaratish, ona tili ta'limi uchun lingvistik material va tavsiyalarni ishlab chiqish bo'lgan o'zbek formal tilshunosligi ta'siri ostida shakllangan bo'lib, an'ana sifatida o'quv rejasidan o'quv rejasiga ko'chib kelayotgan edi. Zero, jamiyat oldida ommaviy savodxonlikni ta'minlash, adabiy tilni ommalashtirish, xalqning yozma yodgorliklarini nashr etish va yoyish, ta'limni zamonaviy usullar asosida yo'lga qo'yish kabi amaliy vazifalar turgan paytda eng samarali va qulay lingvistik tavsif va ta'lim yo'li formal usul bo'lishi lozim edi. Shuning uchun jahonning barcha ilg'or mamlakatlari tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu ilmiy yo'naliish keng ommalashdi. O'zbek tilshunosligida bunday yo'naliishga Abdurauf Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabilar tomonidan asos solingan bo'lsa-da, uning keng va izchil ommalashishi tilshunos Ayub G'ulomov faoliyati bilan bog'liq. Bu davr tilshunosligi o'zbek adabiy tili (aniqrog'i, nutqi) meyorlarini tadqiq qilish davrini bosib o'tdi va keyinchalik adabiy nutq meyorlarini ta'lim oluvchilarga singdirish o'rta umumiy va o'rta maxsus ta'lim zimmasiga yuklatildi. Shu boisdan akademik litseylarda bu vazifani ta'lim bosqichlariaro bog'lanishga

qo’yilayotgan takroriylikdan xolilik va uzviy aloqadorlik talabi asosida “Hozirgi o’zbek adabiy tili” o’quv predmeti o’z zimmasiga oldi.

XX asrning oxirgi choragida davr, maqsad va vazifalar tubdan o’zgardi, tilshunoslik, ijtimoiy ehtiyoj natijasi o’larоq, sistem-struktur tahlil usullariga o’tdi, o’zbek tilida lison va nutqni izchil farqlash asosida tilimizning lisoniy sistemasi – lisoniy birliklari va munosabatlarini tadqiq qilish – lisoniy imkoniyatlarni ochish ustuvorlashdi. Tilga tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, nutqiy muloqotda son-sanoqsiz shakl va ko’rinishlarda voqelanadigan, har bir voqelanish ko’rinishi o’ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo’lgan imkoniyatlar xazinasi sifatida munosabatda bo’lish kuchaydi. Shuning uchun ushbu darslikda o’zbek tilini sistem-struktur usul asosida o’rganadigan nazariy tilshunoslikning milliy ko’rinishi – substansial yo’nalish xulosalari aks etganligi sababli u an’anadagidan farqli ravishda “Hozirgi o’zbek tili” degan nom oldi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida filologiya bakalavri uch yo’nalishda tayyorlanmoqda:

- 1) nazariy filologiya;
- 2) pedagogik filologiya;
- 3) amaliy filologiya.

Mamlakatimizda bu yo’nalishlardan nazariy va pedagogik filologiya yo’nalishi bo’yicha bakalavrilar tayyorlanmoqda.

Nazariy filologiya bakalavri, asosan, ilmiy tadqiqot sohasiga yo’naltirilganligi bois, ular til strukturasi bilan tanishtiriladi. Shuning uchun ham o’zbek tili bo’yicha filologiya bakadavriatida o’zbek tili “Hozirgi o’zbek tili” mazmunida o’qitiladi. Pedagogik filologiya yo’nalishida esa ixtisoslik xususiyatdan kelib chiqqan holda o’zbek tili adabiy meyorlarining ilmiy asoslarini o’rgatishga mo’ljallangan “Hozirgi o’zbek adabiy tili” kursi o’tilishi rejalashtirilgan. “Hozirgi o’zbek tili” va “Hozirgi o’zbek adabiy tili” o’quv predmetlarini shu yo’sinda farqlamoq lozim. Alovida ta’kidlash kerakki, o’zbek tili strukturasi talqini adabiy til birliklari asosida olib borilishi ham mantiqan to’g’ri. Zero, har qanday lisoniy struktura til birliklarining adabiy variantlari asosida tushuntirilishi ta’lim oluvchilarning turli sheva vakillari ekanligidan kelib chiqadi.

Hozirgi o’zbek tili substansial yo’nalishdagi tadqiqotlar H.Ne’matov, A.Abduaizov, E.Begmatov, Sh.Bobojonov, O.Bozorov, I.Madrahimov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, S.Muhamedova, M.Narziyeva, G.Ne’matova, A.Nurmonov, Sh.Orifjonova, Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov, R.Safarova, B.Qilichev, S.G’iyosov, N.Shirinova, Z.Yunusova, N.Vohidova kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan.

O’zbek substansial tilshunosligi A.Fitrat, A.G’ulomov, yetuk namoyandalari va takomillashtiruvchilari F.Abdullahayev, G’.Abdurahmonov, M.Asqarova, O.Azizov, A.Borovkov, A.Hojiyev, S.Ibrohimov, F.Kamolov, S.Karimov, A.Kononov, M.Mirtojiyev, M.Mirzayev, A.Muxtorov, R.Qo’ng’urov, I.Rasulov, V.V.Reshetov, U.Tursunov, F.Ubayeva, S.Usmonov,

Sh.Shoabdurahmonov kabilar asoschilari bo’lgan o’zbek formal tilshunosligining bevosita davomidir va unga asoslanishi sababli reallik, obyektivlik – lisoniy birlıklarning nutqiy voqelanish ko’rinishlari va xususiyatlari tavsifida 1950–80-yillarda amalda bo’lgan darslik va qo’llanmalarga tayanadi.

“Hozirgio’zbek tili” fanining maqsadi o’zbek tili substansial xususiyatlarining hozirgi holatini lison va nutq farqlanishi nuqtayi nazaridan tavsiflashdan iborat.

Substansial tahlilning bosh tamoyili asosida o’zbek tili qurilishini yoritishda lisoniy birlıklarga umumiylig, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va ularning voqelanishi natijasida hosil bo’lgan nutqiy birlıklarga alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) sifatida munosabatda bo’linadi. **UMIS** va **AHVO** tushunchalari sun’iy qisqartmalar emas, balki o’ta muhim ilmiy-falsafiy va metodologik umumiylig, ta’lim oluvchini ashyoviy fikrlashdan uzib, unda dialektik tafakkur malakalarini hosil qildirishning muhim vositalaridan. Gnoseologiya (bilish nazariyasi)dan ma’lumki, xususiylik umumiylikka (demak, alohidalik/xususiylik umumiylikka, hodisa mohiyatga, voqelik imkoniyatga, oqibatsababga) nisbat berilmaguncha, u ta’riflangan, tavsiflangan, o’rganilgan deb sanalishi mumkin emas. Shuning uchun lisoniy imkoniyatlar tilshunosligi bo’lgan substansial tahlilda bular yuksak umumiylikka ega bo’lgan kategorial tushunchalar sifatida juda muhim.

2. Ilmiy bilish haqida umumiylig ma’lumot.

Ilmiy bilish – maxsus metodologiya va usullar asosida borliq haqida bilim hosil qilish. Olimlar tomonidan tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi murakkab va rang-barang hodisalar mohiyatini, rivojlanish qonunlarini ilmiy o’rganishning aniq usullari ishlab chiqilgan, ular ilmiy tadqiqotlarning yo’nalishi va xususiyatlarini ifodalaydi.

Falsafada ilmiy bilishning navbatma-navbat takrorlanib turuvchi ikki turi farqlanadi:

- a) fahmiy (empirik, amaliy, tajribaviy) bilish;
- b) nazariy (idrokiy, mantiqiy, aqliy) bilish.

Birinchi bosqichda o’rganilayotgan manbaning tarkibiy qismlari, belgi-xususiyatlarini aniqlash, saralash, tartiblash va tasvirlash amalga oshiriladi. Bunda asosiy e’tibor o’rganish manbaining sezgi a’zolari bilan anglanuvchi tashqi, zohiriylarini xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Aslida bu hali tom ma’nodagi ilmiy bilish emas, lekin ilmiy o’rganishning zaruriy, tarkibiy qismi, bosqichi hisoblanadi. Buni Alisher Navoiy “Lisonut-tayr” masnaviysidagi “Ko’rlar va fil hikoyati”da ko’zi ojizlarning fil haqida tasavvur hosil qilishlari misolida tasvirlaydi.

Mustaqil o’qish uchun

Hikoyat

Naql qilishlaricha, bir guruh ko’rlar to’dasi musofirlik yoki asirlik tufayli Hindistonga borib qolishibdi. Falakning gardishi bilan ular yana o’z yurtiga qaytib kelishibdi. Bu yerda bir kishi

ulardan: "Filni ko'rdilaringizmi?" — deb so'rabdi. Ular "Ha", — deb javob beribdilar. "Ko'rgan bo'lsangiz, dalil keltiring", — debdi boyagi kishi. Ular aslida filni ko'rishmagan, u haqda hatto yaxshi so'rab ham olmagan edilar. Har biri filning bir a'zosini paypaslab, undan bilim hosil qilib olgan edi, xolos. Shu sababli filning oyoqlarini ushlagan kishi fil sutunga o'xshar ekan desa, qornini paypaslagani yo'q, u besutun, dedi. Kartumini ushlagani fil ajdahoga o'xhash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug'idan xabar bergan kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etdi. Qo'li bilan filning boshini paypaslagan kishi uni bir qoyaning tumshug'i deb sharh qildi. Filning qulog'iga qo'l tegizgan kishi qimirlatib turgan ikki yelpug'ichga o'xshatdi. Ularning barchasi shu tariqa ko'rlik yuzasidan turli so'zlar aytdilar. Garchi ular aytgan so'zlarning barchasi to'g'ri bo'lsa-da, nuqsonli edi, zero ularda tartib mavjud emas edi. Shuning uchun ham filbonlik sohasida ustod hisoblangan yetuk faylasuf, asli hind naslidan bo'lgan kishi ular aytgan so'zlarni tinglab, naql qilganlarga ta'na so'z aytmadni va shunday dedi:

— Har bir kishi fil haqida o'zi bilganini aytib, u haqda nishon berdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytgan bo'lsalar-da, kechirarlidir. Chunki har biri o'z bilganicha so'z aytdi, ammo hech biri filni ko'rgan emas edi. ular aytgan bu sifatlarning barchasi bir yerga jam qilinsa, fil haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi.

Uzoqni ko'ruvchi kishiga bu aniq bo'lgani uchun kkilanmasdan ko'rlar aytgan barcha so'zlarni chin deb baholadi.

ALisher Navoiy, "Lisonut-tayr". Sh.Sharipov nasriy bayoni // www.ziyouz.com

Hikoyatda tasvirlanishicha, ko'zi ojizlar paypaslash (sezgi a'zolari) asosida bilim hosil qilishgan. Bu empirik tafakkur mahsulidir.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Ko'rlarning fil haqidagi xabarları nega chin deb baholandi?
- 2.Ko'rlarning fil haqidagi xabarları nega nuqsonli edi?
- 3.Faylasuf nega naql qilganlarga ta'na qilmadi?
- 4.Ilmiy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?

Nazariy bilish empirik, ya'ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi. Empirik bilish jarayonida to'plangan faktik material nazariy bilish jarayonida aqliy tafakkur yo'li bilan umumlashtirilib, ularning mohiyati ochiladi. Bu bosqich Navoiyning yuqorida tilga olingan asarida orifning fil haqida bilim hosil qilish usuli misolida bayon etiladi. Orif ko'zi ojizlarning fil haqidagi tasavvurlarini "bog'lab", umumlashtirib, ularning qarashlari asosida, bizning talqinimizcha, nazariy tafakkur yo'li bilan fil haqida idrokiy bilim hosil qiladi. Shu tariqa Navoiy empirik va nazariy bilish hamda bilimni, empirik va nazariyotchi biluvchi (olim) ni farqlaydi, shu bilan birga ikkinchisi birinchisining mehnatlarisiz ish ko'ra olmasligini uqtiradi. Bunday holat barcha fanlarda mavjud. Masalan, Isaak Nyuton fizikasi empirik fizika bo'lsa, Albert Eynshteyn fizikasi nazariy fizikadir. Ular bir-birini to'ldiruvchi va, bir vaqtning o'zida, inkor qiluvchi ta'limotlardir.

Misralar zamiridagi kinoyaviy mazmunni oching:

Arz-u samo qorong'ulik qa'rida,
Sayyoralar tentirardi zulmatda.

Xudo dedi, "Bas, yaralsin Nyuton",
Borliq nurga to'lib, zulmat tark etdi.

Ko'p o'tmay nur boz bo'ysundi zulmatga,
Zero, shayton Eynshteynni yaratdi.

Yelena Polonskaya

Manbani o'rganishning har ikki bosqichi ham birday muhim, ikkinchisini birinchisisiz, birinchisini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularni bir-biridan uzish, qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Bilishning ikki zaruriy bosqichi ham cheklangan. Ya'ni empirik bilim nazariy xulosalar uchun material bo'lib xizmat qiladi. Nazariy bilim empirik dalillarsiz asossizdir. Shuning uchun Nemis shoiri Hyote "*Nazariya quruq yog'ochdir*" deya nazariy bilimning empirik dalillardan uzilganligiga e'tiborni tortadi.

3. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida bilishning o'rni.

Bilishning ikki zaruriy bosqichi o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligi (XX asrning 20-yillaridan 80-yillarigacha) amaliy bosqichni bosib o'tdi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat edi:

- 1) tilning sathlarini, tilshunoslikning bo'limlarini aniqlash;
- 2) har bir sathga doir birliklarni chegaralash;
- 3) birliklarning sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan alomatlarini yoritish.

Masalan, fonetikada hozirgi o'zbek tilidagi 6 ta unli, 24 ta undosh aniqlanib, ularning bevosita sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi xossalari (nutq a'zolarining harakati, tovushlarning eshitilishi, cho'ziq/qisqaligi, baland/pastligi, kuchli/kuchsizligi kabilar) o'rganildi. Biroq har bir tovushning mohiyati, ya'ni substantsiyasiga bu zohiriyl belgilar qay darajada daxldor degan muammo keyinchalik – nazariy o'rganish jarayonida – fonemalarning variant-invariantlik muammosi ostida tadqiq qilindi. Har bir tovushning mohiyati nazariy bosqichda ochib berildi.

Bunday holatni morfologiyada ham kuzatish mumkin. Bunda so'z turkumlari, har bir turkumga xos grammatik shakllar aniqlandi. Grammatik shaklning zohiriyl belgilari – so'zlarga qo'shilish, ularni biriktirish jarayonidagi aniq sezilib turuvchi ma'no va vazifalari – nutqiy xususiyati tadqiq qilindi. Masalan, har bir kelishikning 20 dan 50-60 tagacha ma'nosi ajratilib, tavsiflandi. Bu ma'nolarni yanada ko'paytirish mumkin edi, zero hodisalar cheksizdir. Quyidagi misollarga diqqat qiling:

Gulnoraning kitobi

Gulnoraning opasi

Gulnoraning uyi

Gulnoraning yig'isi.

Bunda fahmiy (empirik) yondashuv qaratqich kelishigining "qarashlilik", "mansublik", "egalik", "bajaruvchi" kabi ma'nolarini farqlashni taqozo qiladi (qatorni yana davom ettirish va ma'nolar sonini ko'paytirish mumkin). Bular - zohiriylar ma'nolar, nutqiy hodisalar. Empirizmda mohiyatga tomon bundan chuqurroq borish talab qilinmaydi. Nazariy o'rganishda kelishikning har bir qo'llanishidagi farqlardan "ko'z yumilib", ular zamiridagi umumiy jihat qidiriladi. Keltirilgan kelishikli birikmalardagi farqlarning (*kitob*), (*opa*), (*uy*), (*yig'i*) va boshqa so'zlar ta'sirida ekanligini nazariy yo'l bilan aniqlaydi hamda shu asosda qaratqich kelishigining mohiyatini ochadi.

Nazariy o'rganish jarayonida til hodisalarida zohiriylar (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat izchil farqlanadi. Har bir birlik yondoshlari bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi, ular bir sistema sifatida qaraladi. Masalan, yuqoridagi misollarning birinchisida (*Gulnoraning kitobi*) qaratqich kelishigining "qarashlilik", ikkinchisida (*Gulnoraning opasi*) "mansublik" nutqiy (xususiy) ma'nolari voqelangan. Biroq qaratqich kelishigi shaklining barcha qo'llanishi uchun umumiy jihat - "oldingi so'zni keyingi so'zga tobelash" ma'nosi bevosita sezgi a'zolari yordamida anglashilmaydi, balki ong bilan idrok etiladi, shuning uchun u lisoniy ahamiyatga ega. Bu umumiylig yuqoridagi misollarda "*Gulnora* so'zining *opa* so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalashi", "*Gulnora* so'zining *kitob* so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalashi" tarzida bevosita kuzatishga chiqqan, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan qiymat kasb etib, xususiylashgan.

Empirik yondashuvda har bir birlik alohida-alohida tekshiriladi. Masalan, *a* unlisini boshqa unlisiz, biror zamon yoki kelishik shakli esa boshqasidan ajratib, uzib o'rganiladi. Nazariy o'rganish bosqichida esa ular o'z sistemadoshi (o'zi bilan bir sistemaga kiruvchi) bilan yaxlitlikda tahlil etiladi. Har bir birlik, deylik, biror unlining, boshqa sistemadoshi, ya'ni boshqa unli bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan belgisi nazariyotchi tishunos uchun belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Bitta unlini ajratib olib o'rganish *empirik o'rganish* deyiladi. Bir unlini boshqa unlilar qurshovida o'rganish *nazariy o'rganish*, *sistem yondashuv* deb ataladi. Nazariy tilshunoslik har qanday birlikning mohiyati uning boshqa sistemadoshlariga munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan metodologiyaga tayanadi. Masalan, *o* unlisining mohiyati uning boshqa unlilar bilan o'xhash va farqli tomonlarini aniqlash asosida ochiladi. Biror til birligining boshqa til birligiga o'xhash va farqli jihatlari bo'ladi. Bu munosabat deyiladi. Masalan, bir unlining boshqa unlilarga o'xhashi va ulardan farqlanishi *munosabat* termini bilan baholanadi. Yoki bosh kelishik shaklining boshqa kelishiklarga o'xhashligi va farqlanishi "bosh kelishikning boshqa kelishiklarga munosabati" deb tushuntiriladi. Munosabatlardan uzib baholangan narsa haqidagi bilimlar mavhum va ziddiyathi bo'ladi.

Mantiqiy mushohada uchun
Quyidagi gaplarda nima ifodalanmaganligi uchun ular mazmunan qarama-qarshi?
Jo'shqin semiz
Jo'shqin oriq
Jo'shqin baland
Jo'shqin past
Jo'shqin chaqqon
Jo'shqin sust
Jo'shqin bilimli
Jo'shqin bilimsiz

4.UMIS va AHVO tushunchalari. Dialektika (narsa va hodisalarini qiyoslab, umumlashma xulosa chiqaradigan falsafiy ta'limot) har qanday o'rghanish manbaida, borliqdagi har bir narsada ikki jihat borligini ta'kidlaydi va uni quyidagi ikki tomonli tushunchalar asosida sistemalashtiradi:

umumiylit – alohidalik;

mohiyat – hodisa;

imkoniyat – voqelik;

sabab – oqibat.

Birinchi jihat (uni tegishli tushunchalarning bosh harflari asosida qisqacha UMIS deb ataymiz) narsalarning sezgi a'zolari asosida his etilmaydigan, aql bilan idrok qilinadigan substansiyasi (mohiyati) dir. Ikkinci jihat esa (AHVO – alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) UMISning voqelanishi, yuzaga chiqishi, namoyon bo'lishi bo'lib, uni tadqiqotchi, o'rghanuvchi kishi sezgi a'zolari yordamida his qila oladi. Masalan, yuqoridagi hikoyatda ko'zi ojizlar aniqlagan jihatning har biri alohidalik bo'lsa, orifning bilimi umumiylidir. Obrazli qilib aytganda, ko'zi ojizlar AHVOlarni aniqlashdi, orif bu AHVOlar asosida UMISni tikladi.

UMIS (umumiylit, mohiyat, imkoniyat, sabab) va AHVO (alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) munosabatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun hammaga tushunarli bo'lgan misolga murojaat qilamiz.

Javonda beshta har xil kitob bor deylik, ular bevosita kuzatishda berilgan, kitoblarni sezgi a'zolari yordamida his qila olamiz. Lekin ongimizda yaxlit "**umuman kitob**" tushunchasi mavjud. U borliqda mavjud emas, ko'rganlarimiz, eshitganlarimiz asosida ongimizda aqliy yo'l bilan tiklangan. Falsafada ana shu "**umuman kitob**"ra nisbatan UMIS, muayyan, ko'z oldimizda turgan kitobga nisbatan AHVO atamasi qo'llanadi. Bevosita kuzatishda berilmagan UMIS va sezgilar yordamida his qilish mumkin bo'lgan AHVOdan biri boshqasisiz bo'lmaydi. Masalan, "**umuman kitob**" tushunchasi xususiy, yakka, alohida kitoblar haqidagi tasavvurlardan tiklansa, yakka kitob "**umuman kitob**"ning voqelanishi, muayyanlashuvdir. UMIS va AHVOni farqli belgilari asosida quyidagicha tasavvur qilish mumkin (1-jadval):

1-jadval

UMIS	AHVO
Nomoddiy	Moddiy

Takror	Betakror
Chekli	Cheksiz

va h.

Buni quyidagicha sharhlash mumkin:

UMISning nomoddiyiligi va AHVOning moddiyiligi. “Umuman kitob” UMIS sifatida ongda mavjud. U o’zida yakka, alohida kitoblarning barcha umumiy belgilarini mujassamlashtirgan va farqli jihatlarini chetda qoldirgan. Masalan, bir kitob badiiy, ikkinchisi esa ilmiy, uchinchisi rasmiy, to’rtinchisi esa ilmiy-ommabop. Bu farqli jihatlar “kitob” UMISida aks etmaydi. “Kitob” UMISida barcha kitoblar uchun umumiy bo’lgan jihatlar to’planadi. AHVO moddiy, u kishi sezgi a’zolariga ta’sir qiladi – biz uni segi a’zolarimiz orqali his qilamiz.

Bayt:

*Seni topmoq base mushkul, vale topmaslig’ osonkim,
Erur paydolig’ing pinhon, vale pinhonlig’ing paydo.*

(Alisher Navoiy)

UMISning takrorligi va AHVOning betakrorligi. “Umuman kitob” UMISi har bir kitob AHVOsida yuzaga chiqaveradi. Borliqda qancha AHVO bo’lsa ham, har birida UMIS o’zining bir qirrasini namoyon qilaveradi. Lekin AHVO sifatidagi muayyan kitoblar takrorlanmaydi. Deylik, yoqib yuborilgan bir kitobni qayta tiklashning iloji yo’q. Ammo qancha kitobyoqilgani-yu nashr etilgani bilan *umuman kitob* UMISi o’zgarmasdan turaveradi. Demak, UMIS – barqaror, AHVO – o’tkinchi.

UMISning chekliligi va AHVOning cheksizligi. Ongimizda UMIS sifatida “umuman kitob” bitta. Ammo kitob AHVOlari cheksiz. Shu kungacha mavjud bo’lgan va kelajakda yozilib, nashr etiladigankitoblar sonini tasavvur qilib bo’lmaydi. Ammo UMIS bittaligicha turaveradi. UMIS va AHVO munosabati falsafada *substansiya* va *aksidensiya*, tasavvufda *zot* va *tajalli* sifatida qaraladi (*zot* va *tajalli* munosabati haqidagi bat afsil ma’lumotni tasavvufga doir ilmiy va badiiy manbalardan olishingiz mumkin. Masalan, Navoiy Haqni *zot*, borliqni uning *tajallisi* sifatida qaraydi).

Tilda UMIS va AHVOning xususiyatlari. Endi falsafiy UMIS va AHVOning til hodisalarida voqelanishi haqida fikr yuritamiz. *Qalin, qora, katta so’zlaridagi a* tovushlarini talaffuz qilaylik. Sezgilarimiz 4 ta *a* unli tovushni his qiladi. Bundagi birorta *a* tovushini qayta talaffuz qilib bo’lmaydi. Qayta aytilgani esa endi beshinchia *a* tovushi bo’ladi. Talaffuz qilingan *a* tovushini (boshqa tovushlarni ham) qayta talaffuz qilish mumkin emas va har bir qayta aytilgan tovush yangi ekan, demak, nutqimizdag *a* tovushlari cheksiz, hech qachon takrorlanmaydi va sezgi a’zolari yordamida his qilinadi (aytilganda eshitiladi, yozilganda o’qiladi). *a* tovushi AHVO bo’lib, u yuqorida zikr etilgan “alohida kitob”ga o’xshaydi.

AHVOlar qanchalik ko’p, rang-barang bo’lishiga qaramay, ongimizda ularning umumlashmasi sifatidagi yakka [*a*] UMISi bor. Bu [*a*] yuqorida

aytilgan “umuman kitob” kabi moddiylikka ega emaslik (ongda mavjudlik), barcha **atovush** (AHVO)larida takrorlanuvchanlik, miqdoran cheklilik (ya’ni bittalik) xossalariiga ega.

Nutq tovushi AHVO va ko’plab bir xil tovushlarning umumlashmasi bo’lgan fonema UMIS deb yuritiladi.

Falsafiy UMIS va AHVOning leksikada voqelanishiga diqqat qilamiz. Misollar: *1. Men kitob o’qishni boshladim. 2. Bu kitobni Halim nega keltirdi? 3. Kitob qiziqlarliligi bilan meni tezda o’ziga rom qildi* gaplarida uchta *kitob so’zi* mavjud. Bu so’zning ham har biri “muayyan o’rik”, “muayyan **a** tovushi” kabi moddiy voqelanganlik, takrorlanmaslik belgilariga ega va ular qatorini yana cheksiz davom ettirish mumkinligi sababli AHVOlarning barchasiga xos belgilarni o’zida mujassamlashtirgan. Cheksiz *kitob so’zlarining zamirida esa “umuman kitob” UMISi yashiringan*. U nutqqa chiqadigan barcha *kitob so’zlarini* uchun doimiy asos sifatida yashaydi. Chunki berilgan gaplarlagi ikkinchi *kitob so’zi* birinchisining takrori emas. U – yangi so’z. Qolgan barcha *so’zlar uchun shunday fikrni aytish mumkin*.

Morfologiyada *-ni* tushum kelishigi shaklining turli nutqiy qo’llanishlari morfologik AHVOlar, bu qo’shimchalar ongdagi *[-ni]* UMISi (morfemasi) asosida voqelangan.

Sintaksisda UMIS va AHVO munosabati quyidagi tarzda namoyon bo’ladi. Masalan, *Kitobning varagi, uyning eshigi, Halimning savoli, qog’ozning qalinligi, ruchkaning qopqog’i* kabi so’z birikmalari alohida-alohida AHVOlar, ularning umumiylar qolipi- [qaratqich kelishigidagi mustaqil so’z + egalik shaklidagi mustaqil so’z = qaratuvchi va qaralmishning turli munosabatlari] – UMISining¹ voqelanishi. O’zbek tilidagi barcha gap qurilmalari AHVOlar, “kesimlik qo’shimchalari bilan shakllangan atov birligi”, ya’ni **WPm** UMISining yuzaga chiqishdiir².

Esda tutish kerakki, UMIS hech qachon muayyan bir AHVOda to’la-to’kis yuzaga chiqsa olmaydi, unda o’zining ma’lum bir qisminigina namoyon qiladi. Masalan, **[WPm]**UMISi *Men keldim* gapida boshqa, *Ketadimi?* gapida boshqa bir qirrasini namoyon qilgan. Yoki gapning darak va so’roq belgilari bir butun holda birdaniga voqelana olmaydi. Biroq AHVO UMISdan tashqarida ham bo’la olmaydi. Har qanday sodda gap baribir **WPm** UMISi doirasidan tashqariga chiqsa olmaydi. Buni So’fi Olloyor HAQ (bizningcha, UMIS) va sifat (bizningcha, AHVO) munosabati misolida mahorat bilan tasvirlaydi.

Mustaqil o’qish uchun

So’fi Olloyor
Xudovandiki birdur beshaku rayb,

¹**Eslatma:** *mustaqil so’z* atamasi uchun qulaylik maqsadida tilshunoslar tomonidan qabul qilingan inglizcha word so’zining bosh harfi bo’lgan **W** belgisidan foydalanamiz: [**W**qaratqich kelishigi – **W**egalik qo’shimchasi tarzida)

²**Eslatma:** bunda **[W]** – yuqoridagidek “mustaqil so’z”, “atov birligi”ma’nosigaega, **[Pm]** esa kesimlik ko’rsatkichi bo’lib, *predikat (P)*va *marker (m)*so’zlarining bosh harflaridan olingan.

Ravo ermas anga o'rtoq ila ayb.
Aning farmonidin hech kim qutulmas,
Tavonodur hamisha, o'zga bo'lmas.
Erur ul barcha olamning Xudosi,
Aning yo'q ibtidosi, intihosi.
Erur hozir hamisha, yo'q makoni,
Anga qilg'on emas sabqat zamoni.
O'zi beshubhadir ham benamuna,
Ravo ermas anga chunu chiguna.
Ko'ngilga kechsa, ko'zga tushsa har shay,
Erur andin munazzah Xoliqu Hay.
Udur hokim ki hukmin o'zga etmas,
Aning zotig'a hech kim aqli yetmas.
Farishtalar, nabilar yetmadilar,
Bo'yinsundilaru fikr etmadilar.
Vale fikr et, Xudoning qudratig'a,
Ajoyib ishlarig'a, san'atig'a.

"Sabotul-ojizin" www.ziyouz.com

Quyidagi savollarga javob izlaymiz.

Mantiqiy mushohada uchun

1. "Xudovandiki birdur, beshak-u rayb, Ravo ermas anga o'rtoq ila ayb" baytining mazmuni bilan UMIS yoki AHVO orasida qanday bog'liqlik va o'xshashlik bor?
2. "Aning farmonidin hech kim qutulmas, Tavonodur hamisha, o'zga bo'lmas" misralaridagi sifatlarni lisoniy birlikka tatbiq qilish mumkinmi yoki nutqiy birlikka?
3. "Aning zotig'a hech kim aqli yetmas" misrasi mazmunini UMIS talqiniga tatbiq qilishga urinib ko'ring.

Butun borliq hodisalarida UMIS va AHVO ni ko'ra bilish hamda ular orasidagi munosabatlarni aniqlay olish dialektik tafakkur yuksalganligidan dalolat beradi.

Hikmat

Zohiran noo'xhash hodisalar zamiridagi botiniy o'xshashliklarni ko'ra bilish komillik alomatidir.

Albert Eynshteyn

Savol va topshiriqlar

1. Ilmiy bilish nima?
2. Ilmiy bilish qanday bosqichlardan iborat?
3. UMIS va AHVO tushunchalarini sharhlang.
4. "Ko'rlar va fil hikoyati"ning bilishdagi ahamiyati nimada?
5. Tildagi UMIS va AHVOning xususiyatlari haqida gapiring.

Test

1.Ilmiy bilishning ikki bosqichi: A) fahmiy, nominal B) fahmiy, nazariy C) aqliy, nazariy D) ratsional, nazariy

2.UMIS: A) umumiylilik, mohiyat imkoniyat, sabab B) umumiylilik, muhimlik, imkoniyat, sabab C) universallik, mohiyat imkoniyat, sabab D) umumiylilik, mohiyat ixchamlik, sabab

3.AHVO: A) yaxlitlik, hodisa, voqelik, oqibat B) yakkalik, hodisa, vaqtiylik, oqibat C) yakkalik, hodisa, voqelik, ochiqlik D) alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat

Glossariy

AHVO-borliq hodisalari zamirida yotgan umumiylilik (mohiyat, imkoniyat, sabab) asosida namoyon bo'ladigan alohidalik (hodisa, voqelik, oqibat)

botiniy belgi -borliq hodisalarining kishi sezgi a'zolari bilan fahm qilinmaydigan, idrokiy yo'l bilan zohiriylardan umumlashtirish asosida aniqlanadigan belgilari

fahmiy (empirik) bilish -ilmiy bilishning ilk bosqichi bo'lib, borliq hodisalarining bevosita kuzatish mumkin bo'lgan zohiriylarini tadqiq qilish; *empirik yondashuv*

ilmiy bilish-borliq hodisalarini muayyan ilmiy xulosalarga kelish maqsadida va ongли ravishda maxsus tadqiq metodikasi (metodologiyasi va metodlari) asosida o'rganish

nazariy (idrokiy, mantiqiy, ratsional) bilish -ilmiy bilishning ikkinchi bosqichi bo'lib, borliq hodisalarining bevosita kuzatish mumkin bo'lмаган botiniy jihatlarini fahmiy (empirik) bilish xulosalariga tayangan holda tadqiq qilish; *nazariy yondashuv*

UMIS-bevosita kuzatishda berilgan borliq hodisalari zamirida yotgan, ularda namoyon bo'ladigan umumiylilik (mohiyat, imkoniyat, sabab)

WPm-o'zbek tilidagi AHVO tabiatli muayyan gaplarning umumiyligi qolipi, UMISi

zohiriylardan-borliq hodisalarining kishi sezgi a'zolari bilan fahm qilinadigan xususiyatlari

munosabat -borliq hodisalari orasidagi aloqadorliklar, o'xshash va farqli jihatlar majmui

2- ma'ruza

TIL, LISON, NUTQ MUNOSABATI

Reja:

1. Tilning tarkibiy qismlari.
2. "Lison" tushunchasi haqida ma'lumot.
3. "Nutq" tushunchasi haqida ma'lumot.
4. "Me'yor" tushunchasi haqida ma'lumot.

Kalit tushunchalar:

ilmiy bilish, fahmiy (empirik) bilish, nazariy (idrokiy, mantiqiy, ratsional) bilish, zohiriyl belgi, botiniy belgi, empirik yondashuv, nazariy yondashuv, муносабат, UMIS va AHVO, WPM

Egallanadigan tushunchalar:
til, lison, nutq, me'yor

1. Tilning tarkibiy qismlari. Umuman borliq uchun xos bo'lgan UMISning tildagi ko'rinishi **lison**, AHVOniki esa **nutq** deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui **til** deyiladi. Albatta, o'quvchi bunda ushbu so'zlarning etimologik ma'nosiga emas, balki terminologik ma'nosiga e'tibor qaratishlari kerak. Zero, ko'p hollarda etimologik va terminologik ma'nolar mos kelmaydi. Masalan, o'zbekcha til so'zi arabcha lison so'zi bilan bir xil ma'noni bildiradi. Biroq o'zbek tilshunosligida ular boshqa-boshqa terminologik ma'nolar uchun qabul qilingan.

1) Tilshunoslik paydo bo'lgandan buyon lison va nutni farqlashga, tilga sistema sifatida munosabatda bo'lishga harakat qilinadi. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalarni umumlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Xususiy hodisalar zamiridagi umumiylilikni ko'rishga intilish bilishning har ikki (fahmiy va idrokiy) bosqichida ham mavjud. Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning empirik bosqichi mutlaq xususiylik bilan o'ralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylilikni – UMISni tiklay olmaydi. Biroq тилшуносликнинг har бир босқичи о'з vazifalariiga ega. Bugungi kunda tilshunoslik quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi:

2) **tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy davri.** Bu davrda til sistemalarining kelib chiqishiga asosiy urg'u berilib, til yaxlit olinib, uning birliklarini lisoniy va nutqiy turlarga ajratish masalasiga e'tibor qaratilmadi;

3) **tilshunoslikning sistem-struktur davri.** Bu davrda tillarning sistemaviy xususiyatlariga, til birliklarini lisoniy va nutqiy turlarga ajratishga asosiy urg'u berilib, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishiga e'tibor qaratilmadi;

4) **tilshunoslikning antrposentrik davri.** Bu davrda til sistemalarining amal qilish xususiyatlariga, lisoniy imkoniyatlardan kishilarning nutqda amaliy foydalanish samaradorligiga e'tibor qaratila boshladi.

Mustaqil o'qish uchun

Tilshunoslikda substansial-pragmatik yo'nalish

Bugungi kunda taraqqiyot o'zbek tilshunosligidan aniqlangan lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirishni, ona tili imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligiga erishish muammosi bilan shug'ullanishni talab qilmoqda. Yangi asr fani zimmasiga yuklatilayotgan bu ijtimoiy buyurtma tilni yangi – substansial-pragmatik ("imkoniyatdan voqelikka") tamoyillar asosida tadqiq qilish asosida amalga oshiriladi.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishini ifodalovchi substansial-pragmatik terminining tarkibiga kirgan pragmatika so'zi yunoncha pragma, pragmatos so'zidan olingan va "ish", "harakat" ma'nolarini bildiradi, tilshunoslikda til birliklarining qo'llanish xususiyatlarini o'rganishni anglatadi. Substansial-pragmatik yo'nalish muayyan til imkoniyatlarini egallab, undan amalda foydalanuvchilarining ushbu birliklar sistemasiga ongli, amaliy munosabatini tekshiradi.

Substansial-pragmatik yondashuv – o'zbek fanida shakllanayotgan tilshunoslikning yangi empirik yo'nalishi. U lisoniy imkoniyatlarni so'zlovchi, tinglovchi, ularning o'zaro munosabati, muloqot vaziyati singari nolisoniy hodisalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so'zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatlari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, salomlashish, so'rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi.

Substansial-pragmatik yo'nalish Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti bag'rida shakllanmoqda.

Har bir davr o'z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo'yadi. "Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo'lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Turli fanlarning manbalari ko'p qirrali bo'lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri fanlardan o'rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e'tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo'llarini belgilab beradi" (H.Ne'matov). Shu asosda aytish mumkinki, zamонавиј о'zbek tilshunosligi **sistem-struktur davrining ilk bosqichi bo'lgan formal (an'anaviy) tilshunoslik** dialektika nuqtayi nazaridan, tildagi UMIS va AHVOni bir-biridan izchil farqlamay tasnif etish bosqichi hisoblanadi. Chunki bu davr tilshunosligi zimmasiga ularni aniq farqlash vazifasi yuklatilmagan edi.

XX asr boshlarida Yevropa ilmiy-falsafiy ta'lilotiga Fridrix Hegel dialektik usulining keng kirib borish fizikada to'ntarish hisoblangan Albert Eynshteyn nisbiylik nazariyasining shakllanishi va rivoji tilshunoslikka ham katta ta'sir ko'rsatdi – tildagi umumiyl va xususiy jihatlarni farqlashga turtki bo'ldi.

Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o'rganish avvalo, tilshunoslar Vilhelmon Humboldt, Boduende Kurtene va Ferdinandde Sossyur nomi bilan bog'liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga sistema sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u til ilmidagi mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi.

Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabgi yillarida **lisono'rnida til** atamasi qo'llanib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega

bo'lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Chunonchi, insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham ***til*** atamasi bilan yuritilar edi. Shu boisdan tilshunoslar UMISning tildagi ko'rinishiiga nisbatan ***lison***atamasini qabul qildilar. Dunyodagi biror tilshunoslikda lison va nutq hamda ularning majmui o'zbek tilshunosligidagidek terminologik aniqlikda ifodalanmagan.

Fanimizda ***til*, *lison*, *nutq***va ularni tutashtiruvchi ***me'yor*** munosabati quyidagicha tushunildi (2-jadval):

2-jadval

TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ

Yuqorida UMIS va AHVOning tildagi tajallisi (aksi) misolida lison va nutqning o'zaro munosabati haqida kirish mazmunida so'z yuritildi. Quyida unga batafsil to'xtalinadi.

Til – tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga, borliq haqidagi bilimlarni xotirada qat'iy sistema sifatida saqlashga, axborot uzatish va qabul qilishga xizmat qiluvchi muhim (birlamchi) ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi bo'lib, u o'z ichiga UMIS va AHVOlarni ham, UMISning AHVOga aylanish qonuniyatlarini ham qamrab oladi.

Mustaqil o'qish uchun

Tilga zo'rovonlik yoki mashhur lingvistik jinoyatlar

Zo'rovon siyosat tilda ham o'zining mash'um izlarini qoldirgan holatlar tarixda ko'p. Ulardan eng mashhuri Buyuk Fransuz inqilobi davriga tegishli. Bu inqilobning muhim merosi, bir tomonidan, erkin qomusiy fikrlashga keng yo'l ochganligi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, tilni zo'rlik bilan sindirishga ilk urinislarni amalga oshirganligi. Inqilob hukumati an'anaviy oy nomlari, murojaat ifodalaridan voz kechish siyosatini qo'llagan. Masalan, rasmiy murojaat uchun *sitoyen* ("shaharlik") ifodasini qo'llash majburiyligi belgilab qo'yilgan.

Rossiya inqilobchilari ham faranglardan qolishmadidi. Ularga taqlidan Rossiyada 1917- yilgi Fevral inqilobidan keyin *grajdanin* so'zi rasmiy murojaat tusini oldi. So'ngra *tovarish* so'zi ham ommalashtirildi. Eronda Islom inqilobidan keyin *birodar* so'zi shunday taqdirda ega bo'lgan. Bu so'zlarning barchasi rasmiy bo'yoq dor bo'ldi, lekin jonli til xazinasidan joy olmadidi.

O'tgan asrning 60-70 yillarda *grajdanin*, *o'rtoq* so'zlari o'z yo'nalishini o'zgartirdi – sobiq sovet rejimi davrida mahbuslar, mahkumlar huquq-tartibot xodimlarini *o'rtoq* emas, balki *grajdanin* so'zi bilan atash shart qilib qo'yildi.

Buyuk Fransuz inqilobi davriga kelib, fransuz tilidagi *ozodlik*, *shuhrat*, *vatan* so'zlari har doim qurbanlik talab qiladigan, qonga tashnalik mohiyati bilan yo'g'rildi. Xalq dushmani atamasi Fransiyadan keyin sobiq SSSRda xalqni, millatni mustaqil, ozod ko'rishga intilganlar uchun tavqi la'nat mazmunini kasb etdi. Bunday holatni Germaniyada *reyx dushmani*, Eronda *islom dushmani* birikmalari misolida ham ko'rish mumkin.

Germaniyadagi natsistlar hukumati 1936- yil 22- avgustda barcha rasmiy hujatlarda o'lgan nemis askarlarini "halok bo'lgan" (*gefallenen*) deb emas, balki "o'ldirilgan" (*ermordeten*) deb rasmiylashtirish haqida qaror qabul qildi. Bu "nemis askari vijdonli dushman bilan bo'lgan urushda halok bo'lindi, balki vijdonsizlar tomonidan vahshiylarcha o'ldirildi" degan g'oyani ifodalash uchun xizmat qilishi mo'ljallandi. Fashistik rejimda *volk* ("xalq"), *deutsch* ("nemis"), *blut* ("qon"), *boden* ("tuproq") so'zlari vermaxt natsional-sotsializmining asosiy tushunchalari sifatida rasmiylashtirildi.

SSSR tarixi darsliklari Rossiya imperiyasi egallagan hududlarga nisbatan tarixiy haqiqatga zid ravishda "bosib olish" so'zi o'rniga "qo'shib olish" ifodasini rasmiylashtirdi.

SSSR qo'shinlari Afg'onistoniga bostirib kirkach, sovet mafkurasi afg'on qarshilik harakati

a’zolariga nisbatan *dushmanso’zini* rasmiyashtirdi. Holbuki, mantiqan, bu so’zning bostirib kirgan tomonga nisbatan istifoda qilinishi to’g’riroq bo’lar edi.

Amerika Qo’shma Shtatlari Vyetnam urushi davrida tilni suiiste’mol qilishning o’ziga xos namunalarini ko’rsatdi. Urush AQSH hududidan ancha yiroqda bo’lganligi uchun mamlakat jamoatchilagini tinchlantirish maqsadida harbiy ma’muriyat qator evfemistik vositalarning OAV da qo’llanishini rasmiyashtirgan. Masalan, *appeasement* (“tinchlantirish”) so’zi “butunlay tor-mor qilish”, *self protektion* (“o’zini himoya qilish”) birikmasi “bombardimon qilish”, *friyendli fire* (“do’stona olov”) qurilmasi “bilmasdan o’z tomonidagilarni otib qo’yish” ma’nosida evfemistik qo’llanib, manipulyativ maqsadlarga bo’ysundirilgan.

Mantiqiy mushohada uchun

1. Til tafakkurni shakllantiradi degan hukmni qanday tushunasiz?
- 2.Til tafakkurni qay tarzda shakllantirishini izohlashga harakat qiling.
- 3.Tilning akkumulyativ vazifasi deganda nimalarni tushunasiz?

2. “Lison” tushunchasi haqida ma’lumot. Lison- ma’lum bir til jamiyatning barcha a’zolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo’ylgan, umumiy va majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash, uzatish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan vosita (birlik) lar hamda ularning o’zaro birikish qonuniyatlarining **ongdagি** sistemasi. Ajdodlar tomonidan bizga tegishli fonemalar, leksemalar, iboralar, morfemalar hamda ularning o’zaro birikish qoidalari qoldirilgan. Ular bizning ongimizda nutqda qo’llanish uchun shay holatda turadi. Lisonga xos birliklar lisoniy birlik deyiladi. Lison va nutq tilshunoslikda **sath** atamasi bilan yuritiladi. Demak, til lisoniy sath va nutqiy sathdan iborat.

Har qanday lisoniy birlik virtual xususiyatga, ya’ni ongga mansub mavjudlik tabiatiga ega. Shu bilan birga, ular quyidagi ikki tomonning bir butunligidan iborat:

- a) shakliy jihat;
- b) mazmuniy jihat.

Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, u moddiylikdan xoli bo’lmog’i lozim. Bunda “lisoniy birlikning shakliy jihat” moddiylikka ishora qilmaydimi, degan savol tug’ilishi tabiiy. To’g’ri, lisoniy birlik moddiylikdan xoli. Biroq ular ongda qandaydir ramz sifatida saqlanadi. Masalan, [a] fonemasining talaffuz xususiyati haqida umumlashma tasavvur o’zbek tilida so’zlashuvchi barcha jamiyat a’zolari ongida мавжуд. Bu [a] fonemasining shakli, tashqi tomoni hisoblanadi, uning ma’no farqlash tomoni ichki, mazmuniy jihat sanaladi. [a] fonemasi ana shu nisbiy shakl hamda mazmunning yaxlitligi sifatida ongda mavjud.

Har qanday UMIS ongda ma’lum bir mavjudlik sifatida yashaydi. Mavjudlik shaklsiz bo’lmaydi.

Har bir fonemaning ma’no farqlash (mazmuniy) va talaffuz (shakliy) xususiyatlarining ongdagi umumlashmasi o’ziga xos, biriniki ikkinchisiniidan farqlanadi.

Lisoniy birliklarning tashqi va ichki tomonini bir-biridan ajratish mumkin emas. Ular et bilan tirnoq kabi yaxlit bo’lganligi sababli “dialektik birlikda” deyiladi. Boshqacha aytganda, lisoniy birlikdagi ichki va tashqi jihatlar bir varaqning ikki tomoniga o’xshaydi, ularni ajratish mumkin emas.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Mavjudlik shaklsiz bo’lmaydi, degan hukmni qanday tushunasiz?
- 2.Ongdagи har bir UMIS tafakkur mahsuli degan hukmni qanday tushunasiz?
- 3.“Dialektik yaxlit” bo’lgan narsa bo’linuvchanmi yoki bo’linmas?

“Nutq” tushunchasi haqida ma’lumot. Nutq lisoniy birlikning jamiyat a’zolari ongida o’rnashganme’yor asosida muayyan moddiy (yozma, og’zaki va h.) shakllardan birida voqelanishidir. Masalan, *a* fonemasi og’zaki nutqda eshitiladigan tabiatga ega bo’ladi, bu eshitilish tovushning baland/pastlik, cho’ziq/qisqalik, kuchli/kuchsizlik, urg’ulilik/urg’usizlik kabilarni o’z ichiga oladi. So’zlovchi fonemalarni nutq tovushiga qanday sharoitda qay tarzda aylantirish qoidalarni biladi va bu qoidalarni til jamiyatidan o’zlashtirib oladi. Ana shu qoidalarni me’yor deyiladi.

Mustaqil o’qish uchun

PIYOLA

Oldimizdagi piyolani kuzataylik. U go’yoki nutqiy hodisa. U o’ziga xos UMISning voqelanishi.

Aslida har qanday AHVO faqat o’z UMISining voqelanishidan iborat bo’lmaydi. Unda har xil boshqa UMISlarning tajallilari ham aks etadi. Masalan, Men o’qiymen jumlasini olaylik. U nutqiy hodisa – gap. Unda gap UMISI voqelanishi bilan birga boshqa UMISlar ham tajallilangan. Masalan, fonetik UMIS, leksik UMIS, morfologik UMIS va h. Bular lisoniy UMISlar zarralari. Unda yana nolisoniy UMISlar ham bor. Masalan, so’zlovchi, tinglovchi, nutq vaziyati, muhiti va h.

Yana piyolaga qaytamiz. Piyolada ham faqat piyolaga xos UMIS tajallisi bilan birga boshqa UMISlar zarralari ham mavjud.

Narsaning o’ziga xos sof UMISini aniqlash uchun boshqa UMIS zarralarini aqliy yo’l bilan piyola AHVOsidan soqit qilish kerak.

Piyolada qum, rang, harorat, qum zarralarini birlashtiruvchi modda va h. UMISlar mavjud.

Xullas, Siz piyoladagi o’z va o’zga UMIS tajallilarini farqlab, ajrata olsangiz, nutqdagi tegishli AHVOlar zamiridagi UMISlarni aqliy yo’l bilan tiklay olasiz.

Marhamat, o’zingizni sinab ko’ring.

“Me’yor” tushunchasi haqida ma’lumot. Me’yor – lisoniy birlikning nutqda voqelanishi uchun tanlanish omil va usullari majmui. Masalan, **o’lmoq** fe’li o’rnida **asfalasofilinga ravon bo’lmoq** iborasini qo’llab bo’lmaydigan vaziyat va holatlar mavjud. Ana shu vaziyat va holat – me’yorning bir ko’rinishi. Me’yorni lisonning nutqqa aylanish muhiti, sharoiti deyish ham mumkin. Insonning nutqiy qobiliyati qaysi birlikdan qay vaziyatda qaysisini qo’llash malakasidir. Bu qobiliyat nutqiy muhitni his etib, lisonga murojaat qilishni ta’minlaydi.

Bir-birini taqozo etuvchi, o'zaro bog'liq bo'lgan **lison** – **me'yor** – **nutq** zanjirida faqat nutq tashqi (moddiy) shaklda (og'zaki, yozma) namoyon bo'ladi va sezgi a'zolarimizga ta'sir qiladi.

Mustaqil o'qish uchun

Sistema nima?

Har qanday sistema quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) sistema kamida ikki elementdan tashqil topadi;
- 2) bu elementlar orasida aloqa-munosabat (struktura) mavjud bo'ladi;
- 3) sistema elementlari birlashib, yaxlitlikni tashkil qiladi.

Demak, sistema munosabatlar asosida yaxlitlashgan elementlar majmuidir.

Sistemaning turlari ko'p. Ularni umumlashtirib, ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1) abstrakt sistemalar;
- 2) muayyan sistemalar.

Abstrakt sistema ongda mavjud bo'ladi. U aqliy faoliyat natijasida tiklanadigan umumiylig bo'lib, bunday sistemalar borliqda mavjud bo'lmaydi. Masalan, unlilar sistemasi, ruboiylar sistemasi, g'oyalar sistemasi.

Eslatib o'tish joizki, borliqda unlilar, ruboiylar, janrlar, she'rlar mavjud, ammo ular shu nomdagi sistema sifatida mavjud emas. Masalan, ijod mahsuli sifatidagi ruboiylar o'zaro tarqoq, sochilgan, bog'lanmagan, uzilgan holda yashaydi. Inson tafakkuri ularni bog'laydi, birlashtiradi – natijada abstraksiya mahsuli bo'lgan mavhum (abstrakt) sistema vujudga keladi.

Muayyan sistema borliqda mavjud bo'ladi. Ularni sezgi a'zolari vositasida his etish (ko'rish, o'qish, eshitish, hidlash va b.) mumkin. Masalan, har qanday she'r, har qanday sintaktik qurilma, umuman, borliqdagi har bir narsa muayyan sistemadir.

Lison – abstrakt, nutq muayyan sistemadir.

Ferdinand de Sossyur lison-nutq munosabatini shatranj o'yini qoidalari asosida tushuntirib berishga harakat qilgan.

Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatiga o'xshaydi. O'yinchi bamisol so'zlovchi, shaxmat o'yinini bilishi esa so'zlovchining nutq qobiliyatiga monand. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin:

Shaxmat – o'ynash qobiliyati – o'yin

Lison – nutq qobiliyati – nutq

Shaxmat donalari va ularning yurish imkoniyati o'ynovchining barchasi uchun umumiylig bo'lganligi kabi lisondan foydalanishda ham shu tilda so'zlashuvchilar teng huquqli.

Lison va shaxmat qurilmalari o'zaro qiyoslanadigan bo'lsa, avvalo, ularning birliklari orasida umumiylig o'xshashliklar borligini ta'kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sistemasi va bu birliklarning o'ziga xos vazifalari bilan ish ko'radi. Bunda ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayaniladi. Har ikkala holatning ham ishtiroychisi inson, ular har ikkala faoliyatda ma'lum bir imkoniyatni ishga soluvchilardir. Shu boisdan shaxmat taxtasi, uning donalari, ya'ni shaxmat o'yinining tashqi, moddiy tomonini lisoniy birlikning tashqi tomoniga, shaxmat o'yini qoidalari – donalarining joylashuvi, harakat qoidalari, ya'ni shaxmat o'yinining ichki tomoni haqidagi tasavvurlarni lisoniy birliklarning mazmun mundarijasiga qiyoslash mumkin.

Mustaqil o'qish uchun**Hikoyat**

Shaxmat o'ynaguvchi ikki ustod shaxmat taxtasini olib, ikki tomonga o'tirdi va o'rtada shatranji kabir – katta shaxmat donalarini to'kishdi. Har tarafdan bir shohtaxtaga terildi, ularning rasmana shohlarga o'xshash xizmatkorlari, lashkarlari bor edi. Har binning bittadan to'g'ri yuruvchi vaziri bo'lib, yana bittadan egri yuruvchi farzinlarham bor edi. U ikki shohdan biri Rum ahliga (oqlar donasi) shoh bo'lsa, ikkinchisi esa zang ahliga (qoralar donasi) kishvarpanoh edi. Ustod shoh va boshqa donalarni terib, ularga zebuoroyish bergan holda taxtada saf torttirdi. Shundan so'ng raqiblar maydonga ot solib, u yerda javlon urgan holda turli o'yinlarko'rsatdilar. Bu yer go'yo urush maydoni va o'rav olingan qal'aga o'xshar edi. Bir tomonnikinchi tomonni mag'lub etishga qattiq kirishgan. Urush saflarida fil ham, jirafa ham, rux, ayiq va kashshofa ham bor edi. Piyoda askarlar otliq suvorilar oldida tez va chaqqon urushmoqqa harakat qilishar edi. Qo'shinlar urush nizomlariga binoan bir-birlariga turli o'yinlar ko'rsatib, jang olib bormoqda edilar. Bir tomon o'z lashkarlarini pistirmada berkitgan bo'lsa, ikkinchi tomon bu qo'shinni buzish tadbirlarini ko'rardi. O'rtada ajoyib, qiziq o'yinlar namoyon bo'lmoqda, balki behad hiyla va tadbirlar ko'rsatilmoqda edi. Bunda pahlavonlar va qo'mondonlar ham bir-birlariga hujum qilishardi. Bu holat go'yo ikki qahramon shohning qo'shin tortib, bir-biriga qarshi urush olib borayotganiga o'xshash edi. Buncha qo'shin va dabdaba, qal'a, maydon va ot choptirib, javlon urishlar, chekinib qochishlar, ham o'ng qanot, ham chap qanotda, ham qo'shining ilg'or qismida ana shu xil g'avg'o-to'polonlar bilan jang bo'lmoqda edi. Har bir qo'mondonning o'g'li jangning oldingi saflarida borar, otasidan oldin urushgakirar edi. Urush maydoni bosib o'tilgach, otasining o'rnini bosar edi. Bir piyoda biryoqdan kelib, tez aylanuvchi charx yordamida maydonda qahramonlik ko'rsatar, yolg'izo'zi butun bir qo'shinni daf eta olardi. Urush maydoni ana shu xil turli tasodiflarga to'la bo'lib, go'yo bir-biriga qasoskor ikki shoh urush olib borayotgandek edi. Ularning har birida go'yo urush uchun tug'ilgan yuztuman yosh yigit bor edi. Bu xil jang maydoni kamdan-kam uchraydi. Olib borilayotganurushlarda bunchalik shiddat bo'lmaydi hamda el bunchalik qurol-tig' bilan ziynatlanaolmaydi. Shunchalik bunyodkorlik, maydon, o'zaro dushmanlik qilish va urush olib borishlar — hamma-hammasi,— agar o'yinchi donalarni yig'ishtirishga ahd qilsa va shaxmat taxtasining bir chetini ko'tarsa,- bularning barchasi o'rtadan ko'tarilib, yo'qqa chiqadi! Shunda na bu urush va na dushmanlikdan, na jang olib borish tartib-qoidalaridan asarqoladi. Ro'y bergan barcha holat va rusumlar, ya'ni jang maydonida ikki tomonning birbirigahujum qilishlari agar chuqr o'ylab ko'rilsa, o'tkir fikrli kishi oldida bularningbarchasi hech narsa hisoblanadi. Go'yo yuzga kirgan xasta bir kanizak kabi ularhechlikdan boshqa narsaga arzimaydilar. Ularni hatto bir parcha bo'zga bog'lab, o'tgaham, suvgaga ham tashlab yuborish mumkin. Chunki holat o'zgarib, uni o'ynaguvchi ustod uchun o'zin tugagach, ular hech qanday tafovutga ega bo'lmaydi. Shaxmat donalari xalta ichiga solingan, "shoh" quyi tushishi, "piyoda" esa yuqori ko'tarilishi mumkin! Bularning barchasi istig'no nishonasi, balki uning bir ko'rinishidir. Bas, sen butamsilga nazar sol, asl istig'noni bundan yuz ming marta ziyoda deb bil. Agar sen buningma'nosi tomon yo'l topsang, barcha ishni shunga qiyos qilg'il!

Alisher Navoiy, "Lisonut-tayr". Sh.Sharipov nasriy bayoni // www.ziyouz.com

Lison va nutq munosabatiga dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilsa, u haqdagi tasavvur va bilim to'laqonli bo'ladi (3-jadval):

3-jadval

BORLIQ		NUTQ
TIL		
LISON	ME'YOR	
Umumiylit		Alohidalik
Mohiyat		Hodisa

Imkoniyat		Vogelik
Sabab		Oqibat

Lisoniy va nutqiy sath o'z birliklariga ega. Bu birliklar ham ham lison va nutq kabi o'zaro UMIS va AHVO munosabatida bo'ladi (4-jadval):

4-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Fonema	Tovush
Morfema	Qo'shimcha
Leksema	So'z
Qolip	Yasama so'z, so'z birikmasi, gap

Mustaqil o'qish uchun

Til – shartli belgilar sistemasi

Guldasta – tabrik, gulchambar – xotira alomati. Fakultet binosida qo'ng'iroq chalinishi bilan hamma auditoriyaga kira boshlaydi. Telefoningiz ovoz bersa, javob berishga harakat qilasiz. Yo'lda mashina signal bersa, o'zingizni chetga olasiz. Lekin, tramvay qo'ng'iroq'i ovoz bersa ham, auditoriyaga shoshilasizmi? Mashinaning signalini eshitib, xonangizda ham o'zingizni chetga olasizmi? Yo'q, biz bunday kelishmaganmiz. Faqat o'quv binosidagi qo'ng'iroqqa talabalarni auditoriyaga "haydash" vazifasi yuklatilgan. Mashina signalini yo'lda "joningdan umiding bo'lsa, qoch" degan ma'noda tushunamiz. Chunki ular shartli belgilardir. Svetoforning chiroqlari, yo'l harakati ishoralari, xaritadagi belgilar ijtimoiy kelishuv asosida o'rnatilgan. Yo'l bo'lмаган joyda qandaydir qizil chiroq yonib turgan bo'lsa, mashinamizni to'xtatmaymiz. Ular ma'lum bir makon va zamondagina bu vazifani bajaradi.

O'rtog'ingizni ko'rib, qo'l silkiysiz – to'xtashga ishora qilasiz. Bu hamshartli belgi. Avtobusdag'i "100" raqamini ko'rib, shoshildingiz, chunki shartli belgini ko'rdingiz. Ko'chada bir kishi yotibdi. Qon oqqan. "O'lib qolgan bo'lsa kerak" – degan fikr miyangizga urdi. Qon, axir, o'lim alomati. Lekin u shartli belgimikan? Ana muammo! Daraxt barg chiqara boshlabdi. Bahor alomati. U ham shartli belgi bo'la oladimi? O'ylab ko'rish kerak.

Dunyoda qachon bitta til bo'ladi? Har qanday shartli belgi to'rtta muhim xossaga ega bo'ladi.

Birinchidan, ifodalovchi, ya'ni belgi moddiy shaklga ega bo'lishi lozim. Ovoz, rang, harakat va h.

Ikkinchidan, u nimanidir ifodalashi lozim. Qo'ng'iroq mashg'ulot boshlanishini, yashil rang esa harakatlanishni, ikki qo'lni xoch holatiga keltirish biror harakatni to'xtatishni ifodalaydi.

Uchinchidan, belgi bilan u ifodalaydigan mazmun orasidagi aloqa shartli, kelishilganlik tabiatiga ega bo'lishi lozim. Bu – eng muhimi. Masalan, eganing tagiga bir chiziq, kesimning tagiga ikki chiziq chizish kelishib olingan. Aslida, kelishilsa, svetofordagi qizil chiroqda harakatlanib, yashil chiroqda to'xtash ham mumkin bo'lur edi. Zero, svetofor ranglari bilan ular ifodalaydigan harakatlar orasida hech qanday bog'liqlik yo'q. Lekin qon o'limning, daraxt chiqarayotgan barglar bahorning shartli emas, balki tabiiy belgilari. Til ifodalari ham borliq hodisalari bilan tabiiy emas, balkishartli bog'lanishga ega. Agar til va borliq tabiiy bog'lanishga ega bo'lsa edi, dunyoda yagona til mavjud bo'lar edi. Bu tilning shartli belgilar sistemasi ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, shartli belgilar sistemasi a'zolari kamida ikkita bo'ladi. Masalan, svetoforning uch rangi bor. Arifmetik amallar to'rtta. Xaritadagi belgilar soni esa juda ko'p. Ammo... liftdagi yonib-o'chadigan chiroq bitta-ku? U shartli belgi emasmi?

"Ko'rishishni istamayman". Liftning oldiga borib qarang, tugmacha chiroq'i yonmagan, bundan uning band emasligini bilasiz. Lekin to'satdan yondi, demak, band bo'ldi. E'tibor bersangiz, bu yerda ham ikkita belgi bor. Chiroqning yongan holati ("bandlik" belgisi) va o'chgan holati ("band emaslik" belgisi). Yoki kursdoshingizga ko'l silkidingiz (bir belgi) yoki indamay qo'ya qoldingiz

(ikkinchi belgi). Telefoningiz ovoz berdi (bir belgi) yoki ovoz bermadi (ikkinchi belgi). Biz dastlab belgi sanamagan bu holat – nol belgi deyiladi. Birov sizga ko'rishish uchun qo'l uzatdi, bu – "ko'rishmoqchiman" ma'nosiga ega belgi. Lekin sizqo'l uzatmaditingiz, bu "nol" belgi bo'lib, "ko'rishishni istamayman" ma'nosini ifodalaydi. Tildagi nol shakllarni ham shu yo'sinda tushunmoq kerak.

O'rik – abrikos emas, abrikos esa o'rikdir. O'zimiz bilmagan har qanday shartli sistema haqida yuqoridagi fikrlarni aytsak, bo'laveradi. Shartli belgilar, ularning ifodalovchi va ifodalanmish tomonlari, shartli belgining tabiat, imkoniyatlari, shakllanish jarayoni, amal qilish xususiyatlari, sharoiti haqidagi fan sohasi semiotika deyiladi. Semiotika grekcha semeion ("belgi") so'zidan olingan bo'lib, uning asoschisi amerikalik olim Charlz Sanders Pirs (1839-1914) dir. Tilshunoslik – semiotikaning bir sohasi. Lekin semiotikani tilshunoslikning sohasi deb ajratish ma'lum darajada mantiqsiz. Til "bor bo'y" bilan shartli belgilar sistemasi ekan, tilshunoslikni semiotikaning markaziy sohasi deyishi mumkin. Noto'g'ri tushunish natijasida semiotika tilshunoslikda alohida soha sifatida o'z o'rniga ega bo'la olmayotir.

Savol va topshiriqlar

- 1.Til qanday tarkibiy qismlarga bo'linadi?
- 2."Lison" tushunchasi haqida ma'lumot bering.
- 3."Me'yor" tushunchasi haqida gapiring.
- 4."Nutq" tushunchasi mohiyatini bayon qiling.

Test

- 1.Til: A) lison, me'yor, nutq majmui B) vazifa, me'yor, nutq majmui C) lison, me'yor, usliub majmui D) miqdor, me'yor, nutq majmui.
- 2.Lison: A) lisoniy birliklar majmui B) birikish imkoniyati C) lisoniy birliklar va birikish qonuniyati D) lisoniy xususiyatlar va birikish qonuniyati.
- 3.Lisoniy birliklar: A) fonema, leksema, morfonema, qolip B) fonema, leksema, morfema, qolip C) fonema, leksema, morfema, me'yor D) fon, leksema, morfema, qolip.

Glossariy

- til** – lison, nutq, meyor va nutqiy faoliyatni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy hodisa
lison – tilning lisoniy birliklar va lisoniy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi, virtual qismi
nutq – lisonning meyor asosida individual shaxs orqali moddiy tusga kirishi
me'yor – jamiyatda lisoniy imkoniyatlardan tanlashni amalga oshirish uchun shakllangan, muhit, sharoit va vaziyat mahsuli bo'lgan, tildan foydalanish ijtimoiy malakasi

Adabiyotlar

- 1.Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
- 2.Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

3- ma'ruza

TIL BIRLIKLARI

Reja:

1. Fonema va tovush.
2. Leksema va so'z.
3. Morfema va qo'shimcha.
4. Qolip va hosila.

Kalit tushunchalar

til, lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, UMIS, AHVO

O'zlashtiriladigan tushunchalar

fonema, tovush, morfema, qo'shimcha, leksema, so'z, qolip, hosila

Til lison va nutqdan iborat bo'lganligi sababli lisoniy va nutqiy sath birliklarini umumlashtirib, til birliklari deyish mumkin. Fonema, tovush, morfema, qo'shimcha, leksema, so'z, qolip, hosila til birliklaridir.

1. Fonema va tovush. Fonema – eng kichik lisoniy birlik. “Ma’no farqlash” vazifasini fonemaning mazmuniy jihatni deyish mumkin. Demak, fonemaning ma’no farqlashi deganda, turli fonemalarning nutqiy ko‘rinishlari bo‘lgan nutq tovushlarning ma’no farqlashi tushuniladi. Boshqacha aytganda, fonema o‘zining nutqiy ko‘rinishi bo‘lgan nutq tovushlari vositasida ma’no farqlaydi. Fonema muayyan til egalarining bir turdagini tovushlar (masalan, nutqdagi ko‘plab *a* tovushlari) haqidagi umumiylashtiriladi. Fonema ongda yakka holda, ajralgan tarzda mavjud bo‘ladi. Ya’ni, masalan, [a] fonemasi hech qachon boshqa fonema bilan birikkan holda bo‘lishi mumkin emas. Har bir fonema so‘zlovchilar ongida bir turdagini tovushlarning umumiylashtirilishi “akustik-artikulyatsion portreti” yoki “tovushlar obrazi” sifatida saqlanadi.

O‘zbek tilida so‘zlovchi shaxslar ongida tovushlarning 30 ta tipi – fonema haqida ma’lumot bor.

Фонеманинг нутқда воқеланиши товушдир. Нутқдаги барча тил бирликлари таркибидаги овозли тил ҳодисаси нутқ товуши ҳисобланади.

Tabiatdagi tovushlar uch xil: **fizik, biologik va nutq tovushi**. Fizik tovush jonli va jonsiz mavjudotning barchasiga xos, u havoning siqilishidan hosil bo‘ladi. Biologik tovush jonli mavjudotga xos va tiriklik belgisidan biri. Hayvon va parrandanining ovozi, kishining gap hosil qilmaydigan tovushlari: qiyqiriq, xurrak, kulgi, yig‘i ovozi.

Nutq tovushi faqat insonga xos bo‘lib, uch xil xususiyati bor:

- 1) ijtimoiy tabiatga ega;**
- 2) ma’no farqlaydi;**
- 3) nutq hosil qiladi.**

Nutq tovushi kishilik jamiyati bilan bog'liq ravishda vujudga kelganligi va uning uchun xizmat qilganligi bois ijtimoiy tabiatga ega deyiladi.

Ma'no farqlash xususiyati deganda bir tovush o'rni boshqa tovushga berilsa, so'z va qo'shimcha ma'nosи farqlanishi, ya'ni boshqa so'z va qo'shimcha vujudga kelishi tushuniladi: **bosh - besh - bo'sh; ko'r - so'r - bo'r; ko'l - ko'r - ko'z; -chi - -ni - -gi** kabi. Bir tovushning ikki xil varianti bo'lishi mumkin. Masalan, **maktab** so'zidagi **a** tovushi til oldi, **qalam** so'zidagi birinchi **a** til orqa talaffuz etiladi. Lekin bundagi til oldi tovushini til orqa tovushi bilan almashtirsak, baribir o'sha so'z, ma'no qolaveradi. Demak, o'zbek tilida ikkita – til oldi va til orqa **a** tovushi yo'q, ular bir fonemaning ikki variantdir.

Nutq tovushi so'z va qo'shimchalar tarkibida bo'lsa, fonema o'zaro ajralgan holda ongda mavjud bo'ladi.

Tovush nutq hosil qilishi lozim. Bir qarashda bir-ikki oylik chaqaloq **a, b, d** kabi tovushni talaffuz etgandek tuyuladi. Lekin u nutq, ya'ni so'z, gap hosil qilishda ishtirok etmaganligi bois nutq tovushi emas, biologik tovush hisoblanadi.

Tovush ba'zan so'z va qo'shimchaga teng bo'lishi mumkin: *U keldi. Bu Salim-a?* Tahlilda bu ajratilgan birliklar fonetik jihatdan bir tovush, leksik jihatdan so'z yoki morfemik jihatdan qo'shimcha sanaladi.

Mustaqil o'qish uchun

Fonetik hazil

Tilning tilsimoti – haqning qudrati,
Undagi har unsur hikmatga ega.
Har bitta birlikka vazifa tayin,
Istalgan vosita qiymatga ega.

Bilsangiz, unlilar tizimchasini,
Oltovlon birlashgan bir vujud erur.
Ortiq yo kam degan kalom yo'q bunda,
Haqiqat amri-la ul mavjud erur.

Har bitta unlida ikki belgi bor,
Juftlik tamoyili ularga tandir.
Baqamti yashaydi zotiy belgilari,
Bir unli ul juftga ayni vatandir.

Lablangan har birlik lablanmagandan
Farq qilib turadi o'z borlig'ida.
Quyimi, o'rtami yoki yuqori –
Faqat qo'sh belgi bor til yorlig'ida.

Ikki va uch belgi ko'paytmasidan
Unlilar miqdori tayin bo'lgandir.
Belgilarning soni o'zgarsa, balki,
Miqdor saqlanishi qiyin bo'lgandir.

Tilning fonetik sathi eng barqaror sath hisoblanadi. Ming yillarda ham sath birliklari tarkibida o'zgarish bo'lmaydi. Leksik va grammatik sathlar tarkibida o'zgarishlar bo'lib turadi. Lekin fonetika o'ta barqarorligi bilan xarakterlanadi.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Tilda nega boshqa tillardan nutq tovushini o'zlashtirilmaydi?
- 2.Bir kishi o'z nutqida o'zlashma so'zlarni aslidagidek talaffuz qiladi? Nega biz uni fonetik o'zlashmaga misol qilmaymiz?
- 3.Grammatikada o'zlashtirilgan hodisalar bormi?
- 4.O'zbeklarning o'zga tillar fonetikasini o'zlashtirishi nisbatan yengil kechadi. Buning sababi nimada?

2. Leksema va so'z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema. Leksema borliq hodisalarini nomlab, ularni kishilarning muloqoti uchun tayyorlaydi. Til egasi sezgan narsa, albatta, nom oladi. Hech bo'limganda so'z birikmasi bilan nomlanadi.

Leksema tilning asosiy va markaziy birligi. So'z termini leksema ma'nosida ham qo'llanadi. Shaxsning tili bilimi uning fonetik yoki grammatik bilimi bilan emas, balki leksik zaxirasining boyligi bilan o'lchanadi. Ona tili o'qitishning asosiy vazifasi ham leksema, ya'ni so'z ta'limidir. Bejiz so'z tilga tenglashtirilmaydi: *Xalqaro anjumanda o'zbek so'zi jarangladi*. Buyuk sharq mutafakkirlari ham so'z deganda ko'p hollarda tilni nazarda tutishgan.

Mustaqil o'qish uchun

So'z ta'rifida

So'z gavharining sharafi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf ichidagi gavharga quti ham shu so'z, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so'zdir.

So'z jon bo'lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyoda bor barcha ko'ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og'iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir.

Agar til bamisolai bir po'lat xanjar bo'lsa, so'z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi bo'lsa, so'z durlari unga qo'ngan shabnamlardir.

So'z o'lgan odamning tanasiga pok ruh bag'ishlaydi. So'zdan tandagi tirik ruh halok bo'lishi mumkin. Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltira olgani uchun Iso payg'ambar o'zini "Jonbaxsh" degan laqab bilan atagan. So'z tufayli Xalil o'zini o'tga tashlagan; Jabroil ham so'z yukiga hammol bo'lgan. Tangri insonni sirlar xazinasi darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi.

G'uncha og'izlik, shirin lab jonon gapirmasdan labini yopib turib olsa, uning mayday totli la'lilablari aqlni mast qilsa, mastlik u yoqda tursin, mayparast qilib qo'ysa ham, tashqi ko'rinishi bilan osmondag'i oy bo'lsa ham, devordagi surat bilan uning ko'rinishi o'rtasida farq yo'q.

Bazmda har qanday sozanda dilkash kuylarni ijro etib, kuyda qancha yaxshi takrorlar, mashqda qancha yaxshi naqarotlar bo'lmasin, tushungan odamlar undan to'la qanoatlanadilar. Kuy ijrosi cho'zilib ketsa, ularga malol ham keladi. Bu kuy orasida joyini topib, Navoiy so'zi bilan bir g'azal ashula qilib aytilsa, so'zlar olov purkab, tinglovchilar qalbini mung bilan ezsa, u vaqtida sen

bazmdagi to'polonni ko'r! Mayxonadagi g'avg'olarni tomosha qil! Yoqa yirtish qanday bo'lishini ko'r, fig'on tortib, o'zini o'ldirganlarga boq!

Durning bir donasi bilan bog'liq gapga ishonma, so'zni jahon dengizidagi haqiqiy durdona deb bil!.

Alisher Navoiy. "Hayratul-abror"dan

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Hazrat Navoiy **so'z** istilohini qaysi o'rirlarda **til** ma'nosida qo'llagan?
- 2.Mutafakkir **to'rt sadaf** deganda nimani nazarda tutgan?
- 3."Durning bir donasi bilan bog'liq gapga ishonma, so'zni jahon dengizidagi haqiqiy durdona deb bil" jumlasida **dur, durdona, jahon dengizi** so'z va birikmalari nimaga nisbatan qo'llangan?

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemaning mazmun mundarijasi **denotat** yoki **referent** deb ataladigan, borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi. Y **semema** deyiladi.

Leksemaning mazmuni bo'lgan sememani tashkil etuvchi qism **sema** deyiladi.

3. Morfema va qo'shimcha. Morfema – grammatik ma'no ifodalaydigan yoki so'z yasaydigan lisoniy birlik. Qo'shimcha –morfemaning nutqda namoyon bo'lishi, UMISning AHVOga aylanishi. Esda tutish lozimki, yasalgan leksemalar tarkibidagi yasovchilar, garchi leksema lisoniy sathda bo'lsa ham, morfema emas, balki qo'shimcha deyiladi.

Morfema ham tashqi (shakliy) va ichki (mazmuniy) tomonlar yaxlitligidan iborat. Morfema o'zining nutqiy ko'rinishlari bo'lgan qo'shimchalar orqali ifodalanadigan ko'plab ma'nolarning umumlashmasini, "mag'zi"ni o'zida (lisonda)saqlaydi. Morfemaning mazmuniy tomoni **grammema**, grammemaning nutqiy voqelanishi **grammatik ma'no** deyiladi. Masalan, [-ni] tushum kelishigi morfemasining grammemasi – "**oldingi mustaqil so'zni keyingi fe'lga tobelash**" lisoniy sathda mavjud. Bu morfema nutqdagi **Kitobni o'qidim** gapida qo'shimcha sifatida voqelangan bo'lib, uning mazmuniy tomoni – "oldingi **kitob** so'zini keyingi **o'qidim** so'ziga tobelash" grammatik ma'nosidir.

Lisoniy sathda **so'z yasovchi** (derivatsion) **morfemalar** va **grammatik morfemalar** guruhi mavjud. Ularning nutqdagi ko'rinishlari lison va nutq bo'linishiga mos ravishda **so'z yasovchi qo'shimcha** va **grammatik qo'shimcha** deb nomlanadi.

Mustaqil o'qish uchun

Yana tilning sistemaviyligi haqida

Rus tilshunosi Dmitriy Nikolayevich Ushakov "Til haqidagi fanga qisqacha kirish" kitobida yozishicha, so'z leksik va grammatik qismlarga bo'linishi uchun ikki talabga javob berishi kerak. Birinchidan, grammatik qism ushbu ma'nosini bilan boshqa so'zlarga ham qo'shilib kelaverishi

kerak. Ikkinchidan, so'z ushbu ma'nosi bilan boshqa grammatik shakllarni o'ziga biriktira olishi kerak. Masalan, qo'lim so'zi qo'l+im tarkibiy qismlarga -im qo'shimchasi oyog'im, qulog'im, tirnog'im, barmog'im, sochim, kitobim kabi so'zlarda uchraganligi uchungina emas, balki qo'l so'zi qo'llar, qo'lni, qo'l bilan, qo'ldek kabi so'zlarga asos bo'lganligi uchun ham ajratiladi.

Agar bu asoslardan biri bo'lmasa ham, so'z tarkibiy qismlarga ajralmaydi. Masalan, shilqim so'zidagi -im qo'shimchasi qo'lim so'zidagi -im qo'shimchasining vazifasini bajarmaydi.

Bitta grammatik shakl birgina so'zga, bir so'z birgina grammatik shaklga ega bo'la olmaydi.

Olim tilning sistema ekanligini shunday asoslaydi.

O'tgan asrning 20-yillarida tilning sistema ekanligini asoslashda bunday yondashuvlar kam uchraydigan holatlardan edi. Shuning uchun u o'z davrida eng dong taratgan fikrlardan edi.

4. Qolip va hosila. Lisoniy birlikning navbatdagi turi **qolip** deyiladi. Qolip deganda yasama so'z, so'z birikmasi va gaplar hosil qilishning ongdagi sxemalari tushuniladi. Bu sxemalar til jamiyatni a'zolarining lisoniy birliklarni nutqda biriktirib voqelantirish malakalari sifatida yuzaga chiqadi. Grammatik qonuniyat va qoidalar faqat qoliplarda amal qiladi. Qolipdan tashqarida sintaktik aloqa haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Masalan, leksema faqat qolipda grammatik jihatdan shakllanadi.

Qoliplar ikki xil bo'ladi:

- a) so'z yasash qolipi;
- b) sintaktik (so'z birikmasi va gap hosil qilish) qolip.

So'z yasash qolipidan kam foydalanamiz. Chunki biz har doim ham so'z yasayvermaymiz.

Qolip ham boshqa lisoniy birliklar kabi UMIS tabiatli bo'ladi. Masalan, nutqdagi cheksiz yasama so'z (masalan, **sutchi**, **nisholdachi** kabi bitta, bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, **[narsa/buyum oti + chi = shu narsa/buyum bilan shug'ullanuvchi kishi]**, ya'ni so'z yasash qolipining nutqiy hosilasi. **Kitobni o'qimoq** nutqiy hosilasi boshqa o'ziga o'xshash cheksiz so'z birikmalari (**qog'ozni yirtmoq**, **uyni sotmoq** va h.k.) bilan bиргаликда **[ot^{tushum} kelishigi + Fe'l = vositasiz to'ldiruvchili fe'lli birikma]** lisoniy sintaktik qolpiasosida hosil qilingan nutqiy birlik.

Qolip miqdoran cheklangandir. Masalan, o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz so'z birikmasi hosil qilinadi (bu haqda "So'z birikmasi" bo'limida batafsil bayon etiladi).

Qolip ham boshqa lisoniy birliklar kabi shakl va mazmun yaxlitligidan iborat. Yuqorida keltirilgan qoliplarning tenglikdan chap qismi shakliy, o'ng qismi esa mazmun tomoni deb yuritiladi. Qolipning **[sifat + ot]** tarzida mazmuniy tomonsiz berilishi ham xato emas. Chunki, masalan, **[-mi]** morfemasi misol sifatida olinganda, uning grammatik ma'nosi, **[kitob]** leksemasi haqida fikr yuritilganda, har doim uning sememasi ham berilishi (masalan, **[-chi = so'roq, taajjub bildiruvchi morfema]**, **[kitob = varaqlaridan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi o'qish quroli]**) shart emas. Shu boisdan qolip haqida gap ketganda, uning shakl tomonini qayd etish kifoya qiladi.

Mustaqil o'qish uchun**Rimliklar bahsi**

Darsliklar har doim ham sevimli bo'lavermaydi. Lekin rus olimi Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiyning rus tilidagi "Tilshunoslikka kirish" kitobi, mana, bir necha talabalar avlodining sevimli darsligiga aylanib qolgan va shunga munosib ham. Uning til birlklari tavsifi bag'ishlangan bir parchani keltirish bilan fikrimizni asoslasmiz.

"Til strukturasiga qanday birlklar kirishini aniqlash uchun quyidagi tahvilni keltiramiz: ikki nafar rimlik "kim eng kichik jumla ayta oladi" degan masalada bahslashib qolishibdi. Shunda biri debdi:

Eo rus ("Men qishloqqa!").

Ikkinchisi debdi:

I ("Boraver")!

Bu eng kichik, shu bilan birga, barcha jumalarga xos belgilarga ega bo'lgan to'la ma'nodagi tugal jumla. Xo'sh, bu jumlaning elementlari qaysilar?

1) **[i]** – fonemaning nutqiy varianti, quloq bilan eshitiladi, i harf sifatida ko'z bilan ko'rilib, o'qiladi;

2) **i** – o'zak (umuman olganda, morfema), qandaydir tushunchani ifodalaydigan element, birlik;

3) **i** – muayyan hodisani anglatuvchi so'z (bo'yruq maylidagi, ikkinchi shaxsdagi, hozirgi-kelasi zamon fe'li);

4) **i** – axborot mazmuniga ega bo'lgan shaxsi aniq, yig'iq, sodda gap.

Kichkinagina "i" da tilning barcha birlklari mujassam: 1) fonema; 2) morfema; 3) leksema; 4) sintaktik qurilma.

Tilda shundan boshqa xildagi narsa yo'q bo'lishi ham mumkin emas.

Nega olim til strukturasini tushuntirish uchun aynan shu misolni keltirdi. Tilda miqdor emas, balki sifat rol o'ynaydi. Demak, til miqdoriy emas, balki sifatiy birlklardan iborat. Sifat esa vazifa, funksiya demakdir.

Энциклопедия. Языкоznания. – Москва, 2001. –C.30

Yo'l-yo'lakay bajarish uchun

O'zbek tilida ham o'zida tilning barcha birlklarini mujassamlashtirgan eng kichik birlklarni aniqlang.

Shunday qilib, **fonema, morfema, leksema** va **qolip** lisoniy birlik bo'lsa, **tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi** va **gap** esa nutqiy birlikdir. Ma'lum bir qolip asosida vujudga kelgan birlklar **hosila** termini bilan ham nomlanadi.

Lisoniy va nutqiy birlklarning o'zaro munosabati va o'ziga xos belgilariga doir fikrlarni jadvalda quyidagicha berish mumkin (6-jadval):

6-jadval

BORLIQ		NUTQ
TIL		
LISON	ME'YOR	Fonema
Morfema		Tovush
Leksema		Qo'shimcha
		So'z

Qolip		Hosila (yasama so'z, so'z birikmasi, gap)
-------	--	---

Demak, lisoniy va nutqiy birlik o'zaro quyidagi dialektik munosabatda bo'lsa (7-jadval):

7-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIYBIRLIK
Umumiylit	Alohidalik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Vogelik
Sabab	Oqibat

bir vaqtning o'zida, quyidagi qarama-qarshi belgilarga ham ega bo'ladi (8-jadval):

8-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIYBIRLIK
Moddiylikdanxoli	Moddiylikka ega
Cheklangan	Cheksiz
Ijtimoiy	Individual
Barqaror	O'tkinchi

Savol va topshiriqlar

1. Lisoniy birliklarning qanday turlari bor?
2. Eng kichik lisoniy birlik va uning nutqiy voqelanishinima?
3. Morfema va qo'shimchaning farqi nimada?
4. Leksema va so'zning farqi nimada?
5. Qolip va hosila tilshunoslikda tushuniladi?
6. Hosila birliklar qaysilar?
7. Biror matnni olib, unda qo'llangan birliklarni lison va nutq bo'linishi nutqtayi nazaridan tahlil qiling.

Test

1. Quyidagilardan qaysisi lisoniy birlik belgisi emas: A) moddiylikdan xolilik B) cheksiz C) barqaror D) ijtimoiy
2. Quyidagilardan qaysisiniutqiy birlik belgisi emas: A)moddiylikdan xoli B) cheksiz C) o'tkinchi D) individual
- 3.Lison va nutq qaysi bosqichda izchil farqlandi? A) formal B) funksional C) substansial D) lingvopragmatik
- 4.Lisoniy birlik mohiyati tilshunoslikning qaysi bosqichida tiklanadi? A) formal bosqichda B) funksional bosqichda C) substansial bosqichda D) lingvopragmatik bosqichda
- 5.Kitob leksemasida nechta fonema mavjud? A) 5 B) 4 C) 3 D) fonema mavjud emas.
6. Maktab leksemasi qaysi kelishikda? A) bosh kelishikda B) qaratqich kelishigida C) tushum kelishigida D) kelishikda emas.

Glossariy

fonema – nutqiy ko'rinishi leksema va morfemalarni shakllantiradigan va ma'no farqlaydigan, faqat eshitilishi asosida mavjud bo'lgan, eng kichik lisoniy birlik

tovush – fonemaning nutqda ovozli xususiyat kasb etib, so'z va qo'shimchalar tarkibida kelgan varianti

morfema – so'z yasaydigan, so'zlarning grammatic shakllarini vujudga keltirib, sintaktik qurilmalarni hosil qilishda qatnashadigan, ma'nosi so'zlarga bog'liq holda namoyon bo'ladigan, mustaqil holda ma'no bermaydigan nutqiy birliklarning lisoniy asosi

qo'shimcha – morfemaning nutqda reallashgan, so'z yasash va grammatic vazifa bajaradigan ko'rinishi

leksema – atash mohiyatiga ega, mustaqil ma'no anglata oladigan, tugal shakllangan lisoniy birlik

so'z – leksemaning nutqda reallashgan, borliq hodisalarini ifodalash uchun qo'llangan, grammatic shakllangan ko'rinishi

qolip – gap, so'z birikmasi va yasama so'z hosil qilish andozasi sifatidagi lisoniy birlik

hosila – muayyan andoza asosida hosil bo'lgan nutqiy birlik

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Vohidov R., Ne'matov H., Mahmudov M. So'z bag'ridagi ma'rifat. - Toshkent: Yozuvchi, 2001.

4- ma'ruza

LISONIY PARADIGMA

Reja:

1. Paradigma haqida tushuncha.
2. Tilda assosiativ munosabat.
3. Lisoniy paradigma haqida.
4. Lisoniy paradigma turlari.

Kalit tushunchalar

lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, fonema va tovush, leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila

O'zlashtiriladigan tushunchalar

assosiatsiya, munosabat, sistema, struktura, element paradigma, paradigma a'zosi, fonologik paradigma, morfemik paradigma, morfologik paradigma, leksik paradigma

1. Paradigma haqida tushuncha. *Paradigma* lingvistik tushuncha sifatida barcha fanlarda qo'llanadigan *sistema* tushunchasi bilan bog'lanadi.

Avvalgi mavzularda sistemaning turlari haqida gapirilgan va unda mavhum (ongda mavjud) va aniq (borliqda mavjud) sistemalar farqlangan edi. Quyida ularning har biriga alohida-alohida to'xtalamiz/

Sistemalarning tarkibibir xil yoki har xil bo'lishi mumkin:

Tarkibi	Mavhum sistema	Muayyan sistema
Element	$[a \leftrightarrow o \leftrightarrow u \leftrightarrow o' \leftrightarrow i \leftrightarrow e]$	$[ko'rdim]$
Munosabat	a, o, u, o', i, e	k-o'-r-d-i-m
	o'xshashlik va zidlanish	farqlanish va bog'lanish

Bu sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari:

Mavhum sistema	Muayyan sistema
$[a, o, u, o', i, e]$	$[ko'rdim]$
Nomoddiy	Moddiy
Ongda	Ongdan tashqarida
Elementlari gomogen, ya'ni bir xil (faqat unli)	Elementlari geterogen, ya'ni har xil (unli va undosh)
Elementlari orasida o'xshashlik va zidlik munosabati mavjud	Elementlari orasida bog'lanish munosabati mavjud

Yana badiiy sistema sanaladigan [ruboiy] abstrakt sistemasini uning nusxasi bo'lgan "G'urbatda g'arib..." muayyan sistemasi bilan ham qiyoslab ko'rish foydadan xoli emas:

Bu sistemalarning tarkibi quyidagicha:

Tarkibi	Mavhum sistema	Muayyan sistema
	[ruboiy]	"G'urbatda g'arib..."
Element	1)vazn (hazaj bahri) 2)qofiya (a-a-b-a yoki a-a-a-a) 3)hajm: (to'rtlik) 4)g'oya: (falsafiy, axloqiy, ta'limiy)	1)xazaj bahri axram shajarasi 2)a-a-b-a 3)to'rtlik 4)erk
Munosabat	Bog'lanish	Bog'lanish

Farqlar asosida sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi:

Mavhum sistema	Muayyan sistema
[ruboiy]	"G'urbatda g'arib..."
Nomoddiy	Moddiy
Ongda	Ongdan tashqarida
Elementlari geterogen (har xil)	Elementlari geterogen (har xil)
Elementlari orasida bog'lanish munosabati mavjud	Elementlari orasida bog'lanish munosabati mavjud

Ko'rilganidek, ayrim mavhum sistemalarning borliqda nusxasi bo'lsa (masalan, *kitob* leksemasining nusxasi *kitob* so'zi, *ruboiy* sistemasining nusxasi muayyan bir ruboiy), boshqasi nusxasiz bo'ladi (masalan, kelishik sistemasi, adabiy turlar sistemasi). Aniqrog'i, nutqda *kitob* so'zi mavjud, lekin oltita kelishik yaxlitligidagi nutq hodisasi, adabiy turlar sistemasining nusxasi bo'lgan badiiy hodisa yo'q. Nusxali mavhum sistemanı prototipli sistema, nusxasiz sistemanı prototipsiz sistema sistemasi) deyish ham mumkin.

2. Tilda assosiativ munosabat. Sistemadosh (bir sistemaga mansub) lisoniy birliklar bir-birini eslatib turadi. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o'] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Umuman olganda, bir unli boshqa unlini eslatadi. Bu ushbu unlilarning bir sistemaga kirishi tufayli sodir bo'ladi. Bu fikr undosh fonemalarga ham taalluqli. Lekin [a] fonemasi dabdurustdan [q] yoki [h] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki sistema – unlilar va undoshlarsistemasiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar sistemasida, undoshlar esa undoshlar sistemasida eslata oladi. Hatto [u] fonemasining [a]fonemasini eslatishi o'z sistemadoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, [a], [o] fonemalari ichki, mikrosistema

hosil qilib, birqalikda boshqa fonema juftliklarini eslatadi. Bir-birini eslatib turish *assosiativ munosabat* deyiladi.

Eslatish ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Masalan, [yuz] leksemasi, bir tomondan [bet], [chehra], [jamol], [oraz] kabi birliklarni, ikkinchi tomondan, [burun], [ko'z], [qulog], [qosh], [lab] leksemalarini eslatadi va bunda u ikki sistemaning a'zosi ekanligini namoyon qiladi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xhash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xhashlik va umumiyligini birlashtiruvchi, bir sistemada "ushlab turuvchi" belgilari sanaladi. Masalan, unlilar "sof ovozga egalik" umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, bu sistemada [a]"lablanmaganlik", [o]"lablanganlik" farqlovchi belgisiga ega, "kenglik" belgisi esa ularni birlashtiradi.

Mustaqil o'qish uchun

Sistema shartlari

Sistema o'zaro munosabatlarga kirishgan elementlar yaxlitligidir. Sistema tarkibidagi elementlarning belgilari uch turga bo'linadi:

- 1.Sistemani tashkil etuvchi belgilar.
- 2.Sistemada hosil bo'luvchi belgilar.
- 3.Sistemaga betaraf belgilar.

Buni hayotiy bir dalil bilan asoslasmiz. Deylik, oila bir sistema. Uning tashkil etuvchilari, ya'ni elementlari ayol va erkak. Ayol va erkak (elementlar) quyidagi belgilarga ega bўлади:

- 1.Sistemani tashkil etuvchi belgi: turli jinsga mansublik.
- 2.Sistemada hosil bo'luvchi belgilar: erlik va xotinlik.
- 3.Sistemaga betaraf belgilar: bu har bir oila sistemasida o'ziga xos bo'lishi mumkin.

Har bir oila o'ziga xos alohida sistema bo'lganligi sababli ularni tashkil etuvchi elementlarning yuqorida aytilgan uch belgisi ham o'ziga xos bo'lishi mumkin. Masalan, bir oila uchun diniy e'tiqod birinchi belgi bo'lsa, u boshqa oila uchun uchinchi belgi bo'lishi mumkin.

Til sistemasi, uning ichki sistemalari ham xuddi shu qonuniyat asosida qurilgan.

3.Lisoniy paradigma haqida. Paradigma haqidagi ilk tasavvurimizni shakllantirish uchun borliqdagi bir dalilga murojaat qilamiz.

Qolimizda bir shoda har xil kalit bor. Qulfni ochish uchun ularni birma-bir qulfga tiqib ko'ramiz. Natijada bittasi tushadi va qulf ochiladi. Ana shu kalitlar shodasini paradigmaga qiyoslash mumkin. *Kitob... berdi* gapi bamisol qulf. Uning teshiklariga kelishiklardan biri tushadi. *-ning, -ni, -da* qo'shimchalarini birma-bir qo'yib ko'ramiz. Qurilmaga tushum kelishigi shakli *-ni* tushadi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar sistemasi **paradigma** deyiladi (**paradigma** grekcha *paradeigma* –

“misol”, “namuna” degan ma’nolarni bildiradi)³. Har qanday lisoniy sistema, bir vaqtning o’zida, lisoniy paradigma sanaladi. Grammatik kategoriyalar ham lisoniy paradigma ko’rinishlaridan biri.

Paradigmani tashkil etuvchi lisoniy birlik **paradigma a’zosi** deb yuritiladi. Paradigma kamida ikkita a’zodan iborat, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo’ladi.

Ferdinandde Sossyur lisoniy paradigma tarkibidagi, boshqacha aytganda, lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o’xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi kerak:

1) paradigmadagi bitta birlik tilga olinganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a’zo ham eslanishi (masalan, bir kelishik shaklining boshqa kelishik shakllarini, bir ma’nodosh birlikning ma’nodoshlik qatoridagi boshqa birlikni eslatishi kabi);

2) muayyan nutq sharoiti uchun o’zaro paradigmatic munosabatda turgan birlikdan, ya’ni paradigma a’zolaridan bittasi tanlanishi (masalan, **Salim... kitobi** birikmasi uchun kelishiklar paradigmaside qaratqich kelishigining olinishi);

3) bir paradigmanning a’zolari o’zaro o’xshashlik bilan birga, har biri ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi (masalan, tushum va jo’nalish kelishiklari “oldingi so’zni keyingi fe’lga tobelash” vazifasini bajarishda o’xshash, lekin biri “vositasiz to’ldiruvchi sifatida tobelash”, ikkinchisi “vositali to’ldiruvchi yoki hol sifatida tobelash” belgisi bilan farqlanadi);

4) paradigma a’zolari nutqda bir o’rin va (mavqed) kelib, bir-birini ma’lum holatda almashtira olishi, o’rnini egallashi (masalan, **kitob... o’qish** birikmasini hosil qilishda tobe so’zni bosh, tushum, chiqish kelishiklari shakllantira oladi).

Mantiqiy mushohada uchun

Kursdoshlaringiz bir guruhni tashkil etgan. Bu guruh sistema bo’la oladimi?

Oilani paradigmaga qiyoslash mumkinki?

O’quv zalidagi 20 ta kompyuter sistemani tashkil kiladimi?

Lisoniy paradigma va uning a’zolariga nisbatan de Sossyur tomonidan qo’ylgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o’zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

³Paradigma so’zi – omonim termin. U “yo’nalish”, “soha” ma’nosida ham ishlatiladi: **Lingvokulturologiya – tilshunoslikning yangi paradigmati** kabi.

Mustaqil o'qish uchun**Til sistemasida sistemaviy qonuniyachtlar**

Til sistemasi o'zaro munosabatlarga kirishgan til birliklari yaxlitligidir. Til sistemasi tarkibidagi til birliklarining belgilari ham uch turga bo'linadi:

- 1.Sistemani tashkil etuvchi belgilar.
- 2.Sistemada hosil bo'luvchi belgilar.
- 3.Sistemaga betaraf belgilar.

Deylik, unli fonemalar – sistema. O'zbek tilidagi unlilar sistemasi 6 ta elementdan tashkil topgan. Ularning sistemaviy belgilari quyidagilar:

- 1.Sistemani tashkil etuvchi belgi: sof ovozdan iboratlik.
- 2.Sistemada hosil bo'luvchi belgilar: lablangan/lablanmaganlik, keng/torlik
- 3.Sistemaga betaraf belgilar: til oldi/til orqalik.

Yo'l-yo'lakay bajarish uchun

Mustaqil ravishda undosh fonemalarning, kelishik sistemasining, WPm sistemasining elementlariga xos sistem belgilarni aniqlashga harakat qiling.

4. Lisoniy paradigma turlari. Paradigma, qamroviga ko'ra, katta va kichik, tashqi va ichki paradigmalarga bo'linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar (katta yoki tashqi) paradigmasi jarangli va jarangsiz ungoshlar (kichik yoki ichki) paradigmalariga bo'linadi.

Fonemalar sistemasi **fonetik** (yoki fonetik-fonologik) **paradigma** deyiladi.

Semantik-grammatik umumiylitka ega bo'lgan leksik birliklar lug'aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, antonimik, graduonimik qatorga birlashgan leksemalar sistemasi, alohida lug'aviy guruhlar leksik paradigmalaridir. Ular yuqorida paradigmaga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi. lug'aviy-mavzuiy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon, so'z turkumlari ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi.

Morfologik kategoriya (morphologik shakllar sistemasi) – morfologik paradigmadir.

Sintaktik qoliplar sistemasi sintaktik paradigmani tashkil etadi. Sintaktik parodigma ikkiga – gap parodigmasi va so'z birikmasi parodigmasiga bo'linadi. Gap parodigmasining o'zi ikki – sodda gap qoliplari va qo'shma gap qoliplari ichki (mikro) parodigmasiga bo'linadi.

Mustaqil o'qish uchun**Sinonimlar paradigmami?**

Bir-biriga sionim bo'lgan so'zlar tizimini parodigma deyish mumkinki? Masalan: Boqmoq, qaramoq, nazar tashlamoq, nigoh solmoq... kabi. Albatta, yo'q deb javob beramiz.

Bir-birini almashtiruvchi parodigma a'zolari pozitsiya, qay o'rinda kelishi bilan shartlangan bo'ladi. O'rinni, pozitsiya – mana parodigma uchun nima muhim! Shuning uchun parodigma a'zolarining miqdori cheklangan va aniq bo'ladi. To'g'ri, ba'zi olimlar o'zbek tilidagi kelishiklarni ba'zan 7 ta, ba'zan 8 ta deyishadi. Bu parodigmaning xususiyati bilan emas, balki ilmiy yondashuvlarning tabiatini bilan bog'liq. Bunga qarama-qarshi o'laroq, sinonimlarning aniq

miqdorini hech kim ayta olmaydi. Kontekstual sinonimlar qo'shiladigan bo'lsa, bu yana qiyinlashadi. Albatta, sinonimlar matn bilan juda bog'liq va ular har bir alohida pozitsiya uchun xoslangan. Lekin sinonimlarni har holda almashtirsa bo'ladi. Shuningdek, ularning denotatlari (borliqda ifodalaydigan hodisalari) ham bitta. Shu bilan birga, ularning qo'llanishi til jamiyati tomonidan belgilanmagan, balki alohida so'zlovchiga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi sinonimik qatorni qat'iy tartib asosida tashkil topgan, a'zolari aniq pozitsiya bilan bog'langan paradigmadan farqlashga asos bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Assosiatsiyaning mohiyati haqida gapiring.
2. Lisoniy paradigma deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
3. Lisoniy paradigma qanday turlarga ega?

Test

1. Paradigma so'zining ma'nosi: A) namuna B) o'xshashlik C) qator D) tizim.

2. Morfologik paradigma: A) so'z turkumlari B) morfologik kategoriylar C) nokategorial shakllar D) so'zning morfologik shakllari.

3. Lisoniy paradigma: A) bir sathga mansub, bir umumiy ma'noli lisoniy birliklar B) bir sathga mansub ketma-ket bog'langan nitqiylar C) assosiativ bog'langan gaplar D) turli sathga mansub, bir umumiy ma'noli lisoniy birliklar.

Glossariy

assosiatsiya – bog'liqlikka asoslangan eslash jarayoni

sistema – birdan ortiq elementlarning o'zaro munosabatga kirishishidan hosil bo'lgan butunlik

element – butunlikni tashkil etishda munosabatga kirishuvchi qism

paradigma – lisoniy sistema

paradigma a'zosi – lisoniy sistema elementi

fonetik paradigma – unli va undoshlar sistemasi

morfemik paradigma – morfemalar sistemasi

morfologik paradigma – grammatic shakllar sistemasi, grammatic kategoriya

leksik paradigma – leksemalarning muayyan belgi asosidagi tizimi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

5- ma'ruza

LISONIY MUNOSABAT VA UNING TURLARI

Reja:

1. “Munosabat” tushunchasi haqida.
2. Paradigmatik munosabat.
3. Iyerarxik munosabat.
4. Sintagmatik munosabat.

Kalit tushunchalar

assosiatsiya, munosabat, sistema, struktura, element paradigma, paradigma a'zosi, fonologik paradigma, morfemik paradigma, morfologik paradigma, leksik paradigma

O'zlashtiriladigan tushunchalar

munosabat,paradigmatik munosabat, sintagmatik munosabat, pog'onali munosabat, partonimik munosabat, giponimik munosabat, totonim, giperonim

1. “Munosabat” tushunchasi haqida. Falsafada *munosabatmuayyan* sistemadagi elementlarning joylashish tabiatini va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi sifatida qaraladi. Masalan, shaxs jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan bog'liq holda yashaydi. Ushbu bog'liqlik shaxsning munosabatidir. Oila a'zolari orasidagi bog'liqlik bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Oilada ota bilan ona, ular bilan farzandlar, farzandlar orasida o'zaro o'ziga xos munosabatlar oila sistemasining xususiyatini namoyon qiladi. Oilada har bir a'zo (element)ning tutgan o'rni bor. Bu o'rin boshqa a'zolarga ta'sir qiladi. Bu oila yaxlitligini va mustahkamligini ta'minlovchi munosabatdir. Ahillik, hurmat-e'tibor, farosat, oilaga e'tiqod oila sistemasidagi munosabatlarning yorqin ko'rinishlaridir.

Yoki ustoz-shogirdlik munosabatini olaylik. Ustoz shogirdiga ta'lim-tarbiya beradi, uning dunyoqarashini shakllantiradi. Ustoz ta'lim-tarbiya berishga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, shogird ta'lim-tarbiya olishga ehtiyojmand bo'ladi. Bu ta'lim-tarbiya hodisasining sistema, uning asosiy elementlari ustoz va shogird ekanligidan dalolat beradi. Ustoz-shogirdlik tizimida har bir elementning mavqeい, roli, vazifasi, majburiyat va burchlari bor. Ularga tegishli element (ustoz va shogird) ning amal qilish darajasi, ya'ni munosabat bu sistemaning barqarorlik va bardavomlik darajasini belgilaydi.

Shaxs biror narsa yoki hodisaga nisbatan ma'lum bir mavqeda bo'ladi: narsani o'rganadi, uni vujudga keltiradi, isloh qiladi. Bu ham munosabatning bir ko'rinishidir. Yoki kishi turli obyektlarni yoki biror obyektning turli tomonlarini fikran taqqoslaysa. Bunda ikki xil munosabat namoyon bo'ladi: kishining obyektga va bir obyektning ikkinchi obyektga munosabati.

Bir narsaning ikkinchi narsaga munosabati masalasi haqida gap ketganda, komyoviy elementlarning davriy jadvalini misol qilib keltirish mumkin. Komyoviy elementlar jadvali mavhum (ongda mavjud) sistemaning

bir ko'rinishi. Bunda elementlar atom og'irliklari asosida joylashgan. Boshqacha aytganda, ular atom og'irliklari asosida tartiblangan. Bu tartib atom og'irliklari asosidagi munosabat deyiladi. Yanada aniqroq tushunish uchun ko'z oldimizga avtomobilni keltiraylik. Avtomobil muayyan (borliqda mavjud) sistema sifatida, avvalo, shassi, kuzov va dvigatel elementlaridan tashkil topgan. Bu elementlar bir-biri bilan zinch bog'langan. Biri boshqalarini taqozo etadi. Ulardan biri mavjud bo'lmasa, sistema (avtomobil) harakatga kelmaydi.

Ko'rindiki, muayyan sistema elementlari o'zaro munosabatga kirishmasa, sistema o'z vazifasini bajara olmaydi. Munosabat bo'lmasa, narsa element bo'la olmaydi va elementning funksiyasini bajara olmaydi. Element sistema tarkibida munosabatlar asosida o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Masalan, insonning ko'zi inson tanasidagina element bo'lib, undan uzilsa, element bo'la olmaydi va o'zining elementar mohiyatini yo'qtotadi.

Munosabatlar tegishli elementlardan turli darajadagi murakkab sistemalarni keltirib chiqaradi. Macalan, har qanday qonunlar jamiyatni sistema sifatida tartibga solib turadi. Agar bu qonunlar bo'lmasa, jamiyat sistemasi ham mavjud bo'lmaydi, sistema o'z vazifasini to'laqonli bajara olmaydi va barbod bo'ladi. Shuning uchun mamlakatning xususiyati undagi asosiy munosabat - qonunlarga itoat qilish darajasi bilan belgilanadi.

Har bir narsa, shaxs ko'p qirrali, ko'p vazifali bo'ladi. Shu boisdan ular har bir qirrasi asosida turli sistemalarga mansub bo'la oladi va bu sistemalardagi munosabatlari ham turlichcha bo'ladi. Masalan, biror turmushga chiqqan talabani olaylik. U ta'lim sistemasida shogird, oila sistemasida turmush o'rtog'i/ona/kelin, ota-onasi oilasiga munosabatda farzand/opa/singil, yo'l harakati tizimida yo'lovchi, tushlik paytida xo'randa. Har bir qirrasini namoyon qilganda u ma'lum bir sistema tarkibiga kirib, bu sistema tarkibidagi boshqa elementlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bir sistemadagi munosabatlari boshqa sistemadagi munosabatlaridan farqlanadi.

Mustaqil o'qish uchun

MUNOSABAT/a. مُنَاصِبٌ – munosiblik, muvofiqlik; joizlik; qarindoshlik; aloqadorlik].

1.Kishilar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasidagi bordi-keldi. oldi-berdi muomalalari; tirikchilik, moddiy va ma'naviy hayot bilan bog'liq bo'lgan aloqa.

2.Kishining voqelikka, voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashish prinsipi.

3.Muayyan tizimdagи elementlarning joylashish xarakteri va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

4.Biror ish, harakat, gap va kabilarga daxli bo'lgan narsa, tegishli asos; bois, daxl. *Bu ishga sizning gapingizning hech qanday munosabati yo'q.*

NISBAT /a. نِصْبَتْ – munosabat, aloqa; qarindoshlik; o'zaro bog'lanish; miqdor]

1.Narsalarning bir-biriga qaraganda katta: kichikligi, oz-ko'pligi va h.

2.Bir sonning ikkinchi songa qaraganda qiyosiy kattaligi, bir sonning ikkinchi songa bo'linishidan hosil bo'lgan bo'linma.

NISBATAN Boshqalariga qiyosan; qiyosan olganda.

Har qanday sistema (narsa)ni uni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro nisbati, munosabati deb qarash mumkin. Bu nisbat, munosabat o'zgarishi bilan narsalar ham o'zgaradi. Jamiyatda kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyat sistemasining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.

Tillar ulardagi gaplarning ega va kesimi munosabatiga qarab turli sistemalar ekanligini namoyon qiladi. Masalan, agglyutinativ tillarda ega ma'nolari kesimdan anglashilib turadi va shuning uchun kesim egaga ko'p ham ehtiyoj sezavermaydi. Flektiv tillarda kesim egasiz xabar ifodalishi qiyin. Demak, gap sistemasidagi elementlar (ega va kesim) munosabatining o'ziga xosligiga qarab, tillar sistemalari farqlanadi. Shuning uchun ham agglyutinativ, flektiv va amorf tillar turli sistemali tillar deyiladi. Munosabatlar tillarning tabiatini belgilashini shunda ko'rish mumkin.

Mustaqil o'qish uchun

Til hodisalarining serqirraligi

Har bir til hodisasi yuzlab xususiyat, ya'ni qirralarga ega. Shunga ko'ra til hodisalarida o'rganish manbai va o'rganish predmeti farqlanadi. Bunda tegishli til hodisasi o'rganish manbai va uning tadqiq uchun olingan xususiyati o'rganish predmeti deyiladi. Tilshunoslikning sohalari bir o'rganish manbaining qaysi qirrasini o'rganish asosida farqlanadi. Masalan, [a] fonemasini olaylik. Fonetikaning turli sohalari uning turli qirralarini o'rganish predmeti sifatida tanlaydi. Lekin bu fonema fonetika sohalarining barchasi uchun umumiy o'rganish manbai sifatida qolaveradi.

E'tibor qiling:

[a] fonemasining qirralari	Fonetika sohalari
[a] ning akustik-artikulyatsion (hosil bo'lish o'rniva usuli, tovushning baland-pastligi, cho'ziq-qisqaligi, talaffuzining aniq-noaniqligi va h.) xususiyatlari	Eksperimental fonetika
[a] so'z tarkibidagi boshqa tovushlarga, so'zdagi boshqa tovushlarning unga ta'siri	Kombinator fonetika
[a]ning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi	Diaxronik fonetika
[a] tilning hozirgi (yoki ma'lum bir) davrdagi ijtimoiy (ma'no farqlash) vazifasi	Sinxronik fonologiya
[a]ning boshqa fonemalar bilan oppozitsiyalari va paradigmatic aloqalari	Struktural fonologiya
[a]ning tabiatdagi tovushlar yoki narsalar bilan aloqalari	Naturalistik fonetika
Ma'lum bir tildagi [a]ning qarindosh bo'lmagan boshqa tildagi [a] bilan munosabati	Tipologik fonetika (fonologiya)
Bir tildagi [a]ning shu til bilan qarindosh bo'lgan boshqa tillardgi [a] bilan munisabati	Qiyosiy fonetika
[a]ning inson ruhiyatiga ta'siri, uni qabul qilish va hosil qilish xususiyatlari	Psixolingvistika

Bu qatorni yana davom ettiraverish mumkin. Har bir davr ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda bu fonemaning yangi-yangi qirralarini o'rganishni kun tartibiga olib chiqaveradi - fanning yangi sohalari shakllanib, rivojlanaveradi.

Demak, aytish mumkinki, munosabat – keng qamrovli tushuncha. U butunning tarkibiy qismlari – birliklari orasidagi o'zaro aloqa va bog'lanishni anglatadi. Bunday aloqanitilimiz birliklari orasida ham kuzataylik. Quyidagi gapga diqqat qiling: **Ularning otlari – Salim va Halim**. Bundagi nutqiy birliklar turli munosabat bilan bog'langan. **Ular** so'zi **otlari** so'zi bilan, **u** olmoshi **-lar** qo'shimchasi bilan ketma-ket, zanjirsimon aloqada. Yoki **otlari** so'zi 6 ta tovushning ketma-ketligidan iborat.

Gap ham, so'z ham tarkibiy qismlarga bo'linar ekan, butunlik, sistema sanaladi.

Munosabat falsafada va xususiy fanlarda o'ziga xos tushuniladi. Barcha fanlarda munosabat tushunchasi falsafiy munosabatning tor doiradagi ko'rinishlari hisoblanadi.

Tilshunoslikda munosabatning bir necha ko'rinishlari farqlanadi. Ulardan eng muhimlarini ko'rib o'tamiz.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Sizning turli munosabatingiz bir xil vaziyatda har xil natijani keltirib chiqargan holatlar bo'lganmi?
- 2.Insonning fe'liga qarab munosabatda bo'lмаган kishilar holatini kuzatganmisiz?
- 3.“Shaxslar, munosabat, vazifa” sistemasi mohiyatini hayotiy misol asosida dalillang.

2. Paradigmatik munosabat. Avvalgi mavzularda qulf va kalitlarga oid misol keltirgan edik. Turli kalitlar shodasi paradigmaga qiyoslangan edi. Kalitlar orasidagi munosabat paradigmatic munosabatga o'xshaydi.

Paradigma a'zolari orasidagi munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi. Paradigmatik munosabat bir sistemaga kiruvchi birliklarning o'xhashlik va farqlilik munosabatlaridir. Masalan, kelishiklar o'zaro “oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash” o'xhashligiga ega bo'lsa, har bir kelishikning bu o'xhashlik ostidagi tafovutlari farqlilik munosabati hisoblanadi. O'xhashlik va farqlilik munosabati bir necha ko'rinishlarda voqelanadi. Farqlilik munosabati tilshunoslikda ziddiyat termini bilan nomланади.

Paradigmatik munosabat keskin ziddiyatli va darajalangan ziddiyatli ko'rinishlarda bo'ladi. Masalan, **a** va **o** o'nli fonemalari orasida keskin ziddiyatli paradigmatic munosabat (lablanganlik/lablanmaganlik) mavjud bo'lsa, **a**, **e**, **i** unlilari orasida darajalangan ziddiyatli paradigmatic munosabat mavjud. Bunda unlilar tilning tanglayga ko'tarilish darajasiga ko'ra farqlanadi. Bu uchlikdan o'rtadagisi olib tashlansa, qolgan ikki unli o'zaro keskin ziddiyatli bo'lib qoladi. Chunki **a** va **i** unlilari “quyi keng” va “yuqori tor” belgilariga ega. Yoki **aytishmoq** – **koyishmoq** – **janjallahmoq** – **yoqalashmoq** – **do'pposlashmoq** – **yoqa vayron bo'lishmoq** – **qoniga belanishmoq** qatori “ifoda bo'yog'ining oshib borishi” belgisi asosida darajalanadi va farqlanadi. Bu qator **darajalanish** (graduonimik) **paradigmasi** deyiladi. Qatordagi har bir birlik **graduonim** deb yuritiladi.

Graduonimlar orasidagi munosabat graduonimik munosabat bo'lib, paradigmatic munosabatning bir turi hisoblanadi.

Graduonimik munosabat bilan birga sinonimik, antonimik munosabatlarning barchasida eslatib turish xususiyati mavjud. Paradigma a'zolari teng qiymatli va teng huquqli birliklardir. Shuning uchun ular bir paradigmaga mansub bo'ladi.

Mustaqil o'qish uchun

Komil inson – yuksak munosabat sohibi

Komil insonning o'ta kamtarin, biror hukm-xulosa chiqarishda juda ehtiyyokor bo'lishining asosiy sababi shundaki, u har bir masalada bilganidan bilmagan tomonlari ko'proq ekanligini tushunadi va har doim ehtiyyot munosabatda bo'ladi.

Omiy va johil uchun esa hamma narsa ayon, chunki u hech narsani bilmaydi, jumladan, o'zinig bilmasliginini ham. Tiliga ixtiyorsizligidan xayoliga kelgan bo'lg'ur-bo'limg'ur fikrlarni hayiqmay bayon qilaveradi va el orasida e'tiborini yo'qotadi. Tasavvuf axloqi omiy va johilga to'g'ri gapni uqtirishga intilishni ham johillik alomati deb biladi va hamisha "Suxan ba ahli suxan boyad guft" (So'zni aytgil uqqanga) amali asosida ish ko'rishni tavsiya etadi. Shuning uchun hatto Mansur Xallojning o'ldirilishini buyuk oriflar (jumladan, Xoja Abdullo Ansoriy Hiraviy) qattiq qoralamaganlar, zero u "analhaq" ("Men Haqman") shiorini Haq va Inson birligini tushungan oriflar davrasidagina emas, shariat ahkomlari, shariat talqinidagi Alloh (Xudo)ga iymon keltirgan, ma'rifiy Haqqi mutlaqdan mutlaqo bexabar omiy va johil dindorlar orasida ham targ'ib etavergan, so'zni uqolmaydiganlarga aytgan. Shu bois shariat yuzasidan to'g'ri jazolangan, zero shariat uqishni emas, uning ahkomlariga ko'r-ko'rona bo'y sunishni talab etadi.

3. Iyerarxik munosabat. Lisoniy birliklar orasida **iyerarxik**, ya'nipog'onali munosabat ham mavjud. Pog'onali munosabat deganda birlikning boshqasi tomonidan qamrab olinishi tushuniladi. Masalan, **Halim** va **Karim** leksemalari erkak kishining ismlari bo'lib, ayolning ismi bo'lgan **Halima**, **Salima** leksemalariga qarama-qarshi turadi. Lekin ularning barchasini **ism** leksemasi qamrab oladi. **Ism** leksemasi esa, **nom** leksemasi bilan birgalikda, **ot** leksemasi tomonidan qamrab olinadi. Uni shartli ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin (9-jadval):

9-jadval

Ot					
Ism				nom	
Halim	Karim	Halima	Salima	Suv	kitob

Bu pog'ona yuqori va quyi yo'nalishda yana davom ettirilishi mumkin. Demak, **Salim**, **ism**, **ot** leksemalaripog'onali munosabatgakirishgan; **Calim** so'zi **ism** so'zitarkibiga, **ism** so'ziesa **ot** so'zi **tarkibiga kiradi**.

Lisoniy birliklarning pog'onali munosabati ikki xil. Masalan, **daraxtvatana**, **ildiz**, **barg**, **shox** birliklarining o'zaro munosabati **daraxtleksemasibilan** **olma**, **o'rik**, **nok**, **gilos** leksemalarining o'zaro munosabatidan farq qiladi. Oldingi pog'onali munosabatda **daraxt** butunni va qolganlari qismni ifodalasa, keyingisida **daraxt** turni ifodalab, mevaning

muayyan nomini ifodalovchi birliklar turning ko'rinishi – jins sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi munosabatdagi birliklar ***daraxt*** leksemasining xususiy ko'rinishi – juz'iylashishi. Birinchisida esa bunday munosabat mavjud emas. Shu boisdan ***Gilos daraxtdir*** tarzidagi hukmni aytish mantiqiy. Biroq ***Ildiz daraxtdir*** deyish mumkin emas. Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo'lak munosabati ***partonimik*** (part – qism, bo'lak), tur-jins munosabati ***giponimik munosabat*** deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar ***partonim***, giponimik munosabatga kirishuvchi jins nomlari ***giponim*** deyiladi. Butunlik ***totonim*** va tur nomi ***giperonimdir***.

Paradigmatik munosabatga kirishayotgan birliklar teng qiymatli bo'lsa, pog'onali munosabatga kirishayotgan birliklar o'zaro "kattaning kichikka", "tashqining ichkiga", "butunning bo'lakka" munosabatini o'zlarida ifodelaydi va teng qiymatli bo'lmaydi.

Mantiqiy mushohada uchun

1. Quyidagi hukmlardan qaysi biri to'g'ri? 1. Salim – odam. 2. Odam – Calim. Fikringizni asoslang.
2. Quyidagi hukmlardan qaysi biri to'g'ri? 1.O'rik abrikosdir. 2.Abrikos o'rikdir. Fikringizni asoslang.
3. So'fi Olloyorning "sifot (Haqning) zoti emas, na g'ayri zoti" misrasining mag'zini chaqing.

4.Sintagmatik munosabat. Yana yuqoridagi qulf va kalitlar haqidagi misolga qaytamiz. Kalitlararo munosabat paradigmatic munosabatga qiyoslangan edi. Qulf va kalit orasidagi munosabat sintagmatik munosabatga o'xshaydi. *Kitob... berdi* gapi tarkibiga kirgan tushum kelishigi shakli *kitob* so'zi bilan sintagmatik munosabat asosida sintaktik aloqaga kirishgan.

Til birliklarining chiziqsimon, ketma-ketlik aloqasi **sintagmatik munosabat** deyiladi. Aslida sintagmatik munosabat ham lisonda imkoniyat sifatida yashaydi. Masalan, **[kitob]** leksemasining qanday so'zlarni biriktira olish va qanday so'zlarga birika olish (valentlik) imkoniyati uning lisoniy mohiyatida mavjud.

Sintagmatik munosabatni sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik munosabat lisoniy birlikning valentlik (birikish, biriktirish) imkoniyati bo'lsa, sintaktik aloqa bu imkoniyatning nutqiy voqelanishi. Gap tarkibidagi bo'laklarning nutqiy hokim-tobelik aloqasi leksemalarning lisoniy sintagmatik munosabati asosida sintaktik aloqa sifatida shakllanadi. Masalan, ***o'qimoq*** leksemasi *kitob* leksemasi bilan birikish imkoniyatiga ega. Бу имконият *китобни ўқимоқ, ўқилган китоб, Китоб ўқилди* нутқий ҳодисаларида синтактик алоқага айланган.

Demak, sintagmatik munosabat va sintaktik aloqani butunlay boshqa-boshqa hodisalar deb ham, shuningdek, bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi tushuncha sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik

munosabat va sintaktik aloqa butun-bo'lak munosabatida. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa – sintagmatik munosabatning bir ko'rinishi.

Demak, lisoniy birliklarning shartli vertikal aloqasi paradigmatisk munosabat bo'lsa, gorizantal aloqasi **sintagmatik** munosabat deyiladi.

Mantiqiy mushohada uchun

1. Avtomobil sistemasi elementlarining o'zaro munosabati paradigmatisk munosabatga misol boladimi yoki sintagmatik?
2. Matn Ikkita sodda gapdan iborat. Ular orasida munosabatning qaysi turi mayjud?
3. Mavhum sistema va aniq sistema munosabatlari jihatidan qanday farqlanadi?

Savol va topshiriqlar

1. Munosabat tushunchasini sharhlang.
2. Pradigmatik munosabat va uning turlari haqida gapiring.
3. Iyerarxik munosabat nima va uning qanday turlari bor?
4. Sintagmatik munosabat haqida gapiring.

Test

1. Qaysi belgi paradigma a'zolariga xos emas? A) o'tkinchilik B) barqarorlik S) umumiyligiga egalik D) farqlilik
2. Paradigmatik munosabatda zarur belgi: A) o'xshashlik va farqlar B) farqlar S) o'xshashliklar D) farq va tafovutlar
3. Iyerarxik munosabatda zarur belgi: A) "...ga kiradi, ...dan iborat" B) tenglik va o'xshashlik S) tobelik va farqlilik D) tobelik
4. Sintagmatik munosabatda zarur belgi: A) imkoniyatlilik B) voqelanganlik S) hodisaviylik D) xususiyashganlik

Glossariy

- munosabat** – mavhum sistema elementlari orasidagi o'xshashlik va farqlilik hamda aniq sistemalar elementlari orasidagi bog'liqlik va uyg'unlashuv
- paradigmatik munosabat** – paradigma a'zolari orasidagi birlashish (o'xshashlik) va farqlanish(farqlilik) munosabati
- sintagmatik munosabat** – aniq sistema elementlari orasidagi moslashish, bog'lanish va uyg'unlashish munosabati
- pog'onali munosabat** – sistema elementlari orasidagi o'z ichiga olish munosabati
- partonimik munosabat** – butunning qismiga, qismning butunga aloqadorlik munosabati
- giponimik munosabat** – jinsning turga, turning jinsiga munosabati
- totonim** – tashkil etuvchi qismlarga munosabat nuqtai nazaridan butunlik
- giperonim** – turga kiruvchi jins
- giponim** – jinsn qamrab oluvchi tur

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.

2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
4. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

6- ma'ruza

LISONIY ZIDDIYAT VA UNING TURLARI

Reja:

1. Ziddiyat haqida umumiy ma'lumot.
2. Lisoniy ziddiyat turlari.

Kalit tushunchalar

munosabat, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, pog'onali munosabat, partonimik munosabat, giponimik munosabat, totonim, giperonim

O'zlashtiriladigan tushunchalar

ziddiyat, ziddiyat a'zosi, ziddiyat belgisi, ikki a'zoli ziddiyat, binar ziddiyat, ko'p a'zoli ziddiyat, ternar ziddiyat, privativ ziddiyat, noto'liq ziddiyat, teng qiymatli ziddiyat, muntazam ziddiyat, darajali ziddiyat

1. Ziddiyat haqida umumiy ma'lumot. Ziddiyat (arabcha "qarama-qarshilik"; varianti: oppozitsiya) tilshunoslikda bir sistemadagi lisoniy birliklarning mazmuniy tomoni asosida o'zaro u yoki bu darajada farqlanishini ifodalaydi. Ziddiyat, tafovut, farq, qarama-qarshilik, ixtilof bir turga kiruvchi har xil tushunchalardir.

Butun koinot, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi mavjudlik va taraqqiyotning asosiy omili qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunidir. Ziddiyat, qarama-qarshilik, ixtilof va tafovut bo'lmas ekan, rivojlanish va taraqqiyot, harakat va o'sish ham bo'lmaydi. Hatto oyoqlarimiz bir-biriga qarama-qarshi harakatlanmasa, ilgarilay olmaymiz. Zid jinslar bo'lmasa, kishilik jamiyatni ham, hayvonot va o'simlik olami – tiriklik davom etmaydi.

Butun borliq qarama-qarshiliklar mahsuli bo'lganligi kabi, bilim olish ham, borliq haqida ma'rifat hosil qilish ham ixtilof va tafovutlar evazigadir.

Mustaqil o'qish uchun

Ma'rifat vodiysi

Ma'rifat vodiysin ondin so'ngra bil,
Dashti bepoyonlig'in nazzora qil.
Kimki bu vodiyg'a bo'ldi muttasif,
Topti onda hollarni muxtalif.
Vodiyedur yuz tuman ming onda yo'l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.
Ixtilofi juzv ila kul mundadur-
Kim taraqqiy-u tanazzul mundadur.
Pashsha onda rahnavard-u pil ham,
Pashsha anda toyir-u Jibril ham.
Musi-yu Fir'avn onda rahrav,
Bil yaqinkim, birdek ermas bul ikav.
Da'b anda sayr etib yaxshi-yamon,
Mo'min onda soliku kofir hamon.

Munda solikka tafovut bo'ldi fosh,
 Anga mehrob-u munga but bo'ldi fosh.
 Bo'ldi o'z irfoni har kimga sifat,
 Ko'p tafovut qildi paydo ma'rifikat.
 Muxtalif bo'lmay ne bo'lsun munda ish,
 Chun bu yanglig' muxtalif bo'ldi ravish.
 Mundin aytdur nabiyi rahbar,
 "Kim ulusqa haq sari bo'lsa safar.
 Istanasang yo'l kasratig'a addu had,
 Xalq anfosi bilan teng bil adad."

Alisher Navoiy, "Lisonut-tayr"

Lisoniy paradigmada birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmanning yashovchanligini ta'minlovchi omil lisoniy ziddiyatdir. Lisoniy ziddiyat falsafadagi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunning tildagi xususiyplashuvi, ko'rinishidir.

Ziddiyat paradigmatick ba iyerarxik munosabatning xossasi sifatida sintagmatik munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi. Sintagmatik munosabatda ziddiyat emas, uyg'unlik ustuvorlik qiladi. Biroq uyg'unlik farq va tafovutlar asosida kelib chiqadi.

Ma'lum bir lisoniy birlik mansub ziddiyatlar majmui bu birlikning lisoniy mohiyatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. lisoniy mohiyatni aniqlash lisoniy birlikning boshqa birlikdan farqlanuvchi barqaror belgilarini oydinlashtirishdir.

Lisoniy birliklar orasidagi ziddiyat ma'lum bir belgi asosida mavjud bo'ladi. Zidiyatga kirishuvchi lisoniy birliklar ***ziddiyat a'zosi***, ziddiyatga asos bo'luvchi belgi ***ziddiyat belgisi*** deyiladi. Masalan, [o] va [a] unlilari o'zaro "lablanganlik/lablanmaganlik" belgisi asosida qarama-qarshi turadi. Bunday qarama-qarshilik ziddiyat, qarshilanayotgan fonemalar ziddiyat a'zolari, "lablanganlik/lablanmaganlik" esa ziddiyat belgisidir.

Mantiqiy mushohada uchun

1. *Tafovut, farq, ziddiyat va qarama-qarshilik so'zlarining ma'no farqlarini aniqlang.*
2. *Bu so'zlarning darajalanish qatorini tuzing va darajalanish belgisini toping.*

2. Lisoniy ziddiyat turlari. Lisoniy sathda ziddiyatning turli ko'rinishi mavjud. Ulardan eng muhimlarini ko'rib o'tamiz.

Ziddiyat a'zolari orasidagi qarama-qarshilikning xususiyatidan kelib chiqqan holda ziddiyatning:

- a) **noto'liq** (privativ) **ziddiyat**;
- b) **teng qiymatli** (ekvipotent) **ziddiyat**;
- c) **muntazam** (proporsional) **ziddiyat**
- d) **darajali** (gradual) **ziddiyat** kabi turlari farqlanadi.

Mustaqil o'qish uchun**Nikolay Sergeyevich Trubetskoy (1890-1938)**

Nikolay Sergeyevich Trubetskoy Moskvada tug'ilgan. Uning ota-onasi ham taniqli olimlar bo'lishgan. Nikolay bolalikdan olimlik iqtidorini namoyon qila boshlagan. Birinchi ilmiy ishini 15 yoshida e'lon qilgan. Moskva davlat universitetini tamomlagan bo'lajak olim, vatanidagi fuqarolar urushi sababli, xorijga ketishga majbur bo'ldi. U va muhojir hammaslaklari birqalikda Pragada tilshunoslik mакtabiga asos soldilar va maktab tilshunoslik tarixida "Praga lingvistik to'garagi" nomi bilan mashhur bo'ldi.

Zamonaviy tilshunoslikka Nikolay Sergeyevich Trubetskoy tomonidan olib kirilgan "ziddiyat" ("oppozitsiya") tushunchasi lisoniy sistemalarning mohiyatini tushuntirishda katta ahamiyat kasb etdi. Trubetskoy talqinicha, fonema juftliklari ma'lum bir barqaror belgilari asosida qarama-qarshi turadi. Masalan, [b] ~ [p], [a] ~ [i], [ye] ~ [o], [g] ~ [k] kabi. Bu ziddiyat belgilari bitta ham ko'p ham bo'lishi mumkin. Masalan, [a] ~ [o] unlilari bir belgi bilan qarama-qarshi turadi: "lablanganlik/lablanmaganlik". [i] ~ [o] unlilari orasida "lablanmaganlik/lablanganlik" va "keng-torlik" belgilari asosidagi qarama-qarshilik, ziddiyat mavjud.

N.S.Trubetskoy tomonidan ko'p yillar davomida ilgari surilgan g'oyalar tilshunoslikda yangi yo'nalish va oqimlar shakllanishiga sabab bo'ldi. Sossyurdan keyingi ko'plab tilshunoslardan farqli ravishda u "til til uchun", "til o'zida" tamoyili changaliga tushib qolgani yo'q. Olim har doim tilni til va jamiyat, til va madaniyat tamoyillari asosida tadqiq qildi. Bejiz 1929-yilda N.S.Trubetskoy va R.O.Yakobson tomonidan yozilgan "Praga lingvistik to'garagi tezislari"da shunday deyilmagan: "lingvistik tahlilga aniq amaliy maqsadlarni ko'zlagan funksional nuqtai nazardan yondashmoq kerak."

Noto'liq ziddiyat. Noto'liq (privativ) ziddiyatda qarshilanuvchi a'zolardan birida ziddiyat belgisi to'liq va aniq, boshqasida esa noaniq namoyon bo'ladi. Masalan, **[bola]** va **[o'g'il]** leksemalarini olaylik. Ular "erkak jinsli" deb atalgan ziddiyat belgisiga ikki xil munosabat bildiradi. Bu belgi **[o'g'il]** leksemasi ma'no tarkibida aniq berilgan, shu boisdan uning ushbu belgiga munosabati aniq yoki "belgilangan" deyiladi va shartli ravishda (+) belgisi bilan beriladi. **[bola]** leksemasida esa jins belgisi aniq emas. Chunki uning ma'no tarkibida "er" yoki "ayol" (ya'ni jins) semasi yo'q. Boshqacha aytganda, **bolaso**'zi o'g'ilni ham, qizni ham ifodalashi mumkin. Shuning uchun bu leksemaning ziddiyat ko'rsatkichiga ishorasi "belgilanmagan" (noma'lum, noaniq, majhul) deyiladi va shartli ravishda (+/-) yoki **(0)** (nol) belgisi bilan qayd etiladi(10-jadval):

10-jadval

"erkak"	
<i>o'g'il</i> (+)	<i>bola</i> (0)

Bu ziddiyatdagi aniq belgili a'zo **kuchli a'zo**, noaniq belgili a'zo esakuchsiz a'zo ham deyiladi.

Noto'liq ziddiyat tilning barcha sathida amal qiluvchi muhim qonuniyatdir. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiyl grammatic ma'nosiga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemaga bo'lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda "lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" noto'liq ziddiyatning belgisi, ziddiyatda mustaqil leksema belgilanmagan, kuchsiz a'zo

bo'lsa, nomustaqlil leksema belgili, kuchli a'zo sifatida namoyon bo'ladi (11-jadval):

11-jadval

"lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik"	
nomustaqlil leksemalar (+)	mustaqlil leksemalar (0)

Chunki mustaqlil leksema lug'aviy ma'no ifodalashi ham, nomustaqlil leksema vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan, ot ko'makchi, fe'l ko'makchi, ko'makchi fe'l va boshqalaro'rni bilan nomustaqlil leksema kabi lug'aviy ma'nosiz ham bo'la oladilar.

Noto'liq ziddiyatda belgi tanlash ixtiyoriy emas. Masalan, bir qarashda yuqoridagi ziddiyatda belgini "lug'aviy ma'no ifodalash" deb ham, "lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" deb ham qo'yish mumkindek tuyuladi. Keling, ziddiyat belgisini yuqorida qo'yilganidek emas, balki "lug'aviy ma'no ifodalay olish" deb o'zgartirib ko'raylik (12-jadval):

12-jadval

"lug'aviy ma'no ifodalay olish"	
mustaqlil leksemalar (+)	nomustaqlil leksemalar (0)

Noto'liq ziddiyatda qaysidir bir a'zo 0 (nol) belgisini olishi kerak. Oldingi ziddiyatda mustaqlil leksemalar ushbu belgiga ega edi. Bunda endi nomustaqlil leksemalar olishi kerakka o'xshaydi. Yo'q, aslida bunday emas. Chunki nomustaqlil leksema goh lug'aviy ma'no ifodalash, goh ifodalamaslik xossasiga ega emas. Ziddiyatning ikkinchi a'zosi (+) belgisiga egami? U (ya'ni mustaqlil leksemalar) hamisha «lug'aviy ma'no ifodalay olish» belgisiga ega bo'lib, boshqa xil vazifada qo'llana olmaydimi? Yo'q, u bunday xususiyatga ega emas; oldingi ziddiyatda ko'rib o'tganimizdek, mustaqlil leksema "lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" belgisiga ega bo'la oladi, (-) belgisiga ham ega. Demak, keyingi "ziddiyat" noto'liq ziddiyat emas. Ziddiyat lisoniy birlikning mohiyatini, ya'ni substansial tabiatini o'zida aks ettirmog'i lozim. Aks holda "sun'iy" ziddiyat kelib chiqadi. Boshqa ziddiyat kabi noto'liq ziddiyat ham obyektiv va bizning xohish-irodamizga bog'liq emas.

Noto'liq ziddiyatdagi kuchli a'zoning belgisi aniq, shuning uchun uning imkoniyati tor, kuchsiz a'zoning belgisi noaniq, shuning uchun imkoniyati keng ekanligini esda tutish lozim.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Noto'liq ziddiyatdagi kuchli a'zoning imkoniyati tor va kuchsiz a'zoning imkoniyati kengligini dalillang.
- 2.Noto'liq ziddiyatdagi kuchli a'zoning belgisi aniq va kuchsiz a'zoning belgisi noaniqligini unlilar asosida dalillang.

Ekvipotent (teng qiymatli) **ziddiyat**. Ekvipotent ziddiyatda ikki a'zo qarshilantirilib, har biri o'ziga xos, ikkinchisiga xos bo'lмаган belgiga ega bo'ladi. Masalan, ovoz va shovqinga ko'ra jarangli va jarangsiz undosh teng qiymatli (o'ziga xos belgiga ega bo'lган a'zoli) ziddiyatni hosil qiladi.

Muntazam (proporsional) **ziddiyat**. Muntazam (proporsional) ziddiyatda bir belgi juftlangan turli birliklar uchun ziddiyat ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "jins" belgisi **ota-onq, aka-opa, singil-uka, tog'a-xola** lug'aviy zidlanishlari uchun umumiy. Lekin ular bu belgini o'z-o'zicha "bo'lib olishadi". "jins" belgisini **[aka]** leksemasi "erkak", **[opa]** leksemasi "ayol" ko'rinishida xususiylashtiradi.

Darajali ziddiyat. Darajali ziddiyat a'zolari kamida uchta bo'lib, ziddiyat belgisining o'sib borishiga ko'ra a'zolar qator hosil qiladi. Masalan, tilning ko'tarilishiga ko'ra unli fonemalar darajalanishi quyidagicha: **[a] - [e] - [i]**yoki **[o] - [o'] - [u]**. Bunda belgi birinchi a'zoda kuchsiz, ikkinchi a'zoda o'rtacha va keyingi a'zoda kuchli yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Darajali ziddiyat ham barcha sath birliklarida uchraydi. Masalan, leksikada **[ninni] - [chaqaloq] - [go'dak] - [bola]..., [turq] - [bashara] - [bet] - [yuz] - [chehra]...**, morfologiya da **harakat nomi-sifatdosh-ravishdosh** ("fe'lni o'zgalash darajasiga ko'ra" belgisi asosida) kabi.

A'zolari miqdoriga ko'ra ziddiyat ikki a'zoli (binar) va ko'p a'zoli ziddiyatga bo'linadi. Masalan, noto'liq ziddiyat **ikki a'zoli** (binar), darajali ziddiyat esa **ko'p a'zoli** (ternar) **ziddiyatdir**.

Lisoniy birliklar orasidagi ziddiyatlarni to'g'ri anglash va idrok etish ular mohiyatini aniq tushunish va talqin qilishning asosidir.

Mustaqil o'qish uchun

O'zbek substansial tilshunosligi tamoyillari

Har bir ilmiy yo'naliш, maktab o'ziga xos tamoyillarga ega bo'ladi va shu jihat bilan boshqa yo'naliшlardan farqlanadi. O'zbek substansial tilshunosligi ham ana shunday o'ziga xos qonuniyat va tamoyillarga ega

Substansiallik tamoyili. Bunga ko'ra, lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha ma'no va vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat faqat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma'noga birlashtirish va lisoniy imkoniyat sifatida ongda va lisoniy tizimda mavjud bo'lган bu ma'noni nutqda muayyan ko'rinishlarda voqelantirish yo'llarini o'rganish vazifasi turadi.

Ichki ziddiyatlik tamoyili. Lisoniy birlikning umumiy lisoniy ma'nosi ontologik ziddiyatli, qarama-qarshilikli – turli tabiatli tomonlarning birlashidan iborat bo'lган dialektik butunlik. U hamisha serqirra.

Ko'p qatorlilik tamoyili. Lisoniy birlik ontologik ziddiyatli tabiatli asosida boshqa lisoniy birliklar bilan bir necha oppozitiv qatorga (munocabatlarga) – har bir qirrasi bilan alohida-alohida siralarga – paradigmalarga kiradi. Shuning uchun uning umumiy lisoniy ma'nosi bir necha oppozitiv siralardagi (paradigmalardagi) farqlanuvchi belgilarining yig'indisi, mohiyatiga ega bo'ladi.

Oraliq uchinching mutlaqligi tamoyili. Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma'no va vazifalar, paradigmalardagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o'z ontologik tabiatida birlashtiruvchi hodisa (birlik)da birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita – oraliq uchinchi mavqeida bo'ladi. Tabiatan istagan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. "Ziddiyat" tushunchasini sharhlang.
2. Noto'liq ziddiyat nima?
3. Teng qiymatli ziddiyatni tavsiflang.
4. Muntazam ziddiyat haqida gapiring.
5. Darajali ziddiyatni sharhlang.

Test

1. Qaysi ziddiyatda lisoniy imkoniyat kuchsizlik belgisi bilan yonma-yon keladi: a) noto'liq b) darajali c) muntazam d) teng qiymatli.
2. Qaysi ziddiyatda lisoniy belgisi o'sishi ko'rinishi: a) noto'liq b) darajali c) muntazam d) teng qiymatli.
3. Qaysi ziddiyatda belgi tenglashadi: a) noto'liq b) darajali c) muntazam d) teng qiymatli.
4. Qaysi ziddiyatda belgi bo'linadi: a) noto'liq b) darajali c) muntazam d) teng qiymatli.

Glossariy

ziddiyat – lisoniy sistema (paradigma)dagi elementlarning o'zaro farqlanish munosabati

ziddiyat a'zosi – lisoniy sistema (paradigma)dagi ziddiyat munosabatiga kirishuvchi elementlar

ziddiyat belgisi – lisoniy birliklarning muayyan ziddiyatdagi farqlovchi belgisi

ikki a'zoli (binar) ziddiyat – lisoniy sistemadagi zidlanuvchi juft birlik

ko'p a'zoli ziddiyat ternar – lisoniy sistemadagi zidlanuvchi ikkitadan ortiq birlik

privativ (noto'liq) ziddiyat – ziddiyat belgisi a'zolaridan birida voqelanadigan, boshqasida voqelanishi ham, voqelanmasligi ham mumkin bo'lgan ziddiyat turi

teng qiymatli ziddiyat – zidlanuvchi juft birlikning har birida ziddiyat belgisining bir qirrasini namoyon bo'ladiyan ziddiyat turi

muntazam ziddiyat – a'zolari bo'linuvchi belgi asosida zidlanadigan ziddiyat turi

darajali ziddiyat – biror belgining oshib yoki kamayib borishiga asoslauvchi, a'zolari uchtadan kam bo'lмаган ziddiyat turi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.

7- ma'ruza

LISONIY TASNIF VA UNING TURLARI

Reja:

1. Tasnif haqida umumiyl tushuncha.
2. Tasnif tamoyillari.
3. Tasnif turlari.

Kalit tushunchalar

sistema, element, munosabat, tur, jins, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi

O'zlashtiriladigan tushunchalar

tasnif, dixotomik tasnif, politomik tasnif, dixopolitomik tasnif, tasnif belgisi (asosi), noto'liq tasnif, ortiqcha a'zoli tasnif

Borliq hodisalari, aytilganidek, sistema sifatida, ya'ni o'zaro uyushgan, o'zaro umumiyl va farqlovchi belgilari asosida birlashgan holda ongda aks etadi. Bir qarashda ular tartibsizdek tuyuladi. Lekin inson ongi ulardagi botiniy tartibni idrok etadi va xotirada saqlash uchun tartibli ravishda qabul qiladi. Hodisalar inson ongida guruh-guruh bo'lib saqlanadi va har bir guruhda ular sistema va element munosabatining qat'iy qonuniyatlariga tayanadi. Ongda borliq hodisalari haqidagi tushunchalar so'z va birikmalar, umuman olganda, til hodisalari bilan nomlanib, tartiblanadi. Bu borliq hodisalarining lisoniy tasnifi deyiladi. Tasnifda qat'iy mantiqiy qonuniyatlar amal qiladi.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Tizimli yondashuv degan tushuncha mavjud. Siz do'stlarining xatti-harakatlariga munosabat bildirib, tegishli baho berasiz. Bu tasnifga qay darajada aloqador?
- 2.Siz bir kunlik faoliyatningizni rejalshtirdingiz. Bunda harakatlaringizni qanday qonuniyat asosida tartibladингiz?
- 3.Pul topish oson, lekin uni sarflash qiyin deyishadi. Bu fikrning tasnifga aloqasi bormi?

1.Tasnif haqida umumiyl tushuncha. Tasnif (arabcha "saralash", "tartibga solish") narsa va predmetlarni aniq va doimiy o'ringa ega bo'lgan guruh (sinf) ларга bo'lishdir. Agar tasnif barqaror asosga ega bo'lsa, u uzoq davr mobaynida amal qiladi. Masalan, kimyoviy eyelementlar tasnifi, bugungi kunda garchi ular soni 200 dan oshib ketayotgan bo'lsa-da, o'zgarmasdan amal qilmoqda.

Mustaqil o'qish uchun**Tasnif, klassifikatsiya**

Tasnif, klassifikatsiya — ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Fanni o'rganishda bunday tasnif qulaylik tug'diradi. Tasnifda bo'linuvchi va bo'lувчи tushunchalar o'zining qat'iy оrniga ega bo'ladi. Tasnif natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi.

Tabiiy va sun'iy tasniflar bir-biridan farq qiladi. Tabiiy tasnif obyektlarning muhim belgilariga asoslanadi (mas, kimyoviy elementlarning davriy sistemasi). U tasnifning natijasi va muhim vositasi bo'lib, bilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Sun'iy tasnif asosida obyekt larning nomuhim belgilari yotadi va turli-tuman predmetlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi (mas, kutubxonada kitoblarni alfavit bo'yicha joylashtirish). Tasnifda mantiqdagi bo'lish qoidalariga qat'iy rivoj lanishiga mos ravishda takomillashtirib, tuzatilib, rivojlantirilib boriladi. Tasniflash har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi оrnini aniqlab beradi. Tasniflash natijasida hosil bo'lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan bilim hisoblanadi.

Bilimlarning kelib chiqishi, ilmlar tartibi, strukturasi va o'zaro munosabatini o'rganishda fanlar tasnifi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu masala bilan o'tmishta ko'p olimlar, jumladan, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, F. Bekon, Dekart, Mil, Spenser, Kant va boshqalar shug'ullanishgan.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"dan

Tasniflash oddiy bo'lishdan barqaror tabiatliligi bilan ajralib turadi. To'g'ri, tasniflashda ham oddiy bo'lishda amal qiladigan barcha tamoyillar asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni tasnifda ham bo'lishdagi kabi:

- 1) tasniflangan bo'laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo'lishi;
 - 2) tasnif bir asosda amalgalashishi;
 - 3) tasnif (tasniflangan) guruhlari bir-birini inkor qilishi;
 - 4) tasnif uzlucksiz bo'lishi, ya'ni unda "sakrash" bo'lmasligi lozim.
- Bu qoidalarni qisqacha sharhlaymiz.

2. Tasnif tamoyillari.

Tasnif qat'iy tamoyillar asosida amalgalashishi. Ulardan muhimlarini sanaymiz.

Tasniflangan guruh hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelishi. Masalan, fonema unli va undoshga, leksemalar mustaqil va nomustaqlar leksemalarga, qo'shimcha so'z yasovchi va grammatik qo'shimchalarga ajraladi. Agar tasniflangan guruh soni ancha ko'p bo'lsa, "va boshqalar", "va hokazo" tarzida sanashni tugatish ham mumkin. Masalan, "fe'lning mavzuiy guruhlari "harakat fe'llari", "nutq fe'llari", "tafakkur fe'llari", "yurish fe'llari" va "hokazo" kabi.

Bu qoidaning buzilishi quyidagi xatolarga olib keladi:

a) **noto'liq tasnifda** turning barcha jinslari to'liq sanalmaydi. Masalan, "So'z yasovchi ot yasovchilar va fe'l yasovchilarga bo'linadi" kabi. Chunki so'z yasovchilar aytilganlardangina iborat emas;

b) **ortiqcha a'zoli tasniflar** tasniflangan guruuhlar hajman tasniflanuvchi butunlikdan katta bo'ladi. Masalan, "unlilar lablangan, lablanmagan va bo'g'iz turlariga ega".

Tasnifning bir asosda amalga oshirilishi lozimligi. Tasniflanuvchi butunlikni guruhlarga bo'lish bir paytning o'zida faqat bir belgi, asos, mezon asosidagina amalga oshirilmog'i lozim. Masalan, so'z turkumlari uch - morfologik, semantik va sintaktik belgi asosida tasniflanishi mumkin. Lekin har bir tasnifda ularning birigagina tayaniladi. Tasnifda bunga rioya qilmaslik ikki xil xatoga olib keladi:

a) **tasnifni amalga oshira olmaslikni keltirib chiqaradi.** Masalan, so'zlar morfologik jihatdan o'zgaruvchi va o'zgarmas, semantik jihatdan avtosemantik (mustaqil ma'noli) va sinsemantik (nomustaqlil ma'noli) so'zlarga bo'linadi. Lekin ularni bir paytning o'zida morfologik va semantik tasnif qilib bo'lmaydi. Chunki o'zgarmas so'z avtosemantik ham, sinsemantik ham bo'lishi mumkin. Masalan, ko'makchi o'zgarmas, sinsemantik, ravishlar esa o'zgarmas, avtosemantik so'z;

b) **tasnifning bir bosqichining o'zida goh u, goh bu asosni qo'llash yoki biridan ikkinchisiga o'tish tasnif izchilligiga putur etkazadi.** Masalan, ergashgan qo'shma gapning an'anaviy tasnifida tasnif dastlab sintaktik belgi asosida (ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap) boshlanib, semantik asos bilan davom etar va tugar edi: payt ergash gap, shart ergash gap, o'rinn ergash gap, to'siqsiz ergash gap, natija ergash gap va h. Bunda tasnif dastlab sintaktik belgi asosida amalga oshirilib, ikkinchi bosqichda semantik tasnif amalga oshirilsa, to'g'ri bo'lar edi. Masalan (13-jadval):

13-jadval

Ergash gap							
Ega ergash gap	Kesim ergash gap	Aniqlovchi ergash gap	To'ldiruvchi ergash gap	Hol ergash gap			
Sabab	O'rinn	Payt	Shart	Natija	To'siqsiz	Maqsad	Daraja-miqdor
Hol ergash gap							

Tasnif a'zolari (guruhlari) bir-birini inkor etishi lozim. Undoshlar til oldi, til o'rta, til orqa, bo'g'iz, jarangli, jarangsiz turlardan iborat deyilgan tasnifda a'zolarning ayrimlari boshqalarini inkor eta olmaydi. Ya'ni jarangli undosh til oldi undoshi bilan zidlana olmaydi, til oldi va til o'rta undoshlari bir-birini inkor etish xossasiga ega.

Tasnifda sakrash bo'lmasligi lozim. Agar "kesim sodda kesim, murakkab fe'l kesim, murakkab ot kesimga bo'linadi" tasnifini amalga oshirsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki dastlab kesimni sodda va

murakkabga, so'ngra fe'l va ot kesimga bo'lish to'g'ri hamda izchil tasnifni beradi.

Tasnifning bo'lishdan farqi shundaki, bo'lishda a'zolar guruhanishi shart emas. Masalan, "lablanmagan unlilar *i, e, a* dir" deyish tasnif emas, balki bo'lishdir. Tasnif xarakteriga ega bo'lish uchun *i* yoki *a* guruh (sinf) bo'lib, o'z navbatida, yana bo'linib ketishi lozim edi. Unlilarni lablangan va lablanmagan unliga bo'lish tasnif bo'lib, lablanmagan yoki lablangan unlini bo'lish oddiy bo'lish bo'lsa-da, tasnif maqomida emas.

3. Tasnif turlari. Tasnif dixotomik, politomik yoki dixopolitomik bo'lishi mumkin.

Dixotomik tasnifda birliklar ikki guruhga ajratiladi: "fonemalar unli va undoshga ajraladi" deyilgani kabi. Politomik tasnifda guruh soni ikkidan ortiq bo'ladi: "Grammatik qo'shimcha lug'aviy shakl hosil qiluvchi, sintaktik shakl hosil qiluvchi va lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchiga bo'linadi" yoki "fe'llar nutq fe'llari, ruhiy-holat fe'llari va h.k." kabi.

Dixopolitomik tasnifda tasniflanuvchi butunlik dastlabgi bosqichda ikkiga, keyingi bosqichda ikkidan ortiq sinfga ajraladi. Masalan (14-jadval):

14-jadval

Fonema					
Unli			Undosh		
Yuqori tor	O'rta keng	Quyi keng	Lab	Til	Bo'g'iz

Tasnif asosini tanlash muhim. Chunki biror sistema unsurlarini turli asosda tasnif qilish har xil natija beradi. Masalan, undosh fonemani ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli va jarangsizga, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshiga ajratish mumkin.

Lisoniy tasnif tasniflanayotgan birliklarning ichki, substansial belgilariga ko'ra yoki muhim bo'limgan zohiriy xossasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Shu boisdan tabiiy yoki yordamchi tasnif farqlanadi. Tabiiy tasnifda lisoniy birlikning ichki, barqaror belgilariga asoslaniladi. Yuqorida tabiiy tasnifga misollar keltirildi.

Yordamchi tasnifda birlikning ontologik bo'limgan xossasini bildiruvchi belgilariga tayaniladi. Masalan, "so'zlarning bo'g'in sonlariga ko'ra tasnifi (bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlar)", "unlilarning tilning gorizontal holatiga ko'ra tasnifi" va h.

Tasnif izchilligi – substansial yondashuvning asosiy talablaridan biri.

Mustaqil o'qish uchun

Tilshunoslikning o'rni?

Qadimda ko'plab sharq donishmandlari fanlarni tasniflash bilan shug'ullanishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy ham o'z davridagi fanlarni tasniflashga ayricha yondashgan. Bunda u o'z davrida fanlarga qanday munosabatda bo'linganligiga tayangan.

Mutafakkir fanlarni shu tarzda joylashtirganki, unga ko'ra tartib sodda va tushunarli

fanlardan boshlanib, qiyiniga qarab yo'l olgan. Birinchi fanni o'zlashtirish uchun boshqa fanni bilish talab qilinmasligi e'tiborga olingan. Ikkinci fanni o'zlashtirish uchun, albatta, birinchi fanni o'zlashtirish shartligi nazarda tutilgan. Uchinchi fanni o'zlashtirish esa undan oldingi fanni o'zlashtirish tayangan. Olimning tasnifida birinchi o'rinni matematikaga bergan. Matematikani o'zlashtirish uchun boshqa fanni o'zlashtirish talab qilinmagan. Ikkinci o'rinda fizika turgan. Fizikani egallash uchun avval matematikani to'liq o'zlashtirish, keyin bu fanga o'tish zarur bo'lgan. Shu tariqa, uchinchi o'rinda kimyoga o'rin berilib, kimyogar avval matematikani, keyin fizikani mukammal egallashi, so'ngra kimyoga o'tishi kerak bo'lgan. Va keyingi o'rin biologiyaga berilgan bo'lib, bunda ham yuqoridagi qonuniyatga tayanilgan. Xullas, ro'yxatning oxiridan falsafa o'rin olgan. Demak, haqiqiy faylasuf bo'lish uchun o'z davridagi barcha fanlarni to'liq va mukammal o'zlashtirish talab qilingan. Axir, bejiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi ajdodlarimiz faylasuflar sanalmagan.

Xo'sh, filologiya fanlari, xususan, tilshunoslikning fanlar tasnifida tutgan o'rni qanday bo'lgan degan haqli savol tug'iladi.

Birinchidan, u zamonlarda tilshunoslik degan alohida fan bo'lмаган va u falsafaning tarkibida bo'lgan. Demak, ko'rindiki, tilshunoslikka ham tasnifning oxiridan o'rin berilgan deyish mumkin. Bilasizmi, bu nimadan dalolat beradi? Demak, mantiqan yondashadigan bo'lsak, tilshunoslikni o'zlashtirish uchun ham boshqa barcha fanlarni to'liq o'zlashtirish shart ekan-da. Ha, shunday. Chunki tilshunos, deylik, lug'at tuzish bilan shug'ullanayapti. U har bir so'zning ma'nosini tushungan holda izohlamas ekan, bu izohni boshqalarning ham tushunishi mahol. Masalan, matematikadagi tangens, sinus, fizikadagi qarshilik kuchi, massa, tezlik, kimyodagi oksidlanish, laktoidlar kabi terminlarning ma'nosini va mohiyatini tushunmasdan turib qanday izohlash mumkin? Ko'rindiki, bobomiz Abu Rayhon Beruniy tasnifi ham qat'iy qonuniyatga, va, obrazli qilib aytganda, achchiq haqiqatga asoslangan.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Fikr izchilligi tasnifga qay darajada aloqador?
- 2.Tartbsizlik zamirida tartib bo'ladimi? Fikringizni asoslang.
- 3.Sherda qanday tartib va tasnif bor?

Savol va topshiriqlar

- 1.Tasnif nima?
- 2.Tasnif fan uchun qanday ahamiyatga ega?
- 3.Tasnifning qanday turlari bor?

Test

1.Tasnif oddiy bo'lishdan nimasi bilan farqlanadi: a) a'zolarining ko'pligi bilanb) a'zolarining har xilligi bilan c) a'zolarining bir xilligi bilan d) barqaror belgisi mavjudligi bilan.

2.Tasnif va tartib qanday munosabatda: a) tartib tasnifni o'z ichiga oladib) tasnif va tartib munosabatda emas c) tasnif tartibni o'z ichiga oladi d) tartib va tasnif teng qiymatli tushunchalar

3.Bir vaqtning o'zida nechtagacha tasnif belgisiga asoslanishi mumkin: a) bittab) ikkitac) uchta d) to'rtta.

4.Qaysi tasnif ko'p a'zoli: a) dixotomikb)monotomikc) trixotomik d) politomik.

Glossariy

tasnif – tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini barqaror belgilari asosida tur va jins tushunchalariga ajratish

tasnif asosi (belgisi) – sistema elementlarini guruhlarga ajratishga asos bo'luvchi belgi

dixotomik tasnif – tasniflanayotgan hodisalarning ikki guruhga ajratilishi

politomik tasnif – tasniflanayotgan hodisalarning ikkitadan ko'p guruhlarga ajratilishi

dixopolitomik tasnif – tasniflanayotgan hodisalarning birinchi bosqichda ikki va keyingi bosqichda ko'p guruhlarga ajratilishi

noto'liq tasnif–turning barcha jinslari to'liq sanalmasligi

ortiqcha a'zoli tasnif – tasniflangan guruhlar hajman tasniflanuvchi butunlikdan katta bo'lishi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.

BO’LIM BO’YICHA UMUMLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Umumiyligi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o’ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar sistemasi nima deyiladi?
2. Lisoniy birliklar sistemasining lisoniy sathga mansubligiga ko’ra, qanday paradigma farqlanadi?
3. Morfologik paradigma nima?
4. Sintagmatik aloqa deb nimaga aytildi?
5. Sintaktik aloqa bilan sintagmatik aloqaning farqi nimada?
6. O’zaro o’xshashlik munosabatida bo’lgan birliklarning bir-biri bilan farqli xususiyati asosida qarama-qarshi qo’yilishi nima deb ataladi?
7. Falsafiy qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashmasi, voqelanishi nima?
8. Lisoniy ziddiyat o’lchoviga ko’ra qanday turlarga bo’linadi?
9. Qanday belgiga ko’ra ziddiyat ajralgan va muntazam ziddiyatga bo’linadi?
10. A’zolari orasidagi munosabatga ko’ra ziddiyat turlari haqida gapirib bering.
11. Tasnif nima?
12. Tasnifning qanday qoidalari bor?
13. Tasniflangan guruh hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelmasa qanday xatoliklarga duch kelinadi?
14. Tasnifning bo’lishdan farqi nimada?

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar

1. Hazratqulov M. Tasavvuf. –Dushanbe: Maorif, 1988;
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.
3. Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.
4. Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida. – Toshkent: Nihol, 2002.
5. Nasafiy Shayx Aziziddin. Zubdatul-haqoyiq // Tafakkur, 1995. -№ 3-4.
6. Navoiy A. Lisonut-tayr.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
7. Nurmonov A. O’zbek tilshunosligi tarixi.– Toshkent:“Sharq” NMAK, 2002.
8. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. va b. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. M Morfologiya.– Toshkent: Yangi asr avlod, 2000.
9. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I, II, IIIjildlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
10. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O’qituvchi, 1993.
11. Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.– Toshkent:O’qituvchi, 1995.

12. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari.– Toshkent: Universitet, 2002.
13. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o’zbek adabiy tili.– Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
14. Shahobiddinova Sh. Umumiylik va xususiylik dialektikasi hamda uning o’zbek tili morfologiyasida aks etishi: filol.fanlari d-ri dis.avtoref.– Toshkent, 2001.
15. Tilshunoslik va metodika masalalari. – Buxoro, 2002.
16. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq.– Toshkent: O’qituvchi, 1993.
17. Лингвистическийэнциклопедическийсловарь. – М.: СЭ, 1990.

IKKINCHI BO'LIM

FONETIK-FONOLOGIK SATH

8- ma'ruza

FONOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI. UNLI FONEMALAR PARADIGMASI

Reja:

1. Fonologiya va uning o'rganish obyekti
 - 1.1. Fonetik-fonologik sath haqida.
 - 1.2. Fonetika va fonologiyaning farqlanish asosi.
 - 1.3. Fonologiyaning o'rganish obyekti.
2. Unli fonemalar paradigmasi

1. FONOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI

Kalit tushunchalar

til sathlari, Lison, nutq, lisoniy sath, nutqiy sath, til birligi, lisoniy birlik, nut qiy birlik

O'zlashtiriladigan tushunchalar

fonetika, tovush, nutq tovush, tovushning akustik jihat, tovushning fiziologik jihat, tovushning sotsial jihat, fonema, fonetik paradigma, bir o'lchovli ziddiyat, ko'p o'lchovli ziddiyat, muntazam ziddiyat, ajralgan ziddiyat

1.1. Fonetik-fonologik sath haqida. Nutqimizdagi har bir so'z o'z fonetik "to'n"iga ega. Garchi alohida olingen tovush hech qanday ma'no anglatmasada, u ma'noli til birliklarining tashqi tomonini tashkil etib, ularni eshitiladigan tusga kiritadi. Og'zaki nutqda eng asosiy til birligi – so'z va tovush. Boshqa hodisalar so'z ma'nosini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. So'z ma'no ifodalasa, tovush uni tinglovchiga yetkazadi. Tovushning tinglovchiga so'z qiyofasiga solib ma'noni yetkazishi uning sotsial tomonidir.

Tovushning hosil bo'lish o'rni, eshitilish va ma'no farqlash tomonlari mavjud. Tovushning fiziologik (artikulyatsion) va akustik (eshitilish) tomoniga doir xususiyatlari faqat tilshunos uchun ahamiyatli. Ma'no farqlash jihat esa so'zlashuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, ular bundan ongsiz ravishda foydalanadilar.

Nutq tovushi ilk til birliklaridandir. Inson tili vositasida paydo bo'lgan dastlabgi biologik tovushlar evolyutsiya natijasida inson tafakkuri rivojlanib borishi bilan sotsial (so'z hosil qiluvchi, ma'no farqlovchi) tovushga aylanib borgan. Tillarning paydo bo'lishidagi fonetik nazariyalar bejiz emas. Albatta, bunda masalani tillarning emas, balki so'zlarning paydo bo'lishi tarzida qo'yilishi mavjud nazariyalarning barchasi to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Mustaqil o'qish uchun**Ilk so'zlarning paydo bo'lishida fonetik omillar**

Tilning paydo bo'lishi va so'zlarning paydo bo'lishi boshqa-boshqa hodisa. Bugungi kunda paydo bo'layotgan, qanday paydo bo'lganligi bizga ma'lum so'zlar mavjud nazariyalar tilning emas, balki so'zlarning paydo bo'lishiga daxldor ekanligini ko'rsatadi. Ayrim so'zlarning taqlid asosida, boshqasining ijtimoiy kelishuv asosida paydo bo'lganligini hech kim inkor qilmasligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Insoniyatning umrini ham inson umriga qiyoslash mumkin. Insonda go'daklik, bolalik, o'spirinlik, o'smirlilik, o'rta yoshlik va keksalik bo'lganligi kabi insoniyat ham shakllanish va undan keyingi davrlarga ega. Ma'lumki, bola nutqining psixolingvistik xususiyatlarini tadqiq etgan mutaxassislarning aniqlashlaricha, bola to'rt oyligidanoq nutq vazifasini, o'ta jo'n bir tarzda bo'lsa-da, bajaridan turli tovushlar chiqara boshlaydi ("u-u-u", "m-m-u", "m-m-a", "g'u-u-v" kabi). ...

Bolaning tili chiqayotgan davrda uning "lug'at boyligi" dagi asosiy qismni taqlidiy "so'z"lar tashkil etadi, bu tabiiy hol, albatta. Zотан, bolaning tili boshqalarga taqlid yo'li bilan chiqadi va sekin-asta ularning o'rnini odatdagi so'zlar egallay boradi." Demak, insoniyat tilining ham dastlabgi lug'ati taqlid so'zlardir.

To'g'ri, so'zlarning paydo bo'lishiga nisbatan mavjud nazariyalarning qaysidir bittasiga ustuvorlik berib bo'lmaydi. Lekin ularning birortasini noto'g'ri deb ham bo'lmaydi. Zero, so'zlar turli asosda paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda, turli milliy tillarda so'zlarning paydo bo'lishida ularning o'rni va roli ham turlicha. Zero, millatlarning nigohlari ham milliy bo'lib, ularning biri bir narsaning ma'lum bir tomoniga boshqasiga nisbatan ko'proq e'tibor beradi va bu e'tibor natijasi o'laroq bir hodisa turli tillarda turlicha nomlanadi.

Insonning nutq tovushlarini qayd etish ehtiyoji tilshunoslikning fonetika va fonologiya sohalari shakllanishi va rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Tilshunoslari dastlab talaffuzdagi nutq tovushlarini tekshirib, tahlil qila boshlaganlar. Bu tovushlar sezgi a'zolariga ta'sir qilib, avvalo, tovushlarning akustik, undan so'ng artikulyatsion jihatlari e'tiborni torta boshlagan. Fan taraqqiy etishi bilan nutq tovushlaridagi xususiy va umumiyligi jihatlar farqlana boshlagan.

Qizig'i shundaki, til sohiblari (mutaxassislardan tashqari) tildagi tovushlar haqida hech qanday bilimga ega bo'lmasalar-da, bu ularning nutq tovushlarini talaffuz qilishlari, so'zlarni aytib fikr ifodalashlariga monelik qilmaydi.

Tilimizdagi so'zlarga e'tibor bering: *quloq, buloq, ulug', g'ulu, gul, munchoq, ushbu, turshak* va h. So'zlardagi har bir (u) tovushi o'ziga xos. Ular talaffuzimizda har xil jaranglasa-da, bitta harf bilan yozamiz va ilmiy talqinlarda – darslik va qo'llanmalarda bitta [u] haqida so'z yuritamiz. "Yo'q" ma'nosini ifodalash uchug tilimizni tishimizga kiskin tayab, qandaydir churqillashga o'xhash ovoz chiqaramiz. Yoki dunyo bo'yicha barcha itlar bir xil vovillab, mushuklar bir xil miyovlashsa-da, ularni turli til sohiblari turlicha aytish, turlicha yozishadi. Bu va bu kabi muammolar bilan tilshunoslik, tilshunoslikning tovushlar haqidagi sohasi bo'yicha mutaxassislar shug'ullanishadi.

Mantiqiy mushohada uchun

1. **Metall** so'ziga **-lar** qo'shimchasi qo'shilsa, nega uchta l talaffuz qilinmaydi?
2. Ba'zi mutaxassislar o'zbek tilidagi [f] tovushini o'zlashma deyishadi. Uning o'zlashma emasligini kechasi o'chgan elektr chirog'i yonishi vaqtidagi holat bilan qanday asoslash mumkin?
3. Unilar og'iz bo'shlig'ida uchramaydi. Bu hukmda qanday ilmiy va mantiqiy xatolik mavjud?

1. Fonetika va fonologianing farqlanish asosi. Lisoniy sathlar sirasida fonetika nutqning eng kichik tashkil etuvchi va boshqa sathlar birliklari uchun moddiy asos bo'luvchi birliklarini beradigan sath sifatida ajralib turadi.

Insonning nutq faoliyati sezgi a'zolari asosida his qilinuvchi nutq birliklari – tovush yoki tovushlar sistemasi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushi o'zida uch jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular quyidagilar:

- a) talaffuz a'zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi mahsuli (fiziologik jihat);
- b) tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik tabiatga ega (akustik jihat);
- c) kishilarning axborot uzatish, kommunikatsiya vositasi (funksional, sotsial, lisoniy jihat).

Nutq tovushining haqiqiy va muhim jihat – uning funksional aspekti. Tilshunoslikda aytilgan uch jihatni yaxlitlikda o'rganish yoki ajratgan holda tadqiq qilish masalasida bir xillik yo'q. Ba'zi mutaxassislar nutq tovushining fiziologik tomoni biologiya, akustik jihatni fizika fanining o'rganish predmeti bo'lib, tilshunos uning faqat funksional tomoninigina tekshirishi lozim degan fikrni ilgari surishsa, ayrimlari har uchala jihat bir-biridan ajralmas, ularni yaxlitlikda o'rganmoq kerak degan qarash tarafdoi. Ana shu ikki xil qarash kurashi natijasida tilshunoslikda ikki – fonetika va fonologiya sohalari ajraldi. Natijada fonetika nutqiy variant (**nutq tovushi**)ni, fonologiya esa lisoniy invariant (**fonema**)ni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ladigan bo'ldi. Biz "Hozirgi o'zbek tili" kursida tilning lisoniy strukturasini o'rganishimiz zarurligi tufayli tahsil obyektimiz fonema bo'ladi.

Fonetika termini grek tilidan tarqalgan bo'lib, "fonetikos" – "tovushga oid" degan ma'noni bildiradi. Fonetika inson nutqi tovushlari va tovushlar talaffuziga bog'liq har xil masalalar bilan shug'ullanadi.

Har bir tilning tovushlar tizimi o'ziga xos. Ammo xalqlar til nazariyalarini bir-birlaridan o'zlashtiradilar. Ana shunda katta muammo va chalkashliklar paydo bo'ladi. Bu muammo bir til qurilishi asosida yaratilgan nazariyalar asosida boshqa til hodisalari ham baholana boshlashida namoyon bo'ladi. Natijada keyingi tilning xususiyatlari oldingi tilga xos ilmiy stereotiplar asosida tahlil qilinadi va tilning haqiqiy xususiyatlari e'tibordan chetda qoladi. Bu holat tillar tadqiqida alohida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan "lingvistik kasallik" dir. Fonetika ham bu "kasallik"dan xoli emas.

3. Fonologianing o'rganish obyekti. Fonologiya (gr. **phone** – "tovush", **logos** – "ta'limot") termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash

ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funksional qonuniyatini o'r ganuvchi soha, semiotik (ishoraviy) sistema sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektida o'r ganadigan fonetikadan farqlanadi.

Fonetikaning birligi nutq tovushi bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi – so'zlovchilar ning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushi asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvuri. Har bir fonema kishi ongida umumiylar farqlovchi xususiyati asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obraz» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgi tovushning artikulyatsion va akustik belgisi asosida vujudga keladi hamda barqarorlashadi.

Fonologik paradigm. Boshqa lisoniy birlik kabi fonema ham paradigmatic va sintagmatik munosabatda yashaydi. Bu **fonologik paradigmatika va fonologik sintagmatika** deyiladi.

O'zaro qarama-qarshi belgiga ega bo'lgan, biroq umumiylar birlashtiruvchi (integral) belgilari asosida uyushgan fonemalar sirasi **fonologik paradigm**, fonemalarning sistemadagi o'zaro munosabati **fonologik paradigmatic munosabat** deyiladi.

Fonologik ziddiyat va uning turlari. Fonologik paradigmning asosida fonologik ziddiyat yotadi. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya) fonemaning farqli belgilarini o'zida ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiylar – «**ovozdan iboratlik**» invariant xossasiga ega. Bu mohiyat 6 ta unli fonema uchun umumiylar. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o'zaro zidlanib, kichik guruhlar hosil qiladi. [i] va [u] «yuqori tor» belgisi bilan «o'rtal keng» xossasiga ega [e] va [o'] hamda «quyi keng» xossasiga ega [a] va [o] fonemalar guruhlariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablanmagan» belgisiga ega [i], [e], [a] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [u], [o'], [o] guruhiga qarama-qarshi turadi. O'z navbatida [i], [e], [a] guruhi a'zolari o'ziga xos belgilari asosida o'zaro zidlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatning har xil tur va ko'rinishlari farqlanadi. N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatni uch asosga ko'ra tasniflaydi:

1) fonologik ziddiyatning ziddiyat sistemasiga munosabatiga ko'ra tasnifi. Bunda ziddiyat bir o'lchovli va ko'p o'lchovli, muntazam va ajralgan ziddiyatga bo'linadi. **Bir o'lchovli** ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [i] va [u] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan, bunda ular bir belgi – «lablangan»lik xossasiga ko'ra qarama-qarshi turadi.

Ko'p o'lchovli ziddiyatda ziddiyat a'zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi: [i]~[o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo'lsa, [o] yarim yopiq, lablangan.

Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a'zolar o'zaro o'ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo'yiladi: «[i]- tor, [o]- keng» zidlanishi **muntazam zidlanish**. Bunda “i” fonemasi «tor»lik, [o] fonemasi «keng»lik belgisiga ega.

«[i] (tor) – [o] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a'zoda ziddiyat belgisi aniq, ikkinchi a'zoda aniq emas. Agar ikkinchi a'zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo'lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo'lar edi.

Bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish **ajralgan zidlanish** deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling:

Lablanganlikkako'ra		Keng va torlikka ko'ra	
[u]	[i]	[o]	[u]
lablangan	lablanmagan	Keng	tor

Birinchi zidlanishda ziddiyat belgisi bo'lingan, ajralgan, ikkinchida esa bunday hol mavjud emas.

2) barqarorlik darajasiga ko'ra zidlanish barqaror va barqaror bo'limgan turga bo'linadi. Barqaror zidlanishda fonemalar qanday nutqiy vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda [a] unlisi bilan til orqa [u] unlisi orasidagi ziddiyat kuchsizlanadi.

Barqaror bo'limgan ziddiyatning neytrallashmagan holatini ta'minlovchi fonetik pozitsiya **kuchli pozitsiyadeyiladi**. Masalan, [b] fonemasi so'z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [p] fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir. Neytrallanishga, so'nishga olib keluvchi pozitsiya **kuchsiz pozitsiyadir**. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo'limgan ziddiyat deyiladi. Unli va undosh orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo'la oladi. Yoki undoshning paydo bo'lish o'rniga ko'ra, unlilarning tor-kenglik xossalariiga ko'ra zidlanishi ham barqaror ziddiyatdir. Lablanish belgisiga ko'ra [o']~[e] sistemachasi ham barqaror ziddiyat asosiga qurilgan.

Mustaqil o'qish uchun

Fonologiya maktablari

Moskva va Peterburg fonologiya maktablari nazariyalari o'rtasidagi ilmiy tortishuv faqatgina fonologik metod va fonema tushunchasiga ta'rif doirasida bordi.

Peterburg fonologiya maktabi (PFM) nazariyasi L.V.Shcherbaning fonologik nazariyasiga asoslanib, fonema va uning voqelanishini tan oladi. Bu maktab vakillari – L.R.Zinder, M.I.Matushevich, A.N.Gvozdev va boshqalardir. L.R.Zinderning fikricha:

fonema boshqa til birliklaridan farq qiluvchi birlik;

fonema fonetik birlik, u nutq tovushlarni orqali ma'lum fonetik xususiyatiga ega bo'ladi.

Ko'rindiki, fonema tilda o'zining aniq vazifasiga va moddiy jihatdan o'z artikulyatsion-akustik xususiyatiga ega. PFM maktabi fonemaga so'zlarning ma'nolarini farqlovchi aniq eng kichik til (tovush) birligi deb qaraydi.

Moskva fonologiya maktabi (MFM) vakillari N.F.Yakovlev, P.S.Kuznetsov, V.N.Sidorov, R.I.Avanesov, A.A.Reformatskiy va boshqalardir. Ular ma'lum tovushning biror fonemaga tegishli

ekanligini aniqlashda tovushniig so'zdagi o'rni (pozitsiyasi)ga asoslanadi. Bunda nutq tovushlarining biror fonemaga tegishli ekanligi ular o'rtasidagi artikulyatsion-akustik yaqinlikni inkor etadi. Keyingi qarash PFM uchun xos. Shu tufayli MFM bo'yicha fonema so'zlarni farqlovchi birlik sifagida qaraladi.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Qallob so'zidagi (a) tovushi ***Har kim tilagan murodiga yetsa kishiga*** pidida necha marta takrorlangan?
2. [a] fonemasi ***Har kim tilagan murodiga yetsa kishi*** gapida necha marta takrorlangan?

Savol va topshiriqlar

- 1.Fonetika va fonologiyaning farqlanish asosi haqida gapiring.
- 2.Fonologiyaning o'rganish obekti nima?
- 3.Fonologik paradigma deganda nimani tushunasiz?
- 4.Fonologik ziddiyat va uning turlari haqida gapiring.
- 5.Fonologik ziddiyatda kuchli pozitsiya nima?
6. Fonologik ziddiyatda kuchsiz pozitsiya nima?

Test

1. *Kitob* leksemasida nechta fonema mavjud? A) 5 B) 4 C) 3 D) fonema mavjud emas.
2. XX asr jahon tilshunosligidagi tub burilishi nima bilan belgilanadi? A) lison va nutqni farqlash B) lison va nutqni yaxlit o'rganish C) nutqni alohida o'rganish D) lisonning nutqiy voqelanishini tadqiq qilish
3. Qaysi belgi unli fonemalarga xos emas? A) lablanmaganlik B) torlik C) kenglik D) til oldilik
3. Morfema qanday leksemalarga qo'shiladi? A) mustaqil B) nomustaqlil S) alohida so'zlarga D) leksemalarga qo'shilmaydi
3. Unli va undoshlar o'zaro qaysi belgi asosida birlashadi? A) ovozga egalik belgisi bilan B) bирyoqlama birlik ekanligi bilan S) shovqinlilik D) ikki paradigmaga kirishi bilan
4. Qaysi belgi paradigma a'zolariga xos emas? A) o'tkinchilik B) barqarorlik S) umumiy belgiga egalik D) farqlilik

Glossariy

fonetika – nutq tovushlarini o'rganuvchi soha

nutq tovushi – so'zlarning eshitiluvchi, nutq a'zosini bir holati bilan hosil bo'ladigan moddiy tomoni

tovushning akustik jihatি – nutq tovushining eshitilish jihatি

tovushning fiziologik jihatি – nutq tovushining hosil bo'lish jihatি

tovushning sotsial jihatি – tovushning ma'no farqlash jihatি

fonema – nutq tovushlarining lisoniy asosi

fonetik paradigma – fonemalar sistemasi

bir o'lchovli ziddiyat – bir belgi asos bo'lgan ziddiyat

ko'p o'lchovli ziddiyat – bir necha belgi asos bo'lgan ziddiyat

muntazam ziddiyat – a'zolar o'zaro o'ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo'yiladigan ziddiyat

ajralgan ziddiyat – bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish

ajralgan ziddiyat – bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.

2. UNLI FONEMALAR PARADIGMASI

Tayanch tushunchalar:

fonetika, tovush, nutq tovush, tovushning akustik jihatni, tovushning fiziologik jihatni, tovushning sotsial jihatni, fonema, fonetik paradigma, bir o'lchovli ziddiyat, ko'p o'lchovli ziddiyat, muntazam ziddiyat, ajralgan ziddiyat

O'zlashtiriladigan tushunchalar

unli fonema, lablanmagan unli, lablangan unli, tor unli, keng unli, yuqori unli, o'rta unli, quyi unli

Unli tovushlar og'iz bo'shlig'ida tovush paychalarida hosil bo'lgan ovozning turli to'siqlarga uchrashi natijasida vujudga keladi. Lablarning harakati, tilning tanglayga ko'tarilishi ovoz duch keladigan to'siqlardir. Tilning ko'tarilish darajasi (yuqori, o'rta, quyi) va lablanganlik-lablanmaganlik – kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy, sistema hosil qiluvchi belgisi. Unlilarning til gorizontal holatiga ko'ra (old qator, o'rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilarn yondosh tovush ta'sirida hosil bo'ladi va o'zgarib turadi. Masalan, [q] undoshi bilan sintagmatik munosabatida [a] unlisi "til orqa" xossasiga ega bo'lsa, [k] undoshi qurshovida til o'rta, [m] undoshlari qurshovida esa til oldi unlisi sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqil o'qish uchun

Fonetik qirg'oqlarda

Fonemalar nuqda tovushlar sifatida voqelanganda bamisoli daryo oqimiga o'xshaydi.

Tog'dan oqib tushayotgan daryoni ko'z oldingizga keltiring. Kengliklarda yoyilib, bemalol yayrab oqadi. Torliklarga kelganda shovqin solib, sharsharaga aylanadi, har tarafga otiladi, qirg'oqlarga zarb bilan urilib, uni yemiradi, o'zi ham yana orqaga qaytadi. O'tkir toshlarga zarba beradi, ba'zan ularni joyidan siljитib yuboradi.

Fonemalar ham ham xuddi daryo suvi kabi har xil sharoitlarga tushadi, qulay sharoitlarda o'z mohiyatini saqlaydi, oqim uchun noqulay joylarda yo sharoitga moslashadi, yoki sharoitni o'ziga moslashtiradi.

Masalan, a unli fonemasini olaylik. Alam, bolam, katta so'zlarida lablanmaganlik va kenglik xususiyatini saqlab qoladi. Bu uning uchun qulay sharoit. Lekin qara, havas, g'alaba so'zlarida yonidagi undoshlarga moslashib, lablanishga moyillik sezadi. Nutq a'zolari qulay va oson yo'l bilan tovushlarni talaffuz qilishga intiladi. Bu unlilarning til orqa undoshlari qurshovida kelganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu boisdan ayrim o'zbek shevalarida qara, g'alaba so'zlaridagi (**a**) unlisi (**o**) tarzida yoki (**a**) bilan (**o**) oralig'ida talaffuz qilinadi.

Nutq tovushlarining o'z mohiyatini saqlab qoladigan qulay sharoiti kuchli pozitsiya deyiladi. Masalan, alam va olam so'zlaridagi (**a**) va (**o**) unlilarining talaffuz sharoiti kuchli pozitsiyaga misol bo'ladi.

Bir nutq tovushini boshqasidan farqlovchi belgilar kuchsizlanadigan, tovushlararo farqlar so'nadigan pozitsiya kuchsiz pozitsiya deyiladi. Masalan, **qanot** so'zidagi (**a**) tovushi voqelanayotgan pozitsiya kuchsiz pozitsiya hisoblanadi. Chunki talaffuzda (**a**) tovushini (**o**) tovushidan farqlash qiyinlashadi. Yoki **kitob** so'zi oxirida (**b**) tovishini (**p**) tovushidan, **qiz** so'zi oxirida (**z**) tovushini (**s**) tovushidan farqlash qiyin.

Ana shu kuchsiz pozitsiyalar imloda xatoliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ammo esda tutish lozimki, daryo turli darajadagi qirg'oqlarda qanchalik eshilib-buralmasin, kengayib-toraymasin, baribir u bitta daryo, boshqa daryoga aylanib ketmaydi. Lekin bizning ko'zlarimiz daryoni turli o'rinnlarda ko'rib, bir holatini ikkinchi holatiga o'xshata olmay,

hayratlanadi, xolos.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko'ra tasnifi quyidagicha (15-jadval):

15-jadval

Fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning darajasi	ko'tarilish		Lablanish belgisi	
	Yuqori	O'rta	Quyi	Lablangan	Lablanmagan
[i]	+				+
[u]	+			+	
[o']		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Jadvaldan ko'rindaniki, tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra unli fonemalar uch pog'onali, lablanish belgisiga ko'ra ikki pog'onali sistemani hosil qiladi.

Mantiqiy mishohada uchun

- So'z oxirida undosh jarangsizlashdi. Daryo qirg'oqqa ta'sir qildimi yoki qirg'oq daryoga?
- Ertakda Yalmog'iz paydo bo'lganda, supurgi yo'qolib qoladi. Supurgi paydo bo'lganda yalmog'iz yo'q bo'ladi. Ular almashib turar edi. Bola Yalmog'izni qanday yo'qotdi? Buni pozitsiya va tovushlar munosabatiga qanday bog'laysiz?

Unli fonema yaxlit sistemani tashkil etib, bu sistema ham o'z navbatida sistemachalarga bo'linadi. [i] va [u] fonemalari "yuqoritor" belgisiostidabirlashib, bundaybelgigaegabo'lmanfonemalardanajraladi. Quyida har bir unli fonemaning sistemaviy xususiyatlarini jadvalda aks ettiramiz:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'luvchi belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[a]	Sof ovozdan ibrat	Quyi keng, lablanmagan	
[o]		Quyi keng, lablangan	
[e]		O'rta keng, lablanmagan	
[o']		O'rta keng, lablangan	

[i]		Yuqori tor, lablanmagan	
[u]		Yuqori tor, lablangan	

Unli fonemalar paradigmasi katta va kichik paradigmalardan iborat. Lablangan va lablanmagan unlilar ichki paradigmalarni hosil qiladi. Lablangan unlilar ichki paradigmasini jadvalda sistemaviy xususiyatlari asosida quyidagicha berish mumkin.

Lablangan unlilar paradigmasi:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'luvchi belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[o]	Lablangan	Quyi keng	Sof ovozdan iborat
[o']		O'rta keng	
[u]		Yuqori tor	

Lablanmagan unlilar paradigmasi:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'luvchi belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[a]	Lablanmagan	Quyi keng	Sof ovozdan iborat
[e]		O'rta keng	
[i]		Yuqori tor	

Keng/torlik xususiyatiga ko'ra unlilar uchta ichki paradigmani tashkil qiladi: yuqori tor unlilar paradigmasi, o'rta keng unlilar paradigmasi, quyi keng unlilar paradigmasi.

Yuqori tor unlilar paradigmasi:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'luvchi belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[i]	Tor	Lablanmagan	Yuqori
[u]		Lablangan	

O'rta keng unlilar paradigmasi:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'luvchi belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[e]	Keng	lablanmagan	O'rta
[o']		lablangan	

Quyi keng unlilar paradigmasi:

Fonema	Sistema hosil qiluvchi belgisi	Sistemada hosil bo'lувчи belgisi	Sistemaga betaraf belgisi
[a]	Кенг	lablanmagan	Quyi
[o]		lablangan	

Aytish mumkinki, [i] va [u] kichik paradigmasi a'zolari farqlovchi belgilari ([i] – lablanmaganlik va [u] – lablanganlik belgilari) asosida o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. [e]~[o'] sistemachasi "o'rta keng" belgisiga ko'ra [i]~[u] sistemachasidan ham, [e]~[o] sistemachasidan ham farqlanadi.

Ma'lum bo'ladiki, katta paragma uchun sistema hosil qiluvchi belgi ichki paragma uchun sistemaga betaraf belgiga aylanib qoladi. Bu sistemaning ichki sistemalarga bo'linishlaridagi qonuniyatlardan biridir.

Demak, unli fonemaning har biri uch belgidan iborat:

- [i] – yuqori, tor, lablanmagan
- [u] – yuqori, tor, lablangan
- [e] – o'rta, keng, lablanmagan
- [o'] – o'rta, keng, lablangan
- [a] – quyi, keng, lablanmagan
- [o] – quyi, keng, lablangan.

Tilning ko'tarilish darajasi birlashtiruvchi belgi bo'lganda (masalan, [i], [u]unlilari "torlik" belgisi ostida birlashadi) lablanganlik-lablanmaganlik farqlovchi belgi sanaladi: [i] – lablanmagan, [u] – lablangan. "Lablanganlik" birlashtiruvchi belgi bo'lganda, tilning ko'tarilish darajasi farqlovchi belgi sanaladi. Masalan, [i], [e], [a] unlilari "lablanmaganlik" umumiy birlashtiruvchi belgisiga ega, biroq "yuqori" ([i]), "o'rta" ([e]), "quyi" ([a]) lik belgilari bu fonemalarning farqlovchi belgilari sanaladi.

Mustaqil o'qish uchun

Fonetik hazil

*Tilning tilsimoti – Haqning qudrati,
Undagi har unsur hikmatga ega.
Har bitta birlikka vazifa tayin,
Istalgan vosita qiymatga ega.*

*Bilsangiz, unlilar tizimchasida
Oltovlon birlashgan bir vujud erur.
Ortiq yo kam degan kalom yo'q bunda,
Haqiqat amri-la u mavjud erur.*

*Har bitta unlida ikki belgi bor,
Juftlik tamoyili ularga tandir.
Baqamti yashaydi zotiy belgilari,
Bir unli u juftga ayni vatandir.*

*Lablangan har birlik lablanmagandan
Farq qilib turadi o'z borlig'ida.
Quyimi, o'rtami yoki yuqori –
Faqat qo'sh belgi bor til yorlig'ida.*

*Ikki va uch belgi ko'paytmasidan
Unlilar miqdori tayin bo'lgandir.
Belgilarning soni o'zgarsa, balki,
Miqdor saqlanishi qiyin bo'lgandir.*

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Ertakda yalmog'iz bilan supurgi bir paytda paydo bo'lib qoldi deylik. Bu bir fonetik pozitsiyaga o'xshaydimi yoki ikkitaga? Nutq tovushlari asosida dalillang.
- 2.Unisi so'zidagi [n], [i], [s] tovushlari [u] olmoshiga tegishlimi yoki [-i] egalik shakliga? Asoslang.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida unli fonemalar bir belgi asosida uch (tor, o'rta, keng) va ikki a'zoli ziddiyatni (lablangan, lablanmagan), ikki belgi («tilning ko'tarilish darajasi» va “lablanganlik-lablanmaganlik”) asosida olti a'zoli ziddiyatni hosil qiladi.

Savol va topshiriqlar

- 1.Fonetika va fonologiyaning farqlanish asosi haqida gapiring.
- 2.Fonologiyaning o'rganish obekti nima?
- 3.Fonologik paradigma deganda nimani tushunasiz?
- 4.Fonologik ziddiyat va uning turlari haqida gapiring.
- 5.Fonologik ziddiyatda kuchli pozitsiya nima?
6. Fonologik ziddiyatda kuchsiz pozitsiya nima?

Test

- 1.Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining jamiga? A) Nutq formulasi deyiladi B) Nutq apparati deyiladi C) Faol nutq a'zolari deyiladi D) Nutq artikulyatsiyasi deyiladi.
2. Tovush hosil qilish yoki lingvistik xussusiyatiga ko'ra nutq apparatini nechaga bo'lish mumkin? A)3 ga B)4 ga C)6 ga D)2 ga
3. Tanglay necha qismga bo'linadi? A) 2 B) 3 C) 5 D) 4
4. Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan faol organni ko'rsating. A) Bo'g'iz B) Tanglay C) Lab D) Tish

Glossariy

unli fonema – sof ovozdan iborat, nutqda bo'g'in hosil qiluvchi va urg'u oluvuvchi fonema
lablanmagan unli – talaffuzida lab harakatga kelmaydigan unli

lablangan unli – talaffuzida lab harakatga keladigan unli
tor unli – talaffuzida til va tanglay oralig'i torayadigan unli
keng unli – talaffuzida til va tanglay oralig'i torayadigan unli
yuqori unli – talaffuzida til tanglayga maksimal darajada ko'tariladigan unli
o'rta unli – talaffuzida til tanglayga o'rtacha darajada ko'tariladigan unli
quyi unli – talaffuzida til tanglayga ko'tarilmaydigan unli

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.

9- ma'ruza

UNDOSH FONEMALAR PARADIGMASI

Reja:

1. Undoshlarning asosiy farqlovchi belgilari.
2. Undoshlarning zidlanishi.

Kalit tushunchalar

fonetika, tovush, nutq tovush, tovushning akustik jihatni, tovushning fiziologik jihatni, tovushning sotsial jihatni, fonema, fonetik paradigma, bir o'lchovli ziddiyat, ko'p o'lchovli ziddiyat, muntazam ziddiyat, ajralgan ziddiyat

O'zlashtiriladigan tushunchalar

undosh fonema, lab undoshlari, til undoshlari, bo'g'iz undoshi, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, portlovchi undoshlar, sirg'aluvchi undoshlar, portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar, korrelyativ belgi, korrelyativ bo'lmanган belgi

1. Undoshlarning asosiy farqlovchi belgilari. Undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar:

- a) hosil bo'lish o'rniiga ko'ra;
- b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra.

Hozirgi o'zbek tilida 24 ta undosh fonema bo'lib, ularni yuqorida sanab o'tilgan belgilari bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin (2-jadval).

Boshqa sath birliklarida bo'lgani kabi, fonemalarning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo'lmanlarga ajraladi. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo'lmanган belgi – **korrelyativ belgideyiladi**. Masalan, [b]~[p] zidlanishda jarangli-jarangsizlik bu fonemalar uchun korrelyativ belgidir. Ammo til oldi va portlovchilik belgisi har ikkala fonema uchun ham xos bo'lganligi sababli **korrelyativ bo'lmanган belgi** deyiladi. Shuningdek, [h] undoshida jarangsizlik belgisi mavjud. Ammo shu belgi asosida uni boshqa fonema bilan zid qo'yib bo'lmaydi. Chunki [p] fonemasining jarangli jufti – [b] fonemasi. [h] fonemasining esa jarangli jufti o'zbek tili fonologik sistemasida mavjud emas.

O'zbek tilidagi 8 ta fonema uchun "jarangli-jarangsizlik" korrelyativ belgi hisoblanadi: [b] ~ [p], [d] ~ [t], [k] ~ [g], [s] ~ [z], [j] ~ [ch], [j] ~ [sh], [g'] ~ [x], [v] ~ [f].

"Jarangli-jarangsizlik" belgisi asosida korrelyativ munosabatga kirishmaydigan fonemalarning jarangli yoki jarangsiz jufti bo'lmaydi. Masalan: [l], [m], [y], [x], [h], [n], [r], [ng].

Undosh fonemalar sistemasini jadvalda quyidagicha berish mumkin (16-jadval).

Fonemaning assosiy korrelyativ belgilari farqlovchi belgi hisoblanadi. Masalan, [s] fonemasining jarangsizlik, [z] fonemasining jaranglilik belgisi farqlovchi belgidir.

Undosh fonemada ham asosiy belgi farqlovchilik darajasida bo'lmasligi mumkin. Masalan, [m] fonemasining jaranglilik belgisi farqlovchi belgi sanaladi. Chunki fonema xuddi shu belgisi asosida boshqa fonema bilan ziddiyatli juftlik hosil qila olmaydi.

Mantiqiy mushohada uchun

"Unlilar bo'yicha beshinchisi ortiqcha":

ilon, qulqoq; yelak, o'lan; taloq.
albatta, oshiq, beshik, bo'shang, ilm.
Ortiqchasini toping.

2. Undoshlarning zidlanishi. Undosh fonemalar artikulyatsion o'rniiga ko'ra quyidagi binar ziddiyatli munosabatlarga kirishadi:

- a) "lab-lab~ til oldi": [p]~[t]; [b]~[d]; [m]~[n]; [f]~[s]; [v]~[z]; [f]~[sh]; [v]~[l]; [v]~[r];
- b) "lab-lab - til o'rta": [f] ~ [y]; [v] ~ [y];
- d) "lab-lab - til orqa": [p] - k; b - k; f - x; v - g;
- e) "lab-lab - bo'g'iz": f - h; v - h;
- f) "til oldi - til orqa": t - k; t - q; d - g; s - x; z - g; n - g.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatda bo'ladi:

- a) "portlovchi-sirg'aluvchi": p - f; b - v; t - s; d - z; t - sh; k - x.

Ayrim fonemalar affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyatda bo'ladi: t - ng, d - dj.

Sirg'aluvchi fonemalar ham affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi: sh - ch, j - dj.

Yana quyidagi ziddiyatli juftliklar mavjud:

- a) "portlovchi - shovqinli - burun sonant": b - m; d - n; g - n;
- b) "sirg'aluvchi - sonant": z - l; j - r;
- d) "shovqinli sonant - burun sonant": l - n; r - n;
- e) "yon sonant - titroq sonant": l - r;
- f) "titroq sonant - til o'rta sonant": f - y.

16-jadval

	FONEMALAR																							
	P	B	F	v	T	D	s	Z	C h	J	S h	J	k	G	g'	Q	x	h	m	n	n g	y	l	R
shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+			+			
sonor																				+	+	+	+	+
jarangli		+		+		+		+		+		+		+	+	+			+	+	+	+	+	
jarangsiz	+		+		+		+		+		+		+		+	+	+							
portlovchi	+	+			+	+			+			+	+	+		+								
sirg'aluvchi			+	+			+	+			+	+						+		+	+	+		
Affrikat									+			+												
Titroq																							+	
Burun																			+	+	+			
Yon																							+	
Labial	+	+	+	+																				
til oldi					+	+	+	+	+	+	+	+	+						+		+	+	+	
til o'rta																							+	
til orqa													+	+							+			
chuqur til orqa															+	+	+							
bo'g'iz																		+						

Mantiqiy mushohada uchun

Undoshlar bo'yicha asosiy birlashtiruvchi belgisini topib, qatorni davom ettiring:
tana, yanoq, karomat, qalamdon, ...
havas, qish, kuldon, ...

Undoshlarning nutqiy voqelanishida lisoniy ziddiyatlarning so'nishi. Fonemalar nutqda voqelanar ekan, yuqorida aytilganidek, tovushlar tarkibida egallagan o'rni (pozitsiyasi), boshqa nutq tovushlari bilan munosabatiga ko'ra, o'zining lisoniy sifatlarini saqlab qolishi ham, sharoit taqozosiga ko'ra ma'lum darajada yoki butunlay o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Bunday o'zgarishlar darajalanadi. Shu boisdan fonemaning nutqda o'zgarishlarini ikkiga bo'lish mumkin:

- 1) miqdor o'zgarishlari;
- 2) sifat o'zgarishlari.

Buni dialektikadagi sifat o'zgarishlarining miqdor o'zgarishlariga o'tishi qonuni asosida tushuntirish va tushunish mumkin.

Mustaqil o'qish uchun

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi – dialektikaning uchta qonunidan biri. Bu qonunni faylasuf Hegel ta'riflab bergan. Unga ko'ra, rivojlanish murakkab jarayon, taraqqiyotda avval miqdor, keyin sifat o'zgarishi sodir bo'ladi. Predmet yoki hodisaning rivojlanishi avval astasekin ro'y beradigan miqdor o'zgarishidan boshlanadi. Miqdor o'zgarishi me'yor chizig'iga yetgach, sifat o'zgarishi sodir bo'ladi. Masalan, bola ulg'ayayotganda jismoniy jihatdan ma'lum me'yorga yetgach, yigit tusini oladi – unda yangi sifat paydo bo'ladi. Yoki tungi qorong'ulik kamayib, bu kamayish ma'lum me'yorga yetgach, kunduz boshlanadi.

Miqdorning ma'lum bir darajasi yangi sifatni keltirib chiqaradi. Miqdor o'zgarishining sifat yangilanishini keltirib chiqarishi me'yor bilan belgilanadi. Masalan, 22- dekabrda tun va kun tengligi mavjud. Bunda me'yor 12 soat. Tun bu me'yordan o'tishi bilan yangi sifat – qish mavsumi boshlanadi. 22 martda esa buning aksi yuz beradi.

Miqdor o'zgarishi nisbatan sokin, uzlusiz davom etsa, sifat o'zgarishi uzilishli, sakrashsimon bo'ladi. Rivojlanish jarayonida eski sifatning yangi sifatga aylanishi **uzluksizlikning uzilishi** yoki **sakrash** deb ataladi.

Sakrash — rivojlanish jarayonida qonuniy sodir bo'ladigan burilish nuqtasi, taraqqiyot zanjiridagi zaruriy halqa.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni dialektikaning boshqa qonunlari singari ilmiy bilish va amaliy faoliyat uchun katta ahamiyat-ga ega. U bizga tilning ham rivojlanish jarayonini to'g'ri tushunib olish, lison va nutq hodisalarini to'g'ri baholashga yordam beradi.

Fonemalarning nutqda o'z lisoniy xususiyatlarini o'zgartirishi meyor chizig'iga yetmasa, bu nutq tovushi shu fonemaning AHVOsi, tajallisi bo'lib qolaveradi. Masalan, **qo'llim** so'zida [o'] tovushining ta'sirida [i] fonemasi o'z xususiyatini biroz o'zgartiradi. Ya'ni unda lablanmaganlik lablanishga tomon o'sadi, lekin bu o'zgarish meyordan o'tmaydi. Natijada sifat o'zgarishi yuz bermaydi – [i] tovushi [i] fonemasi doirasidan chiqib ketmaydi. Biroq **iqtisod** so'zida [q] fonemasi talaffuzda [t] tovushining ta'sirida [x] tovushi

xususiyatlariga ega bo'lib qoladi, chunki [q] fonemasi voqelanishidagi o'zgarish meyor chizig'idan o'tib ketadi. Natijada yangi sifat – yangi tovush vujudga keladi. Garchi imloda ushbu o'rinda **q** yozilsa ham, talaffuzda **x** tovushini aytamiz.

Eslatma

Biz tovushlarga baho berishda, nutq tovushlarini tahlil qilishda ko'pincha harflarni nazarda tutayotganligimizni bilmay qolamiz. Masalan, *pedagogga* so'zi tahlilida uning yozilishini e'tiborga olib, ikkita [g] tovushi borligini qayd qilamiz. Ammo talaffuzda ikkita [k] tovushlari borligini nazardan qochirmaslik kerak.

Fonetik tahlilda harflar emas, balki tovushlar e'tiborga olinishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Undosh fonema nima?
- 2.Lab undoshi qaysilar?
- 3.Til undoshi qaysilar?
- 4.Qaysi undosh bo'g'iz undoshi?
- 5.O'zbek tilida jarangli undoshlar nechta?
- 6.O'zbek tilida jarangsiz undoshlar nechta?
- 7.Portlovchi undosh qanday hosil bo'ladi?
- 8.Sirg'aluvchi undosh qanday hosil bo'ladi?
- 9.Portlovchi-sirg'aluvchi undosh qanday hosil bo'ladi?
- 10.Korrelyativ belgi nima?
- 11.Korrelyativ bo'lмаган belgi nima?

Test

1.Unli va undoshlar o'zaro qaysi belgi assosida birlashadi? A) ovozga egalik belgisi bilan B) biryoqlama birlik ekanligi bilan C) shovqinlilik D) ikki paradigmaga kirishi bilan

2.[X] undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping. A) chuqur til opqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh fonema B) bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh fonema C) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh fonema D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh fonema.

3.Undoshlarning oppositiv belgisi: A) artikulyatsiya o'rni B) ovoz va shovqin darajasi C) yumshoql/qattiqlik D) artikulyatsiya o'rni, ovoz va shovqin darajasi

4.Undoshlarning barqaror belgisi: A) artikulyatsiya o'rni B) ovoz va shovqin darajasi C) yumshoql/qattiqlik D) artikulyatsiya o'rni, ovoz va shovqin darajasi 5. Undoshlarning beqaror belgisi: A) artikulyatsiya o'rni

B) ovoz va shovqin darajasi C) yumshoq|qattiqlik D) artikulyatsiya o'rni, ovoz va shovqin darajasi

Glossariy

undosh fonema – tarkibida shovqin ishtirok etadigan fonema	
lab undoshi – artikulyatsiya o'rni lab bo'lgan undosh	
til undoshi – artikulyatsiya o'rni til bo'lgan undosh	
bo'g'iz undoshi – artikulyatsiya o'rni bo'g'iz bo'lgan undosh	
jarangli undosh – tarkibi ovoz va shoqindan iborat undosh	
jarangsiz undosh – tarkibi shoqindan iborat undosh	
portlovchi undosh – kuchli to'siqqa uchraydigan undosh	
sirg'aluvchi undosh – kuchsiz to'siqqa uchraydigan undosh	
portlovchi-sirg'aluvchi undosh – bir tomondan kuchli, ikiknchi tomondan kuchsiz to'siqqa uchraydigan undosh	
korrelyativ belgi – ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo'limgan belgi	
korrelyativ bo'limgan belgi – ziddiyatda turgan fonemaning har birida mavjud belgi	

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.

BO’LIM BO’YICHA YAKUNLOVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nutq tovushi o‘zida qanday jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo’ladi?
2. Fonetikaning turlari haqida gapiring.
3. Fonologiya nima?
4. N.S.Trubetskoy “Fonologiya asoslari” asarida fonologik ziddiyatni qanday tasniflaydi?
5. Fonemalarning asosiy, sistema hosil qiluvchi belgisi nima?
6. Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi haqida gapiring.
7. Unli fonemaning har biri necha belgidan iborat va ular qaysilar?
8. O‘zbek tilida unli fonemalar qanday ziddiyatni hosil qiladi?
9. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo‘lmagan belgi nima deb ataladi?
10. Undosh fonemalar artikulyatsion o‘rniga ko‘ra qanday binar ziddiyatlari munosabatlarga kirishadi?
11. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undosh fonemalar qanday ziddiyatlari munosabatda bo’ladi?
12. Fizik (akustik) va fiziologik (artikulyatsion) o‘xshashlik deb nimaga aytiladi?
13. Bir fonema ham tor, ham keng yoki ham jarangli, ham jarangsiz bo‘la oladimi? Sababini tushuntiring.

BO’LIMNI O’ZLASHTIRISH BO’YICHA TAVSIYA ETILADIGAN QO’SHEMCHA ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Kabilova Z. O‘zbek tilining fonosemantik vositalari: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008.
4. Nabiyeva D. O‘zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1998.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – Toshkent: Universitet, 2002.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: FTM, 2010.

UCHINCHI BO'LIM

LEKSIK-SEMANTIK SATH

10- ma'ruza

LEKSIKA, LEKSIK-SEMANTIK SATH VA LEKSIKOLOGIYA. LEKSEMA VA SO'Z

Reja:

1. Leksika.
2. Leksik-semantik sath va uning birligi haqida.
3. Leksikologiya va uning turlari.
4. Leksema va so'z

Kalit tushunchalar

til, lison, nutq, sath, lisoniy sath, nutqiy sath, til, tilshunoslik, tilshunoslik bo'limlari

O'zlashtiriladigan tushunchalar

leksik-semantik sath, leksikologiya, morfema, leksema

1. Leksika. *Leksika* termini grekcha *lexikos* ("so'zga oid") so'zi hosilasidir. Leksika deganda, tilning barcha so'zlari, lug'at tarkibi nazarda tutiladi. Leksika termini tilning alohida so'zlar qatlamiga ham (maishiy leksika, poetik leksika, ish yuritish leksikasi kabi), bir ijodkor tomonidan qo'llangan barcha so'zlarga nisbatan ham (Navoiy leksikasi, Tog'ay Murod leksikasi) yoki biror asar haqida ham ("So'z haqida so'z") qo'llanilishi mumkin.

Til leksikasi tilshunoslikning leksikologiya, semasiologiya va onomasiologiya sohalari o'rganish manbai hisobalanadi. Leksika bevosita yoki bilvosita borliqni ifodalaydi, jamiyatdag'i o'zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma'naviy olamini aks ettiradi, yangi predmet, hodisa, jarayon va tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlar bilan muttasil to'lib boradi. O'zida eskirish va yangilanishni to'la aks ettiradi. Iste'mol darajasi susaygan birliklar esa leksikadan butunlay chiqib ketmaydi. Moddiy ishlab chiqarishning har xil sohalari muntazam rivojlanib, yangi yo'nalishlar bilan boyib borishi, fan va texnikaning tinimsiz rivoji yangidan-yangi maxsus so'zlar - termin va terminologik qatlamlarni vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Bunda e'tiborlisi shundaki, umumiste'mol so'zlarning ayrimlari terminologik tabiat kasb etsa, ayrim terminlar o'z ifodalaman mishining kundalik turmushda qo'llanish darajasiga bog'liq ravishda umumiste'mol xususiyat kasb etib boradi. Jamiyatda umumiylar ta'limning rivoji ham tilning o'rta saviyali sohiblarida til terminologik tizimining xalqchillashuviga olib keladi.

Til leksikasida jamiyatning ijtimoiy qatlamlanishi (professional, yosh, jins va h.) o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, til leksikasi har xil sotsial dialektlarga

xoslanishi jihatdan tarmoqlanadi: jargon, argo, sleng. Til leksikasining sotsial xoslanishi sotsial dialektologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabilar tomonidan o'r ganiladi. Leksikada til egalarining turli hududiy dialektlarga mansubligi, xususan, hududiy sifatlar o'z ifodasini topadi. Tilning hududiy variativligi dialektologiya tomonidan o'r ganiladi. Dialektal so'zlar umumadabiy leksikani to'ldiruvchi eng muhim ikki vositadan biri sanaladi.

Adabiy nutqda qo'llanilib, hali unga to'liq singmagan, mahalliy kolorit, hududiy bo'yoq yaqqol sezilib turgan sheva so'zlari "dialektizmlar" deyiladi. Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul asarlarida dialektizmlarning yorqin namunalarini ko'ramiz.

Mustaqil o'qish uchun

Ilk qadam

1954- yilda Jorjtaun universiteti (AQSH) olimlari qiziq bir tajriba o'tkazishdi. Ular EHM (elektron hisoblash mashinasi)ga matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish topshirig'ini "o'rgatishdi". To'g'risi, o'shanda mashina matndagi bittagina so'zni tarjima qila oldi. Lekin mashinaning inson tilini "egallashi" sari ilk qadam qo'yilgan edi. bugungi kunda kompyuter tarjimasini "mashinasi tarjimasi" deyilishi bu ishni amalga oshiruvchi texnika dastlab mashina (EHM) bo'lganligi bilan bog'liq.

Leksikaning ochiqligi va dinamikligi unga tarixiylik nuqtai nazaridan munosabatda bo'linganda, yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ayrim so'zlar passivlashib qolgan bo'lsa, ayrimlari til "muzeyi" eksponatlari javonlaridan o'rin olgan. Agar til muzeyi tashkil qilinadigan bo'lsa, undan bugungi kunda unutilib borayotgan ardam, emgak, o'klalmoq kabi so'zlar anglatgan ma'nolari va qo'llanish o'rnlari hamda darajasi bilan o'z aksini topgan bo'lur edi. Bugungi kunda tilimiz leksikasining ko'plab so'z va iboralari o'zining ana shunday virtual yoki moddiy saqlanish usullariga ehtiyoj sezmoqda.

Leksik birliklar to'satdan "g'oyib bo'lmaydi", u avval sezilarli ravishda passivlashadi, keyinchalik arxaizm va istorizmlarga aylanib boradi. Leksikaga yangi kirib kelayotgan so'zlarning tilga singishi ham sekinlik bilan kechadi. Chetdan so'z qabul qilish bu jarayoni o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, kirib kelayotgan so'zlar tilning ichki talablariga javob berishi kerak. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

1) **farqlanish.** Til, avvalo, yozma va og'zaki nutqqa ayricha talablarni qo'yadi. Masalan, *dorixona* so'zi yozma nutqqa, o'zlashma *apteka* esa og'zaki nutq uchun xos. Lekin ikkalasi ham meyoriy hisoblanadi.

2) **qulaylik.** O'zbek tilida *oblast* va *viloyat*, *plan* va *reja*, *programma* va *dastur* so'zlaridan ikkinchilari, qaysi tilga mansubligidan qat'i nazar, talaffuz va imlo jihatidan qo'lay. Shuning uchun til qulay variantni tanlaydi;

3) **zamonaviylik.** Imlo qoidalarida, tilning muosir izohli va imlo lug'atlarida u yaratilayotgan davr ruhi aks etishi katta ahamiyatga ega. Masalan, *bek* so'zini *polkovnik*, *beklarbegi* birikmasini *polkovnik*, *qozi* so'zini *sudya* so'zlari olishi yangi zamon talabidir.

Mantiqiy mushohada uchun

1.Nega yozma nutqda beixtiyor **dorixona, sinov daftarchasi, shifoxona (kasalxona), bekat** so'zlarini yozamiz-u, og'zaki nutqda apteka, zachyotka, **bolnitsa, ostanovka** so'zlarini aytamiz? Sabablari nimada?

2.**Jarohat** va **yara** so'zlari o'zaro sinonimmi yoki uyadoshmi? Lug'atlardan foydalanib javob berish ham mumkin.

Til leksikasida yangi so'zlarning hosil bo'lishi turli yo'llar bilan sodir bo'ladi:

- 1) yangi so'z yasalishi;
- 2) so'zning yangi ma'no kasb etishi;
- 3) bir turkumdan boshqasiga o'tish.

Mazmun plani nuqtai nazaridan til leksikasi farqlanadi:

1) mustaqil so'zlar (atash vazifasini bajaradi) va nomustaqlar so'zlar (bunday vazifaga ega emas);

2) mavhum so'zlar (umumlashma ma'nolarni ifodalaydi) va aniq so'zlar (muayyan tushunchalarini ifodalaydi). Mustaqil va nomustaqlar so'zlar tizimida ham uzluksizlik mavjud. Unga ko'ra, mustaqil so'zlar nomustaqlar so'zlarga aylanadi yoki ularning vazifasini muvaqqat bajaradi;

- 1) sinonimlar (bir tushunchani turli tomondan ifodalaydi);
- 2) antonimlar (zid tushunchalarini ifodalaydi);
- 3) giponimlar (tur-jins tushunchalarini ifodalaydi);

Ifoda plani nuqtai nazaridan omonimlar, omograflar, omofonlar, paronimlar farqlanadi.

Til leksikasida uslubiy xoslanish alohida ahamiyatga ega.

Til leksikasida frazeologimlar alohida o'rin tutadi. Frazeologimlar leksikalizatsiya hodisasining yorqin namunasi. So'z birikmalari ma'nolari ixtisoslashib, bir so'z ma'nosiga teng ma'no ifodalashga o'tadi. Iboralar shaklan so'z birikmasiga o'xshaydi, lekin til leksikasiga mansub bo'ladi.

Leksikani qayd etuvchi soha leksikografiya bo'lib, uning nazariy va amaliy, an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlari mavjud.

2. Leksik-semantik sath va uning birligi haqida. Lisonning shakl va denonativ ma'no yaxlitligidan iborat birligini qamrab oluvchi sathi turlichay nomlanadi: leksik sath, leksik-semantik sath, leksik-frazeologik sath va h.

Leksik sath birligi tilshunoslikda *leksema* deyiladi. Leksema – tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri. Biroq uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan emas. Masalan, o'zbek tilshunosligida *leksema* va so'z atamasining hozirgacha yonma-yon qo'llanayotganligi, leksemani morfemaning bir ko'rinishi sifatida qarash kabilar shular jumlasidan. Ulardan biri, ya'ni leksemaning lisoniy birlik bo'la olish-olmasligi masalasini olaylik. Ko'p tilshunoslar lisoniy birliklarni sanashganda, fonema, morfema va qolip bilan cheklanib, leksemani tilning

alohida qurilish birligi sifatida tan olishmaydi va uni morfemaning bir ko'rinishi sifatida qarashadi. "**Leksemamorfemaning** jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatni shakllantiruvchi, nutqda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan **bir turi**" degan ta'rif ham bor (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.)

Leksemani morfema orqali ta'riflash va uni morfemaning bir turi sifatida qarash, mantiqan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rni yo'q deyishning o'zi. Lekin har bir tilning izohli va tarjima lug'atlari mavjudligining o'zi leksik sathning mustaqilligi va alohidaligini ko'rsatib turadi. Ammo yuqorida fikrlar ham asossiz emas.

Tilshunoslar Arastu davridan hozirgacha leksema, so'z ustida bosh qotirib kelishmoqda va bugungi kunda unga yuzlab ta'riflar berilgan. Hatto ayrim olimlar tomonidan o'zbek tilshunosligi jahon tilshunosligida hal etilgan kesim tushunchasini qaytadan ishlab chiqish zarurati yo'qligi, faqat uning o'zbek tilida qanday voqelanishini ochish lozimligi haqidagi fikrlar ilgari surilganligi kabi leksemaga ham shunday qarashlar kuzatiladi. Biroq bugungi kunda "o'zbekcha kesim" tushunchasi "oqlandi" va o'z ilmiy talqinini topdi. Demak, bundan metodologik omil sifatida foydalanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tatbiq qilish lozim. Bu bevosita o'zbekcha leksema tushunchasini yaratish, bunda o'zbek tilining ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjudligi bilan bog'liq.

Agglyutinativ tillar, jumladan, o'zbek tilidagi va flektiv tillar, xususan, rus va arab tillaridagi o'zaklar keskin farqlanadi. Rus va arab tillaridagi o'zaklarni lug'atda qo'shimchadan xoli berib bo'lmaydi, shu jihat bilan ular morfemaga o'xshaydi. O'zbek tilida esa bunday emas. Dalil uchun ruscha [ч], [пись], arabcha [qr'], [ktb] va o'zbekcha [o'qi], [yoz] o'zaklarini qo'llanish va ma'no anglatish xususiyatiga ko'ra qiyoslash yetarli. Mustaqil va alohida ajratilgan holatda [ч] ning o'zak ekanligini mutlaqo anglab bo'lmaydi (*читат*, *учеба*, *учение*), biroq mulohaza yuritish natijasidagina [пис] ning *нишь*, *письмо* so'zları bilan aloqadorligi seziladi. Arabcha [ktb], [qr'] o'zaklari haqida esa bir qarashda ularning o'qish va u bilan aloqador til unsurlari ekanligi, biroq lug'atdamustaqlil qo'llana olmasligi xususiyatlarini aytish mumkin. O'zbekcha [o'qi] va [yoz] o'zaklarini sharhlashda bu til egasi qiyinchilik sezmaydi.

Ko'rindaniki, o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turini – leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli asos mavjud. O'zbek tilida leksema va morfema boshqa-boshqa hodisa. Rus va arab tillarida leksema – morfemaning bir turi. Demak, turkiy tillarda leksemani morfemaning bir turi sifatida emas, balki lisoniy sathning morfemadan yuqoriqda turgan va til egasi ongida borliqdagi ma'lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida lisoniy birliklar fonema, morfema, leksema, qolipdir. Flektiv tillarda esa lisoniy birliklar – fonema, morfema, leksema va qolipdir.

Shunday qilib, "o'zbekcha leksema" o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlikdir.

Albatta, ayrim til hodisalari leksema va morfema oralig'ida turganligi uchun bu ta'rifga sig'masligi mumkin. Bunday oraliqhodisalar tilda ko'p uchraydi. Bu til sistemasining uzluksizligi va uzviyligini ta'minlaydi.

3. Leksikologiya va uning turlari. Leksikologiya (ot. grek. *lexikos* – so'zga oid va *logos* – ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Leksema va so'z serqirra bo'lganligi bois leksikologiyaning ham turlari juda ko'p.

		Mustaqil o'qish uchun
Leksema o'rganish obekti va uning qirrasi o'rganish predmeti sifatida		
O'rganish predmeti	Tilshunoslikning qaysi bo'limi, yo'nalishlarida o'rganiladi	
Leksemaning kelib chiqishi va rivojlanishi	Diaxronik leksika	
Leksemaning tilning muayyan davrdagi xususiyati	Sinxronik leksika	
Leksemaning boshqa leksemalar bilan paradigmatic munosabatlari	Struktural leksika	
Leksemaning tabiatdagi ifodalovchilari bilan aloqalari	Naturalistik leksika	
Ma'lumbirtildagileksemaniqarindoshbo'lImaganbos hqatildagiLeksemabilanqiyoslash	Tipologik leksika	
Bir tildagi Leksemani shu til bilan qarindosh bo'lgan boshqa til materiallari bilan qiyoslash	Qiyosiy leksika	
Leksemaning inson ruhiyatiga ta'siri, uni qabul qilish va hosil qilish xususiyatlari	Psixolingvistik leksika	
Leksemaning jamiyatga ta'siri, nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari, ularning ijtimoiy ahamiyati	Sotsiolingvistik leksika	
Leksemaning bir til hududida tarqalish xususiyatlari	Areal leksika	
Leksemaning leksikografik talqini	Leksikografiya	
Leksemaning xususiyatlari juda ko'p bo'lib, uni o'rganuvchi leksikologiya turlarini ko'plab keltirish mumkin.		

Struktur yondashuvda so'z leksikologik nazariyasining asosiy vazifasi, uning alohidaligi va o'ziga xosligi mezonini tiklashdir. Birinchi holatda so'z so'z birikmasi bilan qiyoslanib, uning tugal shakllanganlik va alohidalik belgilari ochiladi. So'zning nutqdagi analitik shaklining lisoniy asosi yoritiladi. Ikkinci holatda so'zning turli grammatik shaklidan hosil qilingan lisoniy invariantini tiklash xususida so'z boradi. Shu munosabat bilan grammatik shakl olgan leksema – so'zshakl tushunchasi muayyanlashtiriladi. Shuningdek,

leksemaning turli nutqiy – fonetik, morfologik, leksik-semantik variantlari o'r ganiladi.

Lug'aviy birlikning semantik tahlilida, ular (lug'aviy birliklar) leksik semantika – semasiologiya tadqiq manbaiga aylanadi. Bunda so'zning tushuncha (signifikat) va borliqdagi atalmish (denotat)ga munosabati o'r ganiladi. Semasiologiyada so'zning semantik xususiyati – bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, umumiyligi va xususiy, mavhum va muayyan, bosh va hosila, to'g'ri va ko'chma ma'nolari tekshiriladi. Bunda asosiy e'tibor so'zning semantik strukturasiga, so'z ma'nolari tipi va ularni ajratish mezoniga, so'z ma'nolarining o'zgarishi va taraqqiyoti, so'zning ma'nosini yo'qotishi va grammatik formantga aylanishi – desemantizatsiya hodisasiga qaratiladi.

Funksional yondashuvda so'zning nutqda voqelanish jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sath birliklari voqelanishiga, ular umumiyligi ma'nolarining parchalanishiga qo'shgan «hissasi» tekshiriladi. Masalan, *odamcha* so'zida *odam* leksemasi -*cha* morfemasining «kichraytirish-kamsitish» ma'nosini *qizcha* so'zidagi «kichraytirish-erkalash» ma'nosidan farqlagan, morfologik sath birligi bo'lgan -*cha* morfemasining «kichraytirish» umumiyligi ma'nosini parchalab, uning birini ikkinchisidan ajratgan.

Leksikologiya leksikaga til sistemasidagi ichki sistema sifatida qaraydi. Shuningdek, o'zaro ma'noviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birlik yanada kichik, ichki sistemacha sifatida qaraladi. Shu asosda katta va kichik, ichki sistemalarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabati ochiladi. Masalan, *olma*, *o'rik*, *nok* kabi ho'l meva nomi bir sistemani tashkil etadi. Sabzavot nomi boshqa bir sistemani tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi – kichik sistemachalardan tashkil topgan «meva-sabzavot nomi» sistemasini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab davom etaveradi.

Leksik aljabr:

[ko'lam] – [katta] = [...] - [gulobi]

[yuz] – [bashara] = [...] – [josus]

[afzal] – [abzal] = [...] – [tom]

[bosh] – oyoq = [...] – [tub]

Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'ying.

Tilning lug'aviy tarkibi bir xil emas. So'zlar turli asosga ko'ra ko'plab turlarga ajratiladi. Masalan, qo'llanish darajasiga ko'ra umumiyligi iste'mol va chegaralangan (yoki xususiy) leksika, qo'llanish davriga ko'ra eskirgan so'z, zamonaviy so'z va neologizm, qo'llanish doirasiga ko'ra dialektizm, professionalizm, jargon kabi turlarga bo'linadi.

Leksikologiya til lug'at tarkibining boyishini o'rganganda uning 3 tipini ajratadi. Bularidan 2 tasi (yangi so'z yasash, so'zni yangi ma'noda qo'llash) ichki boyish imkoniyati bo'lsa, bittasi tashqi (so'z o'zlashtirish) imkoniyatdir.

Lug’aviy birlikning borliqqa munosabatini o’rganish – leksikologiyaning muhim aspektidan biri. Bunda ularning kishi hayotiga, amal qilayotgan davrga munosabati ochiladi. Masalan, yaqin o’tmishda *savdogar* so’zida salbiy ottenka bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda ijobiy bo’yoqli so’z sifatida keng iste’molda.

Amaliy leksikologiya leksikografiya (lug’atchilik), tarjima, lingvopoetika va nutq madaniyatini o’z ichiga oladi. Ularning har biri leksikologik nazariyani boyitadi. Masalan, tarjima qiyosiy leksikologiya uchun qimmatli materiallar beradi.

Nazariy leksikologiya leksikada lisoniy va nutqiy jihatlarni farqlab, ularning sistemasiy munosabatlarini tadqiq qiladi.

Leksikologiya o’z o’rganish predmeti tadqiqida umumlingvistik tadqiq usul – distributiv (so’zning chegarasini belgilash, morfologik strukturasini aniqlash), substitutsiya (so’zlar ma’noviy xususiyatlarini tahlil etish), komponent tahlil (leksema va so’zlar ma’noviy tarkibini aniqlash), transformatsion va statistik metodlaridan foydalanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Leksikologiya so’ziga izoh bering.
2. Leksikologiya tilshunoslikning qanday bo’limi hisoblanadi?
3. Leksikologiya fanining o’rganish manbai va predmeti haqida gapiring.
4. Leksik sathning asosiy birligi nima?
5. So’zlar lisoniy birlik sifatida qanday yo’nalishlarda o’rganiladi?
6. So’zga struktur jihatdan yondashuvda nimalarga e’tibor beriladi?
- Semantik va funksional jihatlardan yondashuvlarda-chi?
7. Leksikologiyaning umumiylari va xususiy turlarining o’ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
8. Leksikologiyaning turlarini sanab bering.
9. Sistem yondashuvda leksik sath birligi nima?

Test

1.O’qi leksemasining grammatik shakli A) buyruq mayli B) aniq nisbat C) birlik, ikkinchi shaxs D) grammatik shaklsiz

2.Leksema va qo’shimchani farqlovchi belgi: A) mustaqil shakl/nomustaqil shakl B) paradigma tashkil etish/etmaslik C) barqarorlik/beqarorlik D) miqdoran cheksizlik/cheklanganlik

3. *Yoz* (*qalamda yozmoq*), *yoz* (*dasturxonni yozmoq*), *yoz* (*yoz fasli*). Uchala o’rinda qo’llangan *yoz* leksemasining xususiyati to’g’ri izohlangan qatorni toping. A) bir xil shaklga ega bo’lgan yagona leksema B) bir xil shaklga ega bo’lgan uchta leksemaning ko’rinishi C) bir shaklga ega bo’lgan ko’p ma’noli leksema D) birgina leksemaning uch o’rinda qo’llanishi.

4.Ushbu gapda nechta leksema mavjud? *Men maktabda uch yildan beri o’qiyman.* A) 6 B) leksema mavjud emas C) 5 D)

Glossariy

leksik-semantik sath – denotativ ma'noli lisoniy birliklarni o'z ichiga oluvchi sath

leksikologiya – tilshunoslikning denotativ ma'noli lisoniy birliklarni o'r ganuvchi bo'limi

morfema – o'zbek tilida leksemalarni hosil qiluvchi va grammatik jihatdan shakllantiruvchi mustaqil holda ma'no anglatmaydigan, denotativ mohiyatsiz lisoniy birlik

leksema - tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

4.LEKSEMA VA SO'Z

Kalit tushunchalar

leksik-semantik sath, leksikologiya, morfema, leksema

O'zlashtiriladigan tushunchalar

leksema, so'z

Leksema talqiniga doir. Leksema (gr. Lexis – so'z, ifoda) terminini qo'llash 1918- yilda rus tilshunosi A.M.Peshkovskiy tomonidan taklif etilgan. Ilk marta N.N.Durnovoning “Grammatik lug'at”iga kiritilgan. Leksema termini so'zlarni grammatik xususiyatlardan xoli idrok etish uchun tanlangan. Shu boisdan kitob, kitobni, kitobga birliklari grammatik shakllangan uchta so'z, lekin ular zamirida bitta leksema yotadi. Tilshunoslikda bu talqinga V.V.Vinogradov, A.I.Smirnitskiy, A.A.Zaliznyak katta hissa qo'shishgan. Amerika tilshunosligida Bu terminni 1938- yilda B.Uorf, 1963- yilda J.Layonz tomonidan qo'llangan. Ular tomonidan leksema terminini qo'llashda so'zlarning lison va nutqdagi o'rniغا e'tibor qaratilmaydi. Masalan, U.Vaynrayx (1966) lug'atda qamrab olinuvchi har qanday ifodani, hatto idiomalarni ham leksema sifatida qaraydi. Fransuz tilshunosligida leksemani mustaqil ma'no ifodalovchilar sifatida olib, morfemaga qarama-qarshi mohiyatli birlik sifatida tushunish ham mavjud (A.Martine, 1963). O'zbek tilshunosligida lison va nutqning izchil farqlanishi natijasida leksemaga mustaqil leksik ma'no, qisman faqat grammatik ma'no (masalan, yordamchi so'zlar) anglatishi mumkin bo'lgan til hodisasi sifatida qarash ommalashgan.

Mustaqil o'qish uchun

Ma'no nozik masala

Bir qarashda til birliklarining ma'nosi oddiyga o'xshaydi. Biroq har bir sathda o'z birliklarining ma'no sirlari bor.

Leksikada

so'zlar birlik va ko'plikda bo'ladi deymiz: *oyoq, uy, stul* birlikda; *qo'llar, toshlar* ko'plikda; *xalq, millat* – jamlovchi ot. Lekin nega oyoq bitta predmetni anglatsa, *Tovuq bir oyoqda turibdi* deymiz? Demak, *oyoq* so'zida birlik ma'nosi ikki marta ifodalangan ekan-da! *Uy toshdan qurilgan* (bitta toshdanmi?)

Morfologiyada

Yoki *chaqaloqcha* so'zini olaylik. *Chaqaloq* aslida “kichkina” ma'nosiga ega. Lekin unga kichraytirish-erkalash qo'imchasini qo'shamiz. *Teshik* so'zida ham “kichik” degan ma'no bor. Amмо *juda katta teshik* degan birikmani qo'llaymiz.

Sintaksisda

Sintaksisda ham bunday qiziq ma'nolarni ko'rish mumkin. Masalan, Salim uyga bordi gapida bordi bir martalik harakatni ifodalagan. Lekin uni ikki marta qo'llasak-chi: Salim uyga bordi, bordi. Bordi so'zi ikki marta qo'llanganda, ikki marta takrorlangan harakatni emas, ko'p, tinimsiz harakatni ifodalaydi.

Lug'atlarda

SICHQON Yer yuzida keng tarqalgan, xavfli kasalliklar tarqatadigan kichik kemiruvchi sut emizuvchi hayvon. Rangi haqida so'z yo'q, odatda, kulrang emasmi? Qani mushuk bilan aloqasi? Qorong'ilikda “tiqir-tiqir” harakat qilishi-chi? Qolaversa,sichqon so'zining kompyuterning elementiga nisbatan qo'llanishi-chi?

Ko'p ma'noli so'z qancha ma'nogo ega bo'lmasin, u bir so'z deymiz-u, lug'atlarda uni bir ma'nosi bilan ot turkumiga, boshqa ma'nosi bilan sifat deymiz:

KASAL 1 ot Organizm me'yoriy holatini, faoliyatini buzuvchi narsa; kasallik, dard. 2 sft. Organizmining me'yoriy holati, faoliyatni buzilgan, kasallikka yo'liqqa; betob.

Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylilik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyorilik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri – uning nutqda namoyon bo'lishi uchun tayyor bo'lishi, so'zlovchi uni nutqda faqat ishga solishi.

Ko'rindiki, leksema ma'lum bir tilida so'zlashuvchilar ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik *stol, ona, ruchka, bormoq, qizil, o'n* leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor bo'lib, so'zlovchining "buyrug'i"ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida "meros qilib qoldirilgan". So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiyligini qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashi mumkin, xolos. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylilik va barqarorlik xossasiga ega bo'la olmaydi. Masalan, so'zlovchi *haykal* leksemasini "asar" ma'nosida qo'llashi mumkin: *Mening haykalim bitdi* kabi. Ammo mazkur shaklga "asar" ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish o'tkinchi bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta olmaydi. Demak, so'zlovchi leksemaning na shakliy tomonini, na mazmuniy tomonini o'zgartira oladi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'llanilishi. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasiinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, *Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman* gapidagi *kitoblarni* so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun *kitob* leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilalar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. *kitob* leksemasi ongimizda "varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lмаган о'кув quroli" va "yirik hajmli asarning qismi" kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda)

uning bir ma'nosi yuzaga chiqqan. Ushbu leksemaning ongimizda birikuv imkoniyatlari juda kengdir. Bu gapda esa u *qiziq, sarguzasht* so'zlarinigina biriktirgan. Boshqa biriktirish o'rirlari bo'sh qolgan. Shuningdek, ma'nodagi "bosma"qismisigina yuzaga chiqqan bo'lib, "qo'lyozma holdagi"qismi voqelanmagan. Leksemaning semantik imkoniyatida kitobning qandayligi, masalan, badiyiligi yoki ilmiyiligi belgilanmaydi. Lekin u badiiy yoki ilmiy bo'lishi mumkin. So'zlovchi esa yuqoridagi so'zda uning badiyilagini bo'rttirgan.

Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning ma'lum bir qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z so'zlovchi tomonidan boshqa jihatdan boyitiladi. Ya'ni aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomonidan "to'yintiriladi".

Mantiqiy mushohada uchun

- 1) *Jo'shqin Behzodga qaraganda aqli;*
- 2) *Jo'shqin Behzoddan ancha-muncha aqli;*
- 3) *Jo'shqin Behzoddan ham aqli;*
- 4) *Jo'shqin Behzoddan sezilarli darajada aqli;*
- 5) *Jo'shqin Behzoddan aqliroq;*
- 6) *Jo'shqin Behzodga nisbatan aqli;*
- 7) *Jo'shqin Behzoddan xiyla aqli.*

Umuman Jo'shqin aqlimi? Qaysi gapdan buni bilsa bo'ladi?

Leksema so'zshakl, yasama so'z sifatida nutqda yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllantirish uni so'zshakl qiyofasiga kiritish (*so'z* va *so'zshakl* sinonim atama, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'zshaklga aylanmagan so'z yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama so'zlar hosil qilish so'zlovchining "so'z tayyorlashi"dir.

Ma'lumki, yasama so'zning ayrimlari nutq jarayonida yasaladi, ayrimlari esa bir vaqtlar yasalgan, bugungi kunda hammamiz uchun tayyor holga kelib, tub leksema qatoriga chiqib olgan. Quyidagi uchta birlikni qiyoslang:

kitob

kitobxon

kitobchi

Bu birlikdan ikkitasi *-kitob* va *kitobxon* ongimizda tayyor. *Kitobxon* leksemasi aslida yasama, ammo bugungi kunda u ongimizda leksema holida mavjud. Qatordagi *kitobchi* so'zi qandaydir g'ayrioddiylikka ega. Chunki u nutqiy yasama so'z bo'lib, leksema sirasiga o'tmagan. *Kitobchiso'zi* ham, *ishchi*("worker", "рабочий") so'zi ham aslida **[ot + chi = ot anglatmishi bilan shug'ullanuvchi shaxs ot]** qolipi hosilasi. Ammo *ishchi* leksemasi bu qolipdan uzoqlashib, undagi o'zak va qo'shimcha yaxlit holga kelgan, ya'ni bu leksema hozir yuz berayotgan nutqiy jarayonda yasalmagan. *Kitobchi* so'zi esa mazkur qolip asosidagi, undan nutq jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosila.

Demak, ayrim yasama so'zlar qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan qolipdan uzoqlashib, leksemalashadi – tayyor holga kelib qoladi.

Mustaqil o'qish uchun

***Ma'naviyat* leksemasi etimologiyasiga doir**

Olimlar **ma'naviyat** so'zi (o'zagi ma'na) sanskrit tilidagi "ma'nas" atamasi asosida vujudga kelganligini faraz qilishmoqda.

Talqinlarga ko'ra, hindlarning ilk falsafiy fikrlari yozilgan vedalar yunon va arab falsafasidan ancha avval shakllangan. Ularning ba'zi tushunchalari Sharq xalqlari tomonidan o'zlashtirilgan. Yaqin Sharqdagi ayrim qadimiylar falsafiy tushunchalar esa hindlar tomonidan qabul qilingan. Buhozirgi Hindiston, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak madaniyatidaham ko'zga tashlanadi.

Javoharla'l Neru "Jahon tarixiga nazar" kitobida yozoshicha, ayrim sohalar – tibbiyot va riyoziyot kabilarda arablar ko'p narsani Hindistondan o'rgandilar. Bog'dodga bu zamindan ko'plab riyoziyotchi olimlar kelishardi. Arab talabalari esa Shimoliy Hindistondagi tibbiyotga ixtisoslashgan, o'zining buyukligini saqlab qolgan Takshashila dorilfununiga borar edilar. Tibbiyot va boshqa sohalar bo'yicha kitoblar sanskritdan arab tiliga tarjima qilinar edi.

Ma'nas sanskrit tilida "aql" degan ma'noni bildirgan. Qadimgi hind falsafasining asosiy tushunchalaridan biri sifatida u ong ko'rinishlari – aql, fahm-farosat, hissiyot, tuyg'u, sezgi, iroda kabilarning manbai. Ma'nas tanaga xos-u bilan paydo bo'ladi va birga o'ladi. Vedalarda uning qalbda joylashganligi aytilgan. Jaloliddin Rumiy ijodida ham *ma'nas* so'zi yuqoridagilarga mos ma'no-mohiyatga ega. "Farhangi zaboni tojik"da ma'nas "mahalli unsu ulfat", ya'ni "do'st va ulfatlar makoni" deb izohlanganligi ham mazkur fikrlarning isboti bo'la oladi.

A.Erkayev. "Tafakkur erkinligi". – Toshkent: Ma'naviyat, 2007

Leksemaning ongda paradigmatic va sintagmatik munosabat asosida yashashi. Leksema til jamiyati a'zolari ongida boshqa leksema bilan o'xshashlik qatori (paradigmalar) hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Masalan, *o'g'il* leksemasi bir tomonidan *ota*, *ona* leksemalari bilan, ikkinchi tomonidan *qiz* leksemasi bilan paragma hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a'zoning mohiyati unga paradigmadosh boshqa a'zoning mohiyatiga qiyosan olinadi, unga munosabatda bo'ladi. Masalan, *aka* leksemasi *uka*, *singil*, *opa* leksemalari bilan paragma hosil qilar ekan, bunda ularning umumiy belgisi bu leksemalarni bir paradigmaga solsa, farqli belgilari mustaqilliklarini ta'minlaydi. Lisoniy birliklar orasidagi bunday bir-biriga ishora qilib, eslatib turuvchi belgililar, munosabatlar assotsiativ munosabat ham deyiladi. *aka* leksemasining mohiyati *uka* leksemasining mohiyatiga qiyosan belgilanadi. Qiyos esa eslatish, eslash, yonma-yon qo'yish munosabatidir.

Leksemalar mohiyatida sintagmatik munosabat ham mujassam. Masalan, *daftar* leksemasi nutqda *yirtmoq*, *yozmoq* leksemalari bilan bir tomondan, morfologik shakl va so'z yasovchi qo'shimcha bilan ikkinchi tomonidan birikuv hosil qiladi. Bu voqelanish leksemada imkoniyat sifatida mavjud. Aytilgan birlik bilan yuz bergen aloqa leksema mohiyatida imkoniyat sifatida yashirin.

So'zlovchi nutq jarayonida zarur bo'lgan birlikni o'xshash va farqli belgilari asosida paradigmadan tanlab, sintagmatik imkoniyati doirasida nutqda turli-tuman kombinatsiya hosil qiladi. Nutqda leksemaning mohiyati hech qachon to'la-to'kis voqelanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatning

ham faqat zaruri voqelikka aylanadi. Zero, dialektika uqtirganidek, mohiyat bir hodisada bus-butun yuzaga chiqmaydi, imkoniyat to’la voqelanmaydi. Nutqiy voqelanish uning bir zarrasi, xolos.

Leksema so’zdan boyroq va kengroq. Biroq so’z nutqda turli «begona» – bevosita leksemaga aloqador bo’lgan lisoniy va aloqador bo’lmagan kontekstual hodisalar bilan «boyitilgan», nutqda voqelanish uchun shakllantirilgan bo’ladi. Leksemaning «boy»ligi «o’ziniki»dir. So’z esa, aytilganidek, o’z asosidagi leksemaga tegishli bo’lmagan boshqa nolug’aviy omillar – fonetik, morfologik, sintaktik uslubiy mohiyatlar hamda nolisoniy hodisa zarralarini biriktirib, o’ziga tegishli bo’lmagan hodisalar hisobiga «boyiydi».

Mantiqiy mushohada uchun

Birlashtiruvchi belgisini toping:

1)kitob, ma’rifat, vatan...

2)suv, tog’, ish, qara...

Qatorni davom ettiring va tushuntiring.

Aytilganlar asosida leksema va so’zga shunday ta’rif berish mumkin. Leksema – ma’lum bir til jamiyatni a’zolari ongida tayyor, umumiyligi va majburiy, shakl va ma’no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat, narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so’zlarni va grammatik qo’shimchalarni biriktiradigan lisoniy birlik. Leksema va so’z yasash qoliqlarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma’noga ega bo’lgan muayyan ko’rinishi – so’z.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Leksema talqinlari haqida gapiring.
- 2.O’zbek tilidagi leksemalar morfemalardan qanday farqlanadi?
- 3.Yordamchi leksemalar nega leksema?
- 4.Leksemaning tayyorligi deganda nimani tushunasiz?
- 5.Tilda yasama leksema ham mavjud. Ushbu hukm to’g’rimi?
- 6.Denotativ ma’no deganda nimani tushunasiz?

Test

1. Tilda bir ma’noni ifodalash uchun qo’llanuvchi bir nechta leksema qanday nomlanadi? A) ko’p ma’noli leksemalar B) omonimlar C) sinonimlar D) antonimlar.
2. Qaysi leksemalar leksik (lug’aviy) ma’noga ega? A) mustaqil leksemalar B) yordamchi leksemalar C) undov va taqlidlar D) mustaqil, undov va taqlidlar.

3.So'z boyligi, asosiy lug'at tarkibi, ularning ma'no turlari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rganuvchi bo'lim tilshunoslikning qaysi bo'limi? A) Leksikografiya B) Orfografiya C) Orfoepiya D) Leksikologiya.

4. Semasiologiyaning o'rganish obyekti nima? A) So'zning semantik taraqqiyoti B) So'zdagi tovush o'zgarishlari C) Til birliklarining o'zaro ma'noviy xossalari D) So'zning ma'no xussusiyatlari

5. So'zning obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi dastlabki ma'nosiga nima deyiladi? A) ko'chma ma'no B) grammatik ma'no C) qo'shma ma'no D) leksik ma'no

Glossariy

leksema – ma'lum bir til jamiyati a'zolari ongida tayyor, umumiyligi va majburiyi, shakl va ma'no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat, narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so'zlarni va grammatik morfemalarni biriktiradigan lisoniy birlik.

so'z- leksemaning hamda so'z yasash qoliplarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma'noga ega bo'lgan muayyan ko'rinishi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

11- ma'ruza

YASAMA SO'ZLARNING LEKSEMALASHUVI

Reja:

1. Nutqiy yasama so'zlarning lisoniylashuvi.
2. Ixtisoslashgan leksemalar.
3. Soddalashgan leksema.
4. Tublashgan leksema.

Kalit tushunchalar

lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, leksema, so'z, qolip, hosila

O'zlashtiriladigan tushunchalar

lisoniylashuv, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish

1. Nutqiy yasama so'zlarning lisoniylashuvi. Lisoniy birliklar, qanday bo'lismidan qat'i nazar, nutqiy birliklar asosida shakllanadi. Shuningdek, tilshunoslarning lisoniy birliklarni ajratishi, tavsiflashi ham nutqiy birliklarga asoslangan holda kechadi. Masalan, [a] unli fonemasining mohiyati sifatida qaraluvchi "lablangan", "quyi keng" belgilari nutqdagi (a) tovushlarini kuzatish, ulardagi har bir qo'llanishda takrorlanadigan bir xil belgilar ajratib olinib, nutqdagi boshqa hodisalar – tovushlar, qo'shimchalar, so'zlar ta'sirida hosil bo'ladigan, lekin doimiy bo'lмаган, sharoit bilangina bog'liq xususiyatlar e'tiborga olinmaydi. Masalan, tovushning cho'ziq/qisqaligi, qattiq/yumshoqligi, yo'g'on/ingichkaligi, baland/pastligi kabi qator belgilar nutq sharoiti bilan bog'liq o'tkinchi xususiyatlardir. Ana shunday beqaror va o'zgaruvchan jihatlar lisoniy birliklardagi umumiylklarni tiklashda soqit qilinadi. Shu tarzda lisoniy birlik tiklanadi. Barcha lisoniy birliklar mohiyatini ochish jarayoni shunday kechadi.

Til taraqqiyoti davomida ming yillar davomida ham yangi fonema, morfema yoki qolip hosil bo'lmaydi. Lekin tilning eng o'zgaruvchan, borliq bilan eng zinch bog'langan leksika sathida yangi so'zlar paydo bo'lib, lisoniy sathdan peshma-pesh o'rinn olib boraveradi. Masalan, boshqa tildan o'zlashayotgan so'zlar qo'llanish darajasi ma'lum meyorga yetgach, lisoniylashadi. Mukammal lug'atlar til lisoniy leksikasini o'zida aks ettiruvchi xazinadir.

Mustaqil o'qish uchun

Lisoniy strukturaning mukammal talqini

Sharq (jumladan, arab / islom) lingvistik an'anasi va ilk taraqqiyot bosqichlarida deskriptiv lingvistika (Amerika strukturalizmi) dan mantiqiy va lingvistik hodisalarini farqlashda izchilllik ancha kuchli edi – mantiq – hodisaning mazmun tomoniga, grammatika esa – asosan, shakl tomoniga tayanib ish ko'rardi. Masalan, o'rta asr arab va qadimgi hind lingvistik an'anasiga tayanib tuzilgan tavsiflar, odatda, hajman kichik va ixcham bo'lib, asosan, shakllar paradigma (arablarda ixcham jadvallardan, hindlarda "sutr" – nazmga solingan qoida) laridan iborat edi.

Bunday jadvallarda butun til nozikliklarini, qoida va mustasnolarni berishda qadimgi hindlar ham, o'rta asr islom tilshunoslari ham shu darajada mahorat kasb etishgan edilarki, eramizdan oldingi davrlarda Panini tomonidan tuzilgan va hozirgi o'lchovlarda varaq sathi 1/8 (0.25 foliant), soni 100 sahifa atrofida bo'lgan "Sanskrit grammatikasi" Frans Bopp e'tirofiga ko'ra, "u (Bopp) ning grammatikasidan mukammalroq va tugalroq bo'lgan." Vaholanki, F.Boppning "Sanskrit tili grammatikasi" foliantlardan iborat har biri kamida 200 betli besh jilddan iborat edi. Shuning uchun XIX asrda O'rxun yozuvi sirini (deshifrovka qilib) ochgan, turk runik alifbosining birinchi ko'rinishi kaliti va sharhini tayyorlagan daniyalik tilshunos Vilhelm Tomsen (1842-1927) "Tilshunoslik tarixi" kitobida Panini grammatikasi haqida shunday yozadi: "Hozirgi lotin harflari bilan berilganda 75-100 betlik risola hajmida bo'ladigan Panininining asari shu kungacha jonli va o'lik tillar tafsifi bo'yicha yaratilgan grammatikalar ichida eng mufassali va to'lig'idir." Albatta, daniyalik buyuk tilshunosning bahosi mubolag'ali, lekin, bejiz va asossiz ham emas.

Arab lingvistik tafsiflari mukammalligining yorqin belgisi shuki, XX asrda Yevropada yaratilgan arab tili grammatikalari (jumladan, Karl Brokkelman va N.V.Yushmanov asarlari) da o'rta asrlarda tuzilgan shunday jadvallardan keng foydlaniladi.

Arab va hind tilshunosliklarining yutuqlari va hozirgi grammatik talqinlarning munozaraliligi, xususan bunda – arab va hindlarda tasnif va tahlil asosining bittaligi (faqat shaklga tayanishi) va hozirgi grammatik talqinlarda uning ikkitaligi (shakl va mazmunga tayanishi) da bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda goh mazmun (vazifa), goh shakl omilini birinchi o'ringa qo'yuvchi yo'nalish va oqimlar shakllanib va rivojlanib turadi.

H.Ne'matov, B.Mengliyev. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. – Toshkent, 2017.

Til leksikasining boyishida so'z o'zlashtirish, yangi so'z yasash alohida rol o'ynaydi. Biz nutqda ayrim so'z yasash qoliplari asosida ko'plab so'zlar yasaymiz. Masalan, *gulchi*, *gulli*, *gulla* kabi so'zlardagi yasovchi -chi, -li, -la qo'shimchalar eng unumli, eng sermahsul so'z yasovchi qo'shimchalardandir. Ammo ular hosil qilgan so'zlarning hammmasi ham lug'atlardan o'rin olmagan. Masalan, *qalamli*, *qog'ozchi* kabi so'zlar lisoniylashmagan, ya'ni lisoniy sathdan o'rin olmagan. Chunki nutqiy hodisalarning lisoniy sathdan o'rin olishi ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunadi, bu hodisalar lisoniy sath qo'yadigan talablarga javob bergandagina bu xazinadan joy olish huquqiga ega bo'ladi.

Demak, yasama so'zlar lisoniy ham, sof nutqiy ham bo'lishi mumkin. *Paxtakor*, *ishchi*, *kitobchi*, *aqli*, *daftarchi*, *sharsimon*, *uysimon* so'zlarini olaylik. Bu so'zlarni ikki guruhga ajratamiz:

- 1) *paxtakor*, *ishchi*, *aqli*, *sharsimon*;
- 2) *kitobchi*, *daftarchi*, *uysimon*.

Har ikkala guruh so'zlari ham yasama so'z hisoblanadi. Biroq birinchi guruh so'zlari qulay, odatlanilgan, keng iste'molli bo'lsa, ikkinchi guruh unchalik qulay emasligi, kam iste'molliligi, favquloddaligi bilan ajralib turadi.

Ko'rindiki, birinchi guruh ijtimoiylashganlik xossaliga ega va shu boisdan yuqorida aytilgan belgilar ularning barchasi uchun umumiy. Ikkinchi guruh birliklari esa nutqiy hodisa ekanligi, endigina so'z yasash qolipidan chiqqanligi bois, odatlanilmaganlik, favquloddalik kasb etgan.

Nutqiy yasama so'zning ayrimi nutqdagini mavjud bo'lsa, ba'zilari o'zini chiqargan qolipdan uzoqlashib, bir butun holda lisoniy sathga "ko'tarilib ketgan" bo'ladi.

So'z yasash qolipi ham hosilasining lison va nutqqa munosabati jihatidan farqlanadi. Ularni unumsiz (tarixiy) va unumli (zamonaviy) so'z yasash qolipi sifatida farqlash lozim.

Mantiqiy mushohada uchun

Ortiqcha to'rtinchisinitoping:

- 1) **ishla, qishla, tashla, boshla;**
- 2) **qaroq, taroq, o'roq, so'roq.**

Nutqiy yasama so'zning lisoniy sathga ko'tarilishi bir necha bosqichda kechadi. Uni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga ko'ra quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) ixtisoslashgan leksema;
- 2) soddalashgan leksema;
- 3) tublashgan leksema.

Mustaqil o'qish uchun

SILDIROP		
Sildirop atalmish bitta qishloqda Uch olim zo'r suhbat qilishar edi. Har biri xalqlarning kechmishini va Juda ko'p tillarin bilishar edi.	Ikkkinchi tilshunos iqtibos bilan Fikrlarin isbot qilmoqqa tushdi. Xullas, bu olimning taxmini bilan Sildirop pahlaviy davriga uchdi.	Dedi: olimlarga hurmatim cheksiz, Ular payg'ambarning merosxo'rlari. Olimning har ikki dunyosi obod, O'lса, nurafshondir qabri-go'rlari.
Ma'no muallimi, so'zshunos tengsiz, Ming yillik tavorix boshlarida jam. Ularning oldida Koshg'ariy ojiz, Hijolat chekadi Zamaxshariy ham.	Qadimgi Eronning bir lahjasidan Sildirop kalomi kirib kelganmish. Zeroki, forsiyning o'tmishida ham Sang, gir, ob so'zlari faol bo'lganmish.	Qulq og'ir, ko'zim nursiz bo'lса-da, So'zlarga aylanar hali bu tilim. Biroq Sildiropni aytish ko'p g'alat, Bittagina menmas, aytolmas elim.
So'zlarning tarixiy negizlarini Ochishda har biri ustasi farang. Bugun ham uchovi tortishmoqdalar, Sildirop so'zining ustida, qarang.	Yana bir farazni aytdi boshqasi, Mahalliy zamindan qidirib ildiz. Ming yillik manbadan havola olib, So'ldirab so'zidan qolgan dedi iz.	Moskopda o'lganda Sildirop degan Kallelinga o'xshash bir echki soqol. Nomi shu qishloqqa qo'yildi qoldi, Deya nolib qo'ydi o'tmishdan ham chol.
Turkiyning mo'g'ulcha ildizin kovlab, Ochg'uvchi bittasi dalillab dedi: Eradan oldingi mo'g'uliy tilda Sildirop kalomi shel dir ap edi.	Xullas, uch tilshunos, uch zakiy olim, Sildirop so'ziga doxil bo'lishdi. Taxminlar otiga minib, sho'rlikni Ko'pkari qilishdi, uloq qilishdi.	Yuz yillik tarixdan dalillar bilan, So'ylardi aybdor sezganday o'zin. Hijolat ham bo'lib qo'yar qurg'ur chol Aytolmasligidan Sverdlov so'zin.
Chingizzon bosqini davrida bizning Turkiyga bu so'z ham kirib kelmishdir. Va forsiy zaboning ta'sirida xo'p O'zgarib, Sildirop shaklin olmishdir	Shu onda hassali, munkillagan chol, O'tib ketayotib, bir oyoq ildi. Suhbati qizigan uchta olimga Hurmat yuzasidan tavoze qildi.	

2. Ixtisoslashgan leksemalar. Bunday leksemalar ham aslida bir so'z yasash qolipi va so'z yasovchi vosita asosida nutqda yasalgan bo'ladi. Ixtisoslashgan leksemalarning yasamaliligi yaqqol ko'rinib turadi, unda so'z yasash qolipining shakliy saqlangan, biroq ma'no tomondan qolipdan uzilgan bo'ladi. Boshqacha aytganda, yasama so'zning ma'nosini qolipning mazmun tomoniga bog'lash imkonи bo'lmaydi. Masalan, *ishchi*(worker, rabochiy)

leksemasi "zavod yoki fabrikada ishlovchi, o'rta ma'lumotli mutaxassis" ma'nosiga ega. Leksema [ot + -chi] qolipidan chiqqanligi aniq ko'rinish turibdi. Lekin leksemaning ma'nosi bu qolipning "otdan anglashilgan narsa ustida ishlovchi kishi" degan mazmuniy tomoniga teng emas, undan ancha tor. Buni shunday tushuntirish mumkin. *Ishchi* so'zi nutqda hosil bo'lgan paytda qolipning shakli va mazmuniy tomoniga har jihatdan mos va uyg'un bo'lgan. Keyinchalik ma'nosi torayib, shakliy o'xhashlik saqlangan bo'lsa-da, ma'noviy uzoqlashish sodir bo'lgan. Natijada bugungi kunda o'zbek tilida ikkita ishchi birligi farqlanadigan bo'lgan:

ishchi 1 – "*umuman ish, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishi*";

ishchi 2 – "*zavod va fabrikada dastgoh, apparatni boshqaruvchi mutaxassis*".

Birinchi ifoda qolipning har ikki tomoniga shakl va ma'no jihatidan mos bo'lganligi uchun nutqiy so'z hisoblanadi. Ikkinci ifoda esa qolipdan mazmunan uzilganligi uchun leksema hisoblanadi. Birinchi so'z ikkinchi leksemaning nutqiy hosilasi emas. Ularni omonimlar sifatida qarash lozim.

Qolip hosilasi sifatida u qolipning chap tomoni xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan. Chunki *ishchi* leksemasining shakliy tomoni, ya'ni nomemasida qolipning **ot + -chi** umumiyligi zarrasi, ko'rinishi voqelangan. Leksema sememasi esa "shu otdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs» mohiyati ko'rinishiga emas, balki uning toraygan, ma'lum bir ixtisosni anglatuvchi ko'rinishi holatiga ega bo'lib qolgan. *ishchi* leksemasiga qiyosan olinadigan, deylik, *kitobchi* so'zida so'z yasash qolipining shakliy tomonidan ham, ma'noviy tomonidan ham uzilish kuzatilmaydi. Yoki *yozuvchi* leksemasi va *yozuvchiso'zini* qiyoslaylik. Har ikkala hosila ham **fe'l + uvchi = shu fe'l dan anglashuvchi harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs** qolipi mahsuli. Uni gap tarkibida kuzatamiz: 1. *Yozuvchi hayotni teranroq kuzatadi*. 2. *Insho yozuvchi ijodkorligini namoyon qilishi kerak*.

Birinchi gapda *yozuvchi* leksemasi kasbni anglatib, ixtisoslashgan ma'noga ega. Ikkinci gapda esa leksema muayyan yozish harakatini bajaruvchi shaxsni ifodalagan. "Adib" ma'nosidagi *yozuvchi* leksemasi shaklan emas, balki ma'noviy jihatdan qolipdan uzilgan, ixtisoslashgan ma'noli leksemadir. Ikkinci hosila esa ham shaklan, ham mazmunan qolipa muvofiq kelganligi bois, nutqiy yasama so'z hisoblanadi. Leksema hosil bo'lishining bu usuldagagi boshqa ko'rinishi sifatida so'zning atamaviy ma'no kasb etishi (*qo'shish, ayirish, bo'lish so'zlar*)ni ham ko'rsatish mumkin.

Ixtisoslashgan leksemalar leksema hosil bo'lishining eng quyi darajasidir.

3. Soddalashgan leksema. Soddalashgan leksemada yasama so'zlar lisoniyashuvining yanada yuqoriroq bosqichini ko'ramiz. Soddalashish ma'lum bir so'z yasash qolipining hosilasida o'zak va qo'shimchaning o'zaro birikib ajralmas holga kelishi, so'zshakldagi grammatik vositaning qotib qolishi natijasida yangi ma'no ifodalashidir. O'zbek tilidagi *oldin, keyin, tashqari, ichkari, yuqorikabi yuzlab* so'z soddalashgan yasama so'z – leksema.

So'z birikmalarining sintaktik qolipdan uzilish holati sifatida **boshning og'rigi** – **boshog'riq, belning bog'i – belbog'** misollarini ko'rsatish mumkin.

E'tibor qilinsa, ixtisoslashish faqat ma'no tomondan bo'lsa, soddalashish ham ma'no, ham shaklga tegishli hodisadir.

4. Tublashgan leksema. Tublashgan leksemashunday leksemalashgan yasama so'zki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik ma'lumotsiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan, *sin fe'lining o'zagi si,tingla fe'lining o'zagi ding,to'q so'zi o'zagining to'* ekanligini til tarixi bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lmadan bilib bo'lmaydi. Tublashgan leksemalarning tarkibini aniqlash chuqur etimologik tadqiqotlarni taqozo etadi. O'zbek tilidagi aksariyat leksemalar tublashgan leksemalardir. Tadqiqotchilariga ko'ra, o'zbek tilida bor-yo'g'i 150 tacha sof tub turkiy leksema mavjud. Boshqa leksemalar bir paytlar ma'lum bir qoliplar asosida yasalib, davr o'tishi bilan tublashib ketgan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, **tildaleksema yasash hodisasi yo'q**. Balki yasama so'zning, nutqiy hosilaning lisoniylashuvi, leksemalashuvi mavjud.

Mantiqiy mushohada uchun

1. **Ushoq qand oq tuzga monand erur, Va lekin biri tuz, biri qand erur** (Navoiy). Mutafakkirning ushbu fikridan tilshunoslikda qanday hodisalarni farqlashda metodologik asos sifatida foydalanish mumkin?

2. **So'zlarimni qo'ng'iroqning tillari kabi Yuragimga urib-urib jaranglataman.** Ushbu misralarda qanday mantiqiy xatolik mavjud?

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Til leksikasi qanday yo'llar bilan boyiydi?
2. O'zlashma so'zlar qay tarzda lislniylashadi?
3. Tilning o'z qatlam hisobiga boyishi deganda nimani tushunasiz?
4. Ixtisoslashuv mohiyatini ayting va misollar keltiring.
5. Soddalashuvni tushuntiring va misollar keltiring.
6. Tublashishni tavsiflang va misollar keltiring.

Test

1. *Tanglay* so'zining o'zbekcha ekanligini qaysi belgisi ko'rsatadi? A) ikki bo'g'inli ekanligi B) *ng* undoshi borligi C) *y* undoshi bilan tugaganligi D) leksema o'zbekcha emas

2. Yasama so'zning lisoniylashuvi bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan? A) ixtisoslashish, soddalashish, tublashish B) soddalashish, tublashish, ixtisoslashish S) tublashuv, ixtisolashuv D) soddalashish, ixtisoslashuv

3. [taqlid + yasovchi] qolpidagi yasama leksemani belgilang: A) baxtsaodatli, uy-joyli B) ko'zoynaksiz, tomorqasiz C) pirpirak, bizbizak D) yarqiroq, qiltiriq

4. Lisoniy birlik belgisi emas: A) moddiylikdan xoli B) cheksiz C) barqaror D) ijtimoiy
5. Nutqiy birlik belgisi emas: A)moddiylikdan xoli B) cheksiz C) o'tkinchi D) individual

Glossariy

lisoniylashuv – nutqiy birliklarning lisoniy sathga o'tishi

ixtisoslashish – yasama so'zlarning ma'no jihatdan qolipdan uzilishi

soddalashish – yasama so'zlarning shakl va ma'no jihatdan qolipdan uzilishi

tublashish – yasama so'zlarda o'zak va qo'shimcha orasidagi chegaranining yo'qolishi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

12- ma'ruza

LEKSEMADA SHAKL VA MAZMUN. LEKSEMA SEMEMASINING TARKIBI

Reja:

1. Leksemada shakl va mazmun dialektikasining o'ziga xosligi.
2. Sememaning xususiyatlari.
3. Semema va tushuncha munosabati.
4. Serqirralikning leksema semantik strukturasida namoyon bo'lishi.
5. Leksema sememasining tarkibi.

Kalit tushunchalar

lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, leksema, so'z, shakl, mazmun

O'zlashtiriladigan tushunchalar

nomema, sonema, semema

1. Leksemada shakl va mazmun dialektikasining o'ziga xosligi.

Barcha narsalar shakl va mazmun yaxlitligidan iborat dialektik butunlik bo'lganligi kabi leksema ham tashqi va ichki jihatdan tashkil topadi. Leksemaning tashqi qobig'i *nomema* deb ataladi. *Nomemargrek* тилидан *morfema*, *sonema*, *leksema*, *semema* so'zlariga qiyosan yasalgan. *Sonema* morfemalarning tovush qobig'ini anglatsa, *nomemadeganda* leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan nutq tovushlari nazarda tutiladi. Masalan, *kitob* leksemasining tashqi tomoni k + i + t + o + b tovushlari yig'indisi. Albatta, bu tovushlarning shunchaki yig'indisi, to'plami emas, balki unli va undosh tovushlardan iborat fonetik butunlik, sistemadir.

Shu o'rinda bir narsaga alohida e'tibor qilish lozim. Ma'lumki, lisoniy birlik moddiylikdan xoli deya talqin qilinadi. Shunga ko'ra, leksema ham, boshqa lisoniy birliklar kabi moddiylikka ega bo'lmasligi lozim. Chunki u to'laqonli lisoniy birlik. Demak, moddiylik so'zi bu o'rinda bevosita sezgi a'zosiga ta'sir qiladigan deya jo'nlashtirilmaydi. Yoki shakl deganda moddiy ko'rinishga egalikkina tushunilmaydi. Biror narsa haqida o'ylar ekanmiz, ongimizda uning tashqi qiyofasini tasavvur qilgan holda boshqalaridan ajratamiz. Narsaning ongdagi qiyofasi ham shakl deyiladi. Nomema kishi biror leksema haqida o'ylaganda, ichki nutqda yaqqol ma'lum bo'ladi. Voqelangan tashqi nutqda bu shakl haqiqiy, real moddiy qiyofa kasb etadi. Demak, ongdagi leksemaning shakliy tomoni sezgi a'zolaridan tashqarida, unga ta'sir qilmaydigan holatda bo'lsa, leksema nutqiy voqelanganda so'zga aylanadi, moddiy bo'lмаган shakl, ya'ni nomema moddiylik kasb etadi, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan bo'ladi.

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni *semema* deyiladi. Semema грекча *σημαίνω* so'zidan olingan bo'lib, "ifodalayman" degan ma'noni bildiradi. U

tilda *fonema*, *morfema*, *leksema* so’zlariga o’xshash shaklda qabul qilingan. Семема онда акс етган нарса, белги, мидор, гаракат каби тушунчанинг лексемада мұжассамлашган ко’риниши. Бoshqacha aytganda, semema – лексеманинг ичкі жиҳати.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Hamma uchun so’zlar orasida eng e’tiborlisibitta. Bu qaysi so’z?
- 2.Bir so’z barcha tillarga tarjima qilib aytilar edi. 1994-yildan keyin tarjima qilinmay qo’llanadigan bo’ldi. Bu qaysi so’z?

2.Sememaning xususiyatlari.Birorta leksemaning sememasini ikkinchi leksemaning sememasiga aynan o’xshash bo’lmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema yo’q. Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin bo’lishimiz mumkin:

Yuz – “inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo’lgan qismining **uslubiy betaraf** ifodasi”.

Bet – “inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo’lgan qismining **so’zlashuv uslubiga xos** ifodasi”.

Ko’rinadiki, birinchi sememadagi “uslubiy betaraf” unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi “so’zlashuv uslubiga xos” unsuri birinchi sememada yo’q.

Agar semema aynan bo’lib qolsa, demak, bu ular tavsifida nuqson mavjud deyishga asos bo’ladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi so’z qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan anglaydi.

Har qanday butunlik bo’lakdan tashkil topganligi кabi, semema ham o’ziga xos tarkibiy qismdan iborat bo’ladi. Masalan, leksema butunlik sifatida nomema va sememadan tashkil topadi.

Sememada bir tarkibiy qismi almashtirilishi bilan u butunlay boshqa sememaga aylanib ketishi mumkin. Masalan, “davriy bo’lmagan”ma’no bo’lakchasini “davriy bo’lgan”ma’no bo’lakchasiga almashtirsak, u o’z-o’zidan *jurnal* leksemasining sememasini bo’lib qoladi.

Leksemaning sememasini aniqlashda u sinonimik qatorda tekshiriladi. Deylik, *yuz* leksemasi sememasini ochilayotganda, *ubet*, *aft*, *chehra*, *oraz*, *turq*, *bashara* va hokazo leksema qurshovida o’rganiladi. *Kelmoq* leksemasi sememasini *bormoq*, *ketmoq* va boshqa leksemalar sememalarisiz aniqlab bo’lmaydi.

Mustaqil o’qish uchun

Borliq tilda qanday aks etadi?

Professor dars paytida talabalarga shunday savol berdi: “Barcha mavjudot Xudo tomonidan yaratilganmi?” Bir talaba dadil turib javob qildi: “Albatta, Xudo tomonidan yaratilgan.” “Xudo hamma narsani yaratganmi?” – deb so’radi yana professor. “Xuddi shunday, janob”, – javob berdi

talaba. Professor yana so'radi: "Agar Xudo hamma narsani yaratgan bo'lsa, demak, Xudo yomonlikni xam yaratgan ekan-da? Agar Xudo bor bo'lsa, va, "biz qanday bo'lsak, qilmishlarimiz xam shunga yarasha bo'ladi" degan tamoyiliga ko'ra, Xudo yomon ekan-da?" Talaba bu gaplarni eshitib jim bo'lib qoldi. Professor talabalarga, "Xudoga ishonish bir afsona ekanini yana bir bor isbotladim", degandek g'urur ila boqdi.

Boshqa bir talaba qo'l ko'tarib, so'radi: "Savol bersam maylimi, professor?" "Albatta", – javob berdi professor. Talaba o'rnidan turib, so'radi: "Sovuqlik mavjudmi?" "Nima deganing bu? Albatta, mavjud. Nima, sen hech qachonsovqotmaganmisan?" Talabalar uning savoliga kulishdi. Yigit javob qildi: "Aslida, sovuqlik mavjud emas. Fizika qonunlariga binoan, biz sovuqlik deb ataydigan narsa, aslida issiqlikning yo'qligidir. Mutlaq nol issiqlikning umuman yo'qligi demakdir. Bunday haroratda butun modda inert bo'lib qoladi. Xullas, sovuqlik mavjud emas. Biz bu so'zni, issiqlik yo'q holatni ta'riflash uchun o'ylab topganmiz." Talaba davom etdi: "Professor, qorong'ilik mavjudmi?" "Albatta, mavjud." "Siz yana nohaqsiz, janob. Qorong'ilik ham mavjud emas. Qorong'ilik aslida yorug'likning yo'qligidir. Yorug'likni o'rganishimiz mumkin, ammo qorong'ilikni o'rgana olmaymiz. Oq nurni turli ranglarga ajratib, har bir rang to'lqinining har xil uzunliklarini o'rganish uchun Nyuton prizmasidan foydalanishimiz mumkin. Biroq siz qorong'ilikni o'lchay olmaysiz. Oddiy yorug'lik nuri qorong'ilikni teshib kirib, uni yoritishi mumkin. Qorong'ilik esa yorug'likni to'sa olmaydi. Biron-bir makondagi qorong'ilikning miqdorini ayta olasizmi? Yo'q, ayta olmaysiz. Chunki qorong'ilikning o'lchov birligi yo'q. Yorug'likning miqdorini esa o'lchay olasiz. Shunday emasmi? Qorong'ilik – yorug'lik yo'qligida nima sodir bo'lishini ta'riflash uchun inson ishlataladigan tushuncha." Nihoyat talaba professordan so'radi: "Janob, yomonlik mavjudmi?" Bu safar, professor ishonchszilik bilan javob berdi: "Menimcha, mavjud. Hali aytganimdek, biz uni har kuni ko'ramiz: insonlar o'rtasidagi shafqatsizlik, butun dunyo bo'ylab sodir etilayotgan ko'plab jinoyatlar. Bu misollar yomonlikning namoyon bo'lishidan boshqa narsa emas-ku!" Bunga talaba quyidagicha javob qildi: "Yomonlik ham mavjud emas, janob. U ham qorong'ilikka va sovuqqa o'xshaydi. Yomonlik – bu yaxshilik yo'qligini ta'riflash uchun inson o'ylab topgan so'z. Yomonlik yorug'lik va issiqlik kabi mavjud emas. Yomonlik insonning yuragida Xudoga bo'lgan muhabbatning yo'qligi natijasidir. Yomonlik xuddi sovuqlikka o'xshaydi – issiqlik bo'limganida keladi, yoki qorong'ilikkak o'xshaydi – yorug'lik bo'limganida mavjud bo'ladi." Professor o'tirdi. U mag'lub bo'lgandi.

Bu yosh talaba Albert Eynshteyn edi.

Б.Г.Кузнецов. Эйнштейн: Жизнь. Смерть и бессмертие. – М.: Наука, 1980.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Borliqdagi bir holat (harorat) tilda nega ikki (issiq va sovuq) ga bo'linadi?
- 2.Issiq va sovuq so'zlarining ziddiyati obyektivmi yoki subyektiv?
- 3.Qorong'ulik va yorug'liq so'zlarining izohini lug'atdan kuzatib, qiyoslang va talaba Eynshteyn fikriga munosabat bildiring.

3. Semema va tushunchamunosabati. Lisoniy mohiyat sifatida sememaning mantiqiy kategoriya bo'lgan tushunchaga munosabati masalasi murakkab. Bunda, birinchidan, semema birlamchimi yoki tushuncha, ikkinchidan, semema tushunchada qay tarzda aks etadi degan munozarada ko'zga tashlanadi. Tilshunoslikda sememaga munosabatda ikki yo'nalishni farqlash lozim bo'ladi:

- a) ichdan yondashuv (ya'ni sememadan leksemaga);
- b) sirtdan yondashuv (ya'ni leksemadan sememaga).

O'zbek tilshunosligida semema va tushuncha munosabati turlicha talqin qilinadi. Masalan, ayrim mutaxassislar semema, ko'pincha, ongimizdagim ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi. Tushuncha ong,

mantiq birligi, semema esa, tilga, leksemaga xos birlik. Ko'p hollarda bir semema bir necha tushunchani o'z ichiga oladi. Jumladan, *o'rik* leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi:

- a) ho'l mevaning bir turi;
- b) shu mevaning quritilgani;
- c) shu mevani beradigan daraxt.

Shunga ko'ra, tushuncha va semema o'zaro hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Bu hodisa, ayniqsa, ma'nodosh leksemalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rindiki, lingvistik belgilardagi asimmetriya (nomutanosiblik) hodisasi semema va tushuncha munosabatida ham ko'rindi. Buni chizmada quyidagicha berish mumkin (18-jadval):

18-jadval

SEMEMA	Tushuncha
	Tushuncha
	Tushuncha
TUSHUNCHA	Semema
	Semema
	Semema

Bunda ayrim e'tirozli jihatlar mavjud.

Birinchidan, semema ko'pincha emas, balki har doim ham ongdagi tushuncha bilan bog'langan. Semema tushunchaning ifodasidir. Olimlar tavsifda *ko'pincha* so'zini qo'llashda sememaning har doim ham ma'lum bir tushuncha bilan bog'lanavermasligini nazarda tutadi. Ularning bu fikri quyidagicha ifodalananadi: «Shuni ham aytish kerakki, yordamchi leksema sememalarida tushuncha bilan bog'lanish yo'q. Chunki, yordamchi leksema, aytilganidek, qo'shimcha va leksema ziddiyatida oraliq uchinchi vazifasini o'taydi. Ular shaklan leksema, mazmuni (vazifikasi), sememasiga ko'ra esa qo'shimcha» (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari. 57-bet). Biroq yordamchi leksemalar morfema va mustaqil leksemalar ziddiyatida oraliq uchinchi vazifasini o'tar ekan, ular nomustaqlil leksemalar sifatida shaklan mustaqil leksemaga uyg'un. Mazmun mundarijasi asosida grammatik morfema bilan bir qatorda turadi. Shu boisdan yordamchi leksemalar mazmun mundarijasini semema emas, balki grammatic ma'no deyish maqsadga muvofiq.

Yordamchi leksema ma'nosi bilan qo'shimchaga yaqinlashsa, nomemaga egaligi asosida leksema bilan uyg'unlashadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ma'lum bir hodisa, masalan, leksema ta'riflanar ekan, ta'rif ta'riflanayotgan hodisalarni to'liq qamrab olmasligini e'tiborga olish lozim.

Dialektikada ham hodisalarga berilgan har qanday ta'rif mutlaq bo'lmasligi, unda, baribir, ayrim hodisalar "ta'rifga sig'may qolishi" ta'kidlanadi.

Birnechatushunchanio 'zidamujassamlashtirgan leksemaning mazmun mun darijasimurakkab tabiatlilig bilan xarakterlanadi.

Mustaqil o'qish uchun**Sukut ma'no ifodalaydimi?**

Muloqot jarayonida sukut alohida o'rin tutadi va u ham "nimalarnidir" bildiradi. Muloqot jarayonida u situativ, sotsial va psixologik omillar bilan bog'liq holda kommunikativ mazmun ifodalaydi. Darhaqiqat, sukutning muloqot jarayonida naqadar ahamiyatli ekanligini Sa'diy Sheroziy o'z misralarida shunday bitgan:

*Oqillar nazdida gar o'ltilish odobdir,
Maslahat tashlaganda so'zga ko'rsatish himmat.
Ikki narsa aqlga sig'maydi agar bilsang,
So'zlash paytida sukut, keraksiz joyda suhabat.*

Sukut saqlash o'ziga xos ijtimoiy qimmatga ega. Buni masalan, dil rozinai aytish, o'tganlar xotirlashda, xafa bo'lish va arazlash, mensimaslik holatlarida, kesatiq va kinoya kabilarda ko'ramiz. Sharq mutafakkiri Muhammad Sodiq Qashg'ariy yaxshi kishilar odobi haqida bitilgan kitobida bu haqda shunday deydi: "... (yaxshi kishi) o'zini beadabona so'zdin va fe'ljin yamon harakatdin va noxamvor (noo'rin) sukunatdin saqlag'ay."

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan olingan quyidagi parchada sukut tahqirlash mazmunini anglatadi:

... Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini anglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'ltilishdan sukutni xayrlik topdi. Go'yo o'zining bu sukuti bilan Musulmonqulga ma'nolik bir javob qilar edi. Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi:

–Nega javob bermaysiz?!"

Sukut, tabiiyki, asosan, so'zlovchining tinglovchiga, tinglovchining so'zlovchiga aylanish jarayoniga xos. Shuning uchun, o'zbek nutq odobiga qo'ra, o'rinsiz yoki bema'ni savolga sukut bilan javob berish, uni eshitmaganga olish, suhabatni buzmaslik yuksak odob – hatto shoir Mirza Kenjebek talqinida ibodat – sanaladi:

*Ibodatdir biror zolim – jafokorga desang haq so'z,
Va nodonga sukut saqlash, sukuting ham ibodatdir.*

Turkman va kavkaz xalqlari odatiga ko'ra, kelinlar ma'lum muddat (asosan, farzand ko'rgunlaricha) qaynona va qaynotalariga gapirmaslik – hurmat ma'nosini ifodalashi sukut ifodalaydigan kommunikativ mazmunlardan biri – u tahqirlashning aksidir.

Guli Toirova

4.Serqirralikning leksema semantik strukturasida namoyon bo'lishi.

Har qanday lisoniy birlik serqirra mohiyatli bo'lib, buuning kamida ikki paradigmaga kirishini ta'minlaydi. Leksema birdan ortiq tushunchani qamrab olgan ekan, bunda uning serqirraligi yanada kuchayadi. Masalan, *uzum*, *o'rik* leksemasi o'zida bir necha tushunchani saqlar ekan, bu bilan u kamida ikki lug'aviy paradigmaga kiradi (20-jadval):

20-jadval

<i>Uzum</i>	<i>Uzum</i>
	<i>Tok</i>
<i>o'rik</i>	<i>Zardoli</i>
	<i>o'rik</i>

Birinchi paradigmada *uzum* leksemasi bir denotati asosida meva va boshqa bir denotati asosida esa daraxt nomini ifodalovchi otleksema bilan uyadoshlik qatori hosil qilsa, ikkinchi paradigmada *o'rik* leksemasi bir ma'nosi bilan *zardoli*, ikkinchi ma'nosi asosida *turshak* leksemasi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi.

Leksema tarkibida birdan ortiq tushuncha mujassamlashganda leksema turli sintagmatik qurshovga kiradi. Masalan, yuqorida tilga olingan olma

leksemasida ikkita ("meva", "daraxt") tushuncha mavjud bo'lib, u har bir ifodalagan tushunchasi asosida ham boshqa-boshqa, ham umumiyl qurshovga ega bo'lishi mumkin.

Olmani kesdik sintaktik qurshovida *olma* qaysi tushuncha, denotatni anglatayotganligi muayyanlashmaydi. Biroq, *olmani ekdisik*, *olmani yedik* sintagmatik qurshovida atalayotgan denotat farqlanayotganligi sezilib turadi (birinchi qurshovda "daraxt", ikkinchisida "ho'l meva"). Ko'rindiki, leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda har bir tushunchaga mos sintagmatik qurshov mavjudligi ham anglashiladi. Bular semema leksema lisoniy mohiyatining alohida sinonimik va sintagmatik qurshovga ega bo'lgan turidir, degan xulosaga olib keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Shaklning mohiyati haqida gapiring.
2. Borliqda mazmun qanday namoyon bo'ladi?
3. Til hodisalarida shaklning xususiyatlari qanday?
4. Til hodisalarida mazmun qanday mohiyatga ega?
5. Tushuncha va semema qanday umumiylikkha ega?
6. Tushuncha va semema qanday farqlarga ega?

Test

1. Gapda nozik so'zining kaysi ma'nosi ifodalangan: Bu juda nozik ish, ehtiyyotkorlik lozim. A) "mo'rt" V) "qaltis" S) "qiyin" D) "yengil"
2. Gapda yo'l so'zining qaysi ma'nosi ifodalangan? Bu masala qaysi yo'l bilan yechiladi. A) "tadbir" V) "safar" S) "yo'nalish" D) "usul"
3. So'z atayotgan predmet nima deb yuritiladi? A) denotat B) referent C) siznifikat D) tushuncha
4. Ziddiyat ikki a'zoli bo'lsa, qanday a'zoli deyiladi? A) Binar oppozitsiya B) terner oppozitsiya C) ko'p a'zoli oppozitsiya D) Ekvipotent oppozitsiya

Glossariy

nomema – leksemalarni tashkil etgan fonetik sistema

sonema – morfemalarni tashkil etgan fonetik sistema

semema – mustaqil leksemalarning lisoniy tabiatli, sinonimik qator bilan aniqlanadigan mazmuni

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.

2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

5. LEKSEMA SEMEMASINING TARKIBI

Kalit tushunchalar
nomema, sonema, semema

O'zlashtiriladigan tushunchalar
sema, atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi,
relevant belgi, irrelevant belgi

Sema haqida. Har qanday butunlik qismlarga bo'linganligi yoki qismlardan tashkil topganligi kabi leksemaning mazmuniy tomoni – sememasi o'ziga xos elementlardan – semalardan tashkil topadi. *Sema* termini grek tilidan o'zlashgan bo'lib, "belgi", "ramz", "ishora" degan ma'nolarni bildiradi.

Semema elementlar, ya'ni semalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik bo'lib, bu jihatidan kimyoviy moddalarni eslatadi. Ma'lumki, kimyoviy moddalar molekula bo'lib, ular o'ziga xos elementlar, ya'ni atomlardan tashkil topadi. Bu atomlar miqdori yoki ular o'rni boshqasi bilan almashsa, yangi molekula – modda kelib chiqadi. Masalan, H_2SO_4 (sulfat kislota) va H_2SO_3 (sulfid kislota) kabi.

Sememalar semalardan tashkil topadi. Masalan, *aka* leksemasi "bir avloddag'i", "qon-qarindosh", "erkak", "mendan katta" semalaridan tashkil topgan bo'lsa, ular bir butun holda "bir avlodga mansub, "men"ga nisbatan katta, erkak qon-qarindosh" sememasini tashkil qiladi. Sema semema bilan qism-butun munosabatidagi tashkil etuvchidir. U sememaning eng kichik ma'no bo'lakchasi bo'lib, boshqa tarkibiy qismlarga bo'linmaydi. Albatta, bu tilshunoslikning hozirgi holatida shunday. Tilshunoslikning bugungi holati semani tarkibiy qismlarga bo'lishga ehtiyoj sezgani yo'q.

Sememani semalarga ajratish amaliy ahamiyatga ega. Ma'nosi yaqin, zid ma'noli yoki ma'nodosh leksemalarni farqlash va izohlashda semalarga tayaniladi. Shu boisdan tilshunoslik semalarining mohiyatini ochish, semaning turlarini ajratish va farqlash bilan jiddiy shug'ullanadi.

Dunyo tillari

Dunyo bo'yicha har xil asoslardagi hisob-kitoblarga ko'ra, 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. BMT o'tgan asrda rasman 2976 tilni qayd etgan. Tillarning ayrimida bir milliard, bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zisida bir necha ming, yuz, hatto, sanoqli kishi

Mustaqil o'qish uchun

muloqot qiladi. Masalan, Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi. Xitoy tilida hozirgi kunda bir milliarddan ortiq kishi gaplashsa, chukot va vele tilida boryo'g'i bir necha yuz ming kishi muloqot qiladi, xolos. Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq o'z tiliga ega.

Tillarning asosiy qismi tropik mamlakatlarda joylashgan. Yevropada bor-yo'g'i 240 til mavjud bo'lsa, Afrikada 2000, Osiyoda 2300 til mavjud. Yangi Gvineya orolida 1200 til amal qiladi.

Dog'istonda 1 mln dan ortiq kishi bo'lib, ular 40 ga yaqin tilda gaplashadi. 2002- yilda Rossiyada o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijasiga ko'ra, Dog'istondagi bagulal tilida 40, chamala tilida 12, kaytags tilida 5 kishi muloqot qilishi aniqlangan. Dunyodagi eng katta tillar olinadigan bo'lsa, hisob-kitobga ko'ra, 200 tilning har birida 1 mlndan ortiq, 70 tilning har birida 5 mln dan ortiq, faqat 13 tilning har birida 50 mln dan ortiq kishi gaplashadi.

Tillarning 80 % i o'rta va kichik tillar hisoblanadi. Ularning har birida 100 mingdan kam kishi gaplashadi. Dunyo tillarining uchdan bir qismida 1 mingdan kam kishi muloqot qiladi. Dunyo aholisining 80 % i 84 ta (ingliz, xitoy, rus, nemis, yapon, hind, ispan, portugal, yoruba (Nigeriya (26,5 mln), fors, o'zbek tili kabi) yirik tillarda gaplashishadi.

Til moddiy va ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi yaqin vaqtda o'zining oxirgi sohiblaridan ham ajralishi mumkin. O'lik tilga aylanib ketayotgan bu tillarni saqlab qolish insoniyat oldidagi o'tkir muammolardandir. Shuning uchun 1999- yil 17- noyabrda YUNESKOning Bosh anjumani tomonidan e'lon qilingan Xalqaro ona tili kuni 21- fevral (International Mother Language Day), 2000- yilning fevralidan boshlab har yili lisoniy va madaniy taraqqiyot va ko'p tillilikni ta'minlashga ko'mak berish maqsadida nishonlab kelinadi. O'z navbatida, BMT Bosh assambleyasida o'z rezolyutsiyasida 2008 yilni Xalqaro tillar yili (International Year of Languages) deb e'lon qildi.

Semaning mohiyatiga ko'ra turlari. Semema tarkibidagi semalar turlarga ega. U mohiyatiga ko'ra dastlab uchga bo'linadi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funksional sema).

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so'zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli, vazifasi bilan bog'liq.

Atash semasileksema mazmunidagi harakat-holat, narsa-predmet, miqdor, belgini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Masalan, *aka* leksemasining yuqorida sanalgan barcha semalari – atash semasi.

Bir xil yoki o'xshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada ko'p holda atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, *yaxshi*, *tuzuk*, *durust*, *ajoyib* yoki *yuz*, *chehra*, *oraz*, *turq*, *aft*, *betma'nodoshlik* qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. *Yaxshi*, *tuzuk*, *durust*, *ajoyibleksemalarining* atash semalari quydagilar: 1) "belgi"; 2) "barqaror belgi"; 3) "sifat belgisi"; 4) "shaxsiy baho"; 5) "ijobi"; 6) "ichki-tashqi". Shu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud bo'lib, ular *tuzuk* leksemasida "me'yordan bir pog'ona past", *yaxshi* leksemasida "me'yorda", *ajoyibleksemasida* "me'yordan bir pog'ona yuqori" semalaridir. *Yuz, chehra, oraz, turq, aft, betleksemalarida esa*: 1) "inson boshi old tomoniga xos"; 2) "peshonadan iyakkacha bo'lgan qism" semasi – atash semasi.

Aytiganiidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigmadoshi bilan tekshirilishi lozim. Aks holda,

leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim bo'lмаган) semasini farqlashning imkonи bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *brother* leksemasing sememasи "qarindosh", "qon-qarindosh", "bir avlod" atash semalariga ega. O'zbek tilidagi *aka* leksemasida esa bu sema bilan birgalikda "mendan katta" relevant semasi ham bor. Chunki *aka* leksemasi shu semasi bilan *ukaleksemasiga* qarama-qarshi turadi. *Brother* leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli "mendan katta/mendan kichik" semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lганligi sababli irrelevantdir. Rus tilidagi *кобылалексемасида* "urg'ochi" semasi muhim bo'lib, u o'zbek tilidagi *baytalleksemasing* ham, *biya* leksemasing ham muqobili bo'la oladi. Biroq *baytalva biyazidlanishida* "urg'ochi" semasi emas, "qulunli" (*biyaleksemasida*) va "qulunsiz" (*baytal* leksemasida) semasi relevant (muhim) dir.

Ko'rindiki, leksema sememasи tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

Ifoda semasideganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememasini farqlash quvvatiga ega bo'lган sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, *yuz* va *bet* leksemasing ifoda semasi o'zaro qiyosda ochiladi:

yuz - "inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lган qismining uslubiy betaraf ifodasi".

bet - "inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lган qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi".

Bu sememalardagi "uslubiy betaraf" (*yuz* leksemasidagi) va "so'zlashuv uslubiga xos" (*bet* leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semasidir.

Turq leksemasidagi "salbiy", *jamolleksemasidagi* "ijobiy" semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, *aeroplan* leksemasidagi "arxaik", *kompyuterleksemasidagi* "neologizm", *xarseb*(olma turi) leksemasidagi "shevaga xos" semasi -qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi.

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lмаган turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari *ingerent konnotativ sema* va muhim bo'lмаган ifoda semalari *adgerent konnotativ sema* deyiladi.

Vazifa semasileksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, *kitob*, *daftar*, *maktab*, *bormoq* kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. *Qat'iy*, *keskin*, *moviy*, *qizg'ishleksemalarining* vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Mantiqiy mushohada uchun

1. *Bormoq* va *ketmoq* fe'llari qaysi semasi asosida birlashib, qaysi semasi bilan farqlanadi?

2.Muhabbat va sevgi leksemalarida farqlovchi sema qaysi?

3.So'zum munda qolur, Borurman o'zum (Yugnakiy) misrasidagi *bormoq* fe'lining semik tarkibini aniqlang.

Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi. Masalan, mustaqil leksemada atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi, ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksemalarda atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan bo'ladi. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, *bo'ri* leksemasi odamga nisbatan qo'llanganda undagi "hayvon", "itsimonlar oilasiga mansub", "yovvoyi" atash semalari kuchsizlanib, "yirtqich", "vahshiy", "qonxo'r" ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.

Mustaqil leksema yordamchi so'z vazifasida qo'llanganda undagi atash va ifoda semasi kuchsizlanib, vazifa semasi esa kuchayib voqelanadi.

Mustaqil o'qish uchun

Qo'hna Sharq tillar va so'zlarning paydo bo'lishi haqida

Sharqda tilning taraqqiyot qonunlari, tillarning, so'zlarning paydo bo'lishi talqiniga doir bir necha nazariyalar yuzaga kelgan. Tabiiy nazariya, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, izhor nazariyasi, ilhom nazariyasi shular jumlasidan.

Tabiiy nazariya (tovushga taqlid nazariyasi). Sharq filologlari VIII asrda so'zlarning tashqi tovush tomoni bilan mazmuni o'tasidagi o'xshashlikni keng muhokama qilishgan. Ibn Jinniyning guvohlik berishicha, bu bilan dastlab Xalil ibn Ahmad shug'ullangan. Shu an'ana ta'sirida A'bad ibn Sulaymonning fikrlari rivojlandi. Bu nazariya bo'yicha so'z – insonning tabiiy tovushlarga bo'lgan moyilligi, ularga taqlid qilishi natijasida yuzaga kelgan. Bu "tabiiy (tabiat) nazariya" islom ruknlariga ancha erkin munosabatda bo'lgan mazhab va yo'nalish vakillari (jumladan, namoyandalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy kabi olimlar bo'lgan mutazalliyalar) tomonidan ilgari surilgan va rasmiy islomiy – izhor (ilohiy ne'mat) nazariyasiga zid edi.

Izhor nazariyasi. Bu nazariyaning assoschisi Al-Ashafiy deya e'tirof etiladi. Biroq bu ta'limot undan-da ilgari Abu Ali al-Jubba' ishlaridayoq ilgari surilgan edi. Izhor nazariyasining asosini qur'oniy ta'limot – til va so'zlarni Alloh Odamga tayyor holda in'om etganligi, izhor etganligi tashkil qiladi. IX asrda rasmiy islomiy ilohiyotda – Kalomda izhor nazariyasi qabul qilinib, mutazalliyalar yon bosgan ijtimoiy kelishuv nazariyasi shakkoklik sifatida qoralandi.

Ilhom nazariyasi. Bu ta'limotga ko'ra, birinchidan, insoniyatning birinchi umumiyligi tili – arab tili bo'lgan va u Olloh tomonidan yaratilgan. Olloh bu tilning butun boyligini Odam Atoga birdaniga bermagan – Tangri izhorlarining mahsuli bo'lgan arab tili asoslari bilan oz miqdordagi leksika Odamga berilgan. Keyinroq esa zarurat asosida barcha qabilalarga qo'shimcha ravishda berib borilgan va boyitilib-boyitilib, faqatgina Muhammad alayhissalomga tilning butun boyligi ma'lum qilingan.

Bu islomiy nazariyalarning barchasida tilning rivojlanish manbai ikkita – Alloh va odam, jamiyat ehtiyojlari. Alloh tilni, uning ichki qonuniyatlarini belgilagan va Odamga berganligi haqida qarashlar ustuvorlik qiladi.

Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Ayrim qarashlarga ko'ra, Odam farzandlari hayot va jamiyat ehtiyojlari asosida tilni Alloh belgilagan qonuniyatlar (yangi so'zlar yasash, boshqa tillardan so'z qabul qilish, so'z va qo'shimchalarini boshqa – ko'chma ma'nolarda qo'llash, ijtimoiy kelishuv, shoir, voiz va adiblar nutqining ta'siri kabilar) asosida boyitib, o'z ehtiyojlariga moslashtirganlar. Jumladan, Al-Harasiy ijtimoiy kelishuv nazariyasi borasida ta'kidlashicha, jamiyatda til predmet va tushunchalarga ishora qilish, shuningdek, fikrni bir-biriga ma'lum qilish uchun kerak bo'lgan. Dastlab til faqat undoshdan iborat edi, biroq keyinroq odamlar ikki, uch, to'rt, besh undosh va unlilardan iborat bo'g'in va affikslar hosil qilganlar va nihoyat til yaratilgan.

Донских О.А. К истокам языка.–Новосибирск: Наука, 1988.

Semaning darajasiga ko'ra turlari. Sema darajasiga ko'ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o'xhash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o'xhash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Masalan, *ota, ona, aka, opa, uka, singil* leksemasidagi "qarindosh", "qon-qarindosh", "bevosita" semasi integral sema bo'lsa, "mendan katta" semasi *ota, ona, aka, opaleksemalarini* o'zaro birlashtiruvchi, ammo *uka, singil* leksemalaridan farqlovchi semalardir. "mendan kichik" semasi *uka* va *singilleksemasini* o'zaro birlashtiruvchi, biroq oldingi leksemadan farqlovchi sema. Ko'rindiki, bir sema leksemani bir vaqtning o'zida nima bilandir birlashtiruvchi, nima bilandir farqlovchi qarama-qarshi tabiatli mohiyatga ega. Birlashtiruvchi sema sistema hosil qiluvchi, sistemaga asos bo'luvchi, farqlovchi sema esa sistemada tug'iluvchi, paydo bo'luvchi semadir.

Mantiqiy mushohada uchun

Lingvistik tenglamani yeching:

1. "bevosita", "mendan katta", "ayol", "qon-qarindosh", "1-avlod" = X
2. "bevosita", "mendan katta", "ayol", "qon-qarindosh", "1-avlod" < X

Semema semasini tartiblashda qator umumiyligi, birlashtiruvchi semadan boshlanib, xususiy, farqlovchi semaga qarab boradi. Masalan, *ota* leksemasining sememasi tarkibi quyidagicha beriladi:

- 1) "shaxs";
- 2) "qarindosh";
- 3) "qon-qarindosh";
- 4) "bevosita";
- 5) "1-avlod";
- 6) "men"dan katta";
- 7) "erkak";
- 8) "umumuslubiy".

Chunki predmet shaxs va shaxs emasga, shaxs qarindosh va qarindosh emasga, qarindosh qon-qarindosh va nikoh qarindoshga, qon-qarindosh bevosita yoki bilvositaga, bevosita 1-avlodga yoki 2-avlodga, 1-avlod mendan kattaga yoki mendan kichikka, mendan katta erkak yoki ayolga bo'linadi.

Sememeni semaga ajratish tilshunoslikda *komponent tahlil*, *uzvli tahlil* yoxud *semik tahlil* deb yuritiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Sememaning semik tarkibi nima?
- 2.Lingvistik semema qaysi kimyoviy hodisaga qiyosan baholanishi mumkin?
- 3.Lingvistik sema qaysi kimyoviy terminga monand?
- 4.Atash semasi nima?
- 5.Ifoda semasi nima?
- 6.Vazifasi semasi nima?
- 7.Qanday semalar birlashtiruvchi sema deyiladi?
- 8.Qanday semalar farqlovchi semalar deyiladi?

Test

1.So'z boyligi, asosiy lug'at tarkibi, ularning ma'no turlari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rghanuvchi bo'lim tilshunoslikning qaysi bo'limi? A) Leksikografiya B) Orfografiya C) Orfoepiya D) Leksikologiya

2.Semasiologiyaning o'rganish obekti nima? A) So'zning semantik taraqqiyoti B) So'zdagi tovush o'zgarishlari C) Til birliklarining o'zaro ma'noviy xossalari D) So'zning ma'no xussusiyatlari

3.So'zning obektiv borliqdagi narsa va hodisalarni ifodalovchi ma'nosi: A) ifoda semasi B) vazifa semasi C) hosila sema D) atash semasi

4.Leksema ko'chma ma'noda qo'llanganda, uning asosan qaysi semasida sifat o'zgarishi yuz beradi? A) atash semasida B) ifoda semasida C) vazifa semasida D) barcha semasida

5.*Uka* va *singil* leksemalarida farqlovchi sema: A) atash semasi B) ifoda semasi C) vazifa semasi D) barcha semalari

Glossariy

- sema** – sememani tashkil etuvchi eng kichik birlik
atash semasi – borliq hodisasini ifodalovchi sema; denotativ sema
ifoda semasi – leksemaning ifoda bo'yog'ini tashkil etuvchi sema; konnotativ sema
vazifa semasi – leksemaning vazifa xususiyatini aks ettiruvchi sema; funksional sema
birlashtiruvchi sema – leksemalarning mushtarak semasi; integral sema
farqlovchi sema – leksemalarning farqlanuvchi semalari\$ differensial sema
relevant belgi – elementlarning farqlovchi belgisi; muhim belgi
irrelevant belgi – elementlarning birlashtiruvchi belgisi; nomuhim belgi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

13- ma'ruza

LEKSEMANING SEMANTIK KO'LAMI

Reja:

1. Bir sememali va ko'p sememali leksemalar.
2. Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari.
3. Leksema semantikasidagi lisoniy o'zgarish.

Kalit tushunchalar

sema, atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi, relevant belgi, irrelevant belgi

O'zlashtiriladigan tushunchalar

Hosila semema, metafora, sinekdoxa, metonimiya, vazifadoshlik

1. Bir sememali va ko'p sememali leksemalar. Formal tilshunoslik bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va ko'p sememali leksema ajratiladi. Bunda formal tilshunoslik, terminologik jihatdan izchil bo'lmasa-da, so'zning lison va nutqdagi o'rniga rioya qiladi. Nazariy leksikologiya nuqtayi nazaridan nutqda qo'llangan so'z har doim bir ma'noli. Chunki so'z leksemaning bir martalik ko'rinishi bo'lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega.

Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir sememali leksema deyiladi. Masalan, *qalam* leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir sememali leksema hisoblanadi. Bunda ularning omonimik munosababit e'tiborga olinmaydi. Ammo leksema nutqda ko'chma ma'noda qo'llanishda har xil tushunchalarni ifodalayverishi mumkin. Lekin ma'no va tushuncha orasidagi munosabat ijtimoiy shartlanganlik va barqarorlik kasb etmasa, leksemaning ko'p sememaliligi haqida hukm chiqarib bo'lmaydi. Masalan, *Qashqirlar tog'-toshlar aro izg'ishardi* gapidagi *qashqir* so'zi jangari to'dani tashkil etgan kishilarni ifodalamoqda. Ushbu qo'llanishda *qashqir* so'zi "tog'da yashovchi o'ta yirtqich bo'ri" ma'nosini emas, balki "tog'da uya qurgan yirtqich kishilar" ma'nosini ifodalamoqda va leksema ongimizda ushbu ma'no bilan emas, balki oldingisi bilan yashaydi. Demak, bu ma'no nutqiy bo'lib, tushuncha bilan vaqtinchalik bog'lanishga ega.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora ijtimoiylashib, qo'llanishi barqaror tus olib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniy lashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemaga aylanib boradi.

Leksema ko'p sememali bo'lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan sememalarda farqli semalar mavjud, har bir sememaning nutqiy voqelanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasini asosida

bog'lanuvchi birliklar paradigmatik turlicha bo'ladi. Quyida bir leksemaning lisoniy mohiyati – sememalari tiklanishiga diqqat qilamiz.

*Bosh leksemasi birdan ortiqparadigmatik va sintaktik qurshovda kelish imkoniyatiga ega. Birinchi qurshovda leksema ega, to'ldiruvchi kabi vazifalarda keladi va harakat, holat kabilarni ifodalovchi otlar bilan birikib, ot + fe'l qurshovi hosilasi sifatida namoyon bo'ladi: 1. *Boshim lo'qillab og'riyapti*. 2. *Kirganimda boshini changallab o'tirar edi*. Бунда лексеманинг "танаning bo'yindan yuqori qismi" семемаси voqelangan. Shuningdek, leksema, ushbu ma'nosi bilan *qo'l, oyoq* leksemalari bilan birgalikda *tana* leksemasi sistemasi tarkibiga kiruvchi unsur hisoblanadi. Ayni paytda *kalla* lksemasi bilan sinonimik qator hosil qiladi.*

Bosh leksemasining ushbu ushbu sememasi asosida es, aql, hush leksemalari bilan sinonimik munosabat, ruh, jon leksemalari bilan paragma hosil qiladi. Boshi kompyuter, boshi ishlaydi kabi sintaktik birikuylar hosil qiladi.

Demak, leksemaning birinchi sememasi "Tananing bo'yindan yuqori qismi", 2 sememasi "odam miyasining xususiyati" mazmuniga ega.

Bundan ma'lum bo'ladiki, leksemaning sememamalir miqdori uning paradigmatic, ma'nodoshlik va sintagmatik munosabatlari asosida aniqlanadi. Leksemalarning semantik ko'lamenti bilish izohli lug'atlarni tuzishda juda zarur. Mavjud izohli lug'atlardagi so'zlar ma'nolarining behad ko'pligi (ba'zan 30 tagacha ma'nolarning ajratilishi) lug'atlar tuzilayotgan paytlarda o'zbek semasiologiyasi hali o'zining leksema sememalarini izchil ajratish darajasida rivojlanmasligi bilan bog'liq edi. O'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot darajasi mutlaqo yangi tipdagi, zamonaviy izohli lug'atlarni tuzishni taqozo etmoqda.

Har qanday leksema, xoh u bir sememali, xoh ko'p sememali bo'lsin, nutqda ko'p ma'noli bo'ladi. So'z esa nutqda hamisha bir ma'noli.

Mantiqiy mushohada uchun

Afandi "Dengizga qaragan o'ta shinam xonaga bitta ziyoli kishini ijara qo'yaman" degan e'lon bo'yicha manzilni topib, hujjatlari asosida uni uch sutkaga rasmiylashtirdi. Ertalab uy sohibi xabar olgani keldi, xonada yana ikki kishini ko'rib, afandiga e'tiroz bildirdi. Shunda afandi e'lon asosida uning e'tiroziga javob berdi. Xona sohibi barmog'ini tishlab qoldi.

E'londa so'z qo'llash bilan bog'liq qanday mantiqiy xatolik bor edi?

2. Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari. Har qanday leksema paydo bo'lish paytida bir sememali bo'lgan. Tilda o'xshash va o'zaro bog'liq tushunchalarni ifodalash zaruriyati har bir yangi narsa yoki tushunchani ifodalash uchun yangi leksema "kashf qilmay", mavjud leksemalardan foydalananishni taqozo qiladi. Bu tilda amal qiluvchi tejam qonuniyati bilan bog'liq. Shunday qilib, leksema birinchi sememasi asosida boshqa narsa va hodisalarni ham ifodalay boshlaydi. Bunda uning yangi paradigmatic, ma'nodoshlik va sintagmatik munosabatlari shakllanadi va barqarorlashadi

va, shu asosda, yangi sememalar shakllanadi. Ular leksemaning bosh sememasiga nisbatan hosila semema maqomiga ega bo'ladi.

Hosila semema bir necha yo'l bilan vujudga keladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi. Quyida ularning har biriga alohida-alohida to'xtalamiz.

Metafora (gr. *metaphora* – ko'chirish) – narsa va hodisalar mohiyatidagi o'xshashlik asosida biror leksemaning o'z xususiy ifodalamanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun ishlatalishi.

Formal va substansial tilshunoslikda metafora nisbatan forqlanadi. Tilni metaforasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular turli-tuman va sanoqsiz. Formal tilshunoslik barcha metaforik ma'nolarni tahlil etaversa, substansial tilshunoslik faqat barqarorlashgan, lisoniy tabiatga ega bo'lgan metaforik ma'nolar ustida ishlaydi. Субстанциал ёндашув метафорик маъно talqinida ham lison va nutqning izchil farqlanishiga qatiy rioya qiladi hamda metaforik sememaga UMIS sifatida munosabatda bo'ladi.

Metaforik semema hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi:

1) bir leksema boshqa leksemaga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llanadi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir leksema boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan leksema denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, *quyi* leksemasi anglatadigan ma'noni *etak* лексемаси qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan *etak* leksemasi ishlataligan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'limgaganligi bois *qo'lтиq* leksemasi unga nisbatan ham qo'llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe'lida uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida *uchmoq* fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvoziga o'xshaydi. Shu boisdan *uchmoq* fe'li ifodalagan keyingi semema metaforikdir.

Metafora hosila семема hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Tilning go'zalligi va jozibadorligini ta'minlashda metaforalar muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan jahon tilshunosligida metaforani o'rganuvchi soha (metaforalogiya) alohida yo'naliish sifatida shakllangan. O'zbek tilshunosligida metaforalarning o'rganilishi hali ancha sust kechmoqda. Bu tilshunosligimizning istiqbolli yo'naliishlaridan biri maqomiga ko'tariladi.

Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniy lashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. *Qanot* (samolyot), *uchmoq*, *og'iz* (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema.

Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil

holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi *føjiaifodasi* umumiste'mol qo'llanishdagi *føjia* so'zidan ma'noviy jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega bo'lgan. Shuningdek, jo'g'rofiy termin bo'lgan *qo'lтиq* umumiste'moldagi *qo'lтиq* leksemasining omonimiga aylangan.

Sinekdoxa (gr. *synekdoche* – "nisbatlash") yo'li bilan hosil qilingan ko'chma ma'no deganda, biror narsaning nomi bilan uning biror qismini atash va, aksincha, biror narsaning qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi: 1. *Besh qo'lini og'ziga tiqadi*. 2. *Ochילדiboy tirnoqqa zor edi*. Sinekdoxik yo'l bilan hosil qilingan ma'noni ham lisoniy va nutqiy ma'noga bo'lish mumkin. Masalan, keltirilgan *qo'l*, *tirnoq* leksemalarining sinekdoxik ma'nosi sememalashgan. **Stolsindi**, **eshikbuzildi** gaplaridagi *stol* so'zining "*oyoq*"(stolning oyog'i), *eshikso'zining "qulf"*(eshikning qulfi)hosila ma'nolari nutqiy sinekdoxik ma'noga misol. Ammo har qanday butunlik nomi bilan qismni, qismning nomi bilan butunni atab bo'lmaydi. Masalan, daraxt va shox, barg, tana, ildiz, meva butun va qismdir. Lekin *barg* deganda hech qachon daraxt anglashilmaydi. Ammo meva номи, masalan, *olma* atamasi orqali daraxt ham ifodalananadi.

Metonimiya (grekcha: *metonymia* – "qayta nomlash") ifodalanmishlarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi asosida bir ifodalovchining boshqa ifodalovchi uchun ishlatalishi.

Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison va nutqqa daxldor hodisa. Boshqacha aytganda, metonimik hosila ma'no sof nutqiy yoki lisoniy(lashgan) bo'lishi mumkin.

Metonimik ma'nolarning asosiy ko'rinishlariga misol keltiramiz:

1) bir narsa predmetning nomi bilan shu predmetdagi boshqa bir narsa ataladi:

a) *stakan1*-ichimlik uchun ishlataladigan silindr ko'rinishdagi shisha idish; *stakan2* -bir stakan hajmiga teng suyuqlik miqdori (*bir stakan suv*);

b) *dasturxon1*-o'rtaga yozilib, ustiga oziq-ovqat qo'yiladigan mato materialli ro'zg'or buyumi; *dasturxon2* -yeyish uchun o'rtaga qo'yilgan oziq-ovqat;

2) materialning nomi shu materialdan yasalgan mahsulotga o'tadi:

a) *kumush 1*-oq-ko'kish rangli yaltiroq tusli asl metall; *kumush 1*-kumushdan zarb qilingan pul, tanga;

b) qog'oz1-yozish, chizish, kitob, gazeta, jurnal boshqa hamda boshqa shunga o'xhash maqsadda ishlataladigan yog'och, eski latta-putta va shular kabidan tayyorlangan yupqa material;qog'oz2 -varaq, bet;

3) joy nomi bilan shu joyda yashovchi kishilar ataladi:

qishloq 1-aholisi ko'proq qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi punkti; *qishloq 2* -qishloqda yashovchi kishilar (*Qishloq nima deydi?*).

4) harakat ifodalovchisi bilan uning natijasi yoki unga aloqador bo'lgan jarayon nomlanadi:

to'y 1-yeb-ichish natijasida nafsn ni qondirmoq; *to'y* 2 -bazm-tomosha bilan ziyofat berib o'tkaziladigan marosim.

5) predmetning nomi bilan shu predmet hosilasi ataladi:

a) *til* 1-og'iz bo'shlig'ida harakatlanuvchi nutq a'zosi; *til* 2-shu nutq a'zosi harakati natijasida hosil bo'lgan nutq;

b) *Navoiy* 1-o'zbek mutafakkir shoiri; *Navoiy* 2 -Alisher Navoiy asari.

Ko'rindiki, metonimik hosila ma'noring ayrimi sof lisoniy mohiyat kasb etgan bo'lsa, ayrimi nutqiy sathdagina mavjud. Masalan, *Navoiyni o'qidim* gapidagi *Navoiyo*'zi ellipsis natijasida tushib qolgan *asar* so'zining ma'nosini ifodalamoqda va u nutqiy tabiatga ega. Ammo keltirilgan *dasturxon* 2, *to'y* 2, *qog'oz* 2, *kumush* 2ma'nolari lisoniy lashgan, sememaga aylangan metonimik ma'no.

Metonimik hosila ma'noring vujudga kelishi, asosan, lisoniy bog'lanish emas, balki obyektiv borliq hodisalari orasidagi nolisoniy aloqadorlik bilan bog'langan.

Vazifadoshlik -semema vujudga kelishining asosiy yo'llaridan biri. Vazifadoshlik asosida semema vujudga kelishi ham, metaforada bo'lgani kabi, o'xshashlikka asoslanadi. Biroq metaforada tashqi ko'rinishdagi o'xshashlikka asoslanilsa, vazifadoshlikda bajariladigan vazifaning o'xshashligi asosida yangi ma'no vujudga keladi. Masalan, dastlab kamonnning paykoni o'qdeb atalgan. Miltiq kashf etilgach, uning porox to'ldirilgan pistonli gilzasi ham paykonniki kabi vazifani bajarganligi bois o'q deb ataladi. Rus tilidagi *pero* (pat) so'zi ham shunday ma'noviy taraqqiyotga ega. Ma'lum bo'ladiki, vazifadoshlik asosida vujudga kelgan hosila ma'no nafaqat mustaqil semema darajasiga yetadi, balki o'ziga asos bo'lgan bosh, asosiy sememadan ham ko'ra faollahib, qo'llanish doirasi kengayib ketadi. Masalan, ilgari *ko'mir* so'zi "ko'mib yondirish yo'li bilan o'tindan tayyorlangan yoqilg'i" sememasiga ega edi. Bugungi kunda bu semema tarixiyashib, u "yer qatlamida tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan qattiq va qora rangli yoqilg'i" hosila sememasi bilan tilimizda yashaydi.

Mustaqil o'qish uchun

Ifodalarning evfemik imkoniyati

Sharqda muloqot madaniyati nafaqat nutqda, balki yozma manbalarda ham o'zning kuchli ifodasiga ega bo'lgan. Qur'on oyatlarida ham bu hodisa (ya'ni tabu (aytish noqulay so'z) o'rnida qo'llangan "yumshoq" ifoda – evfemizm) mavjudligi kuzatiladi. Arab tilidagi *ma'oriz* atamasi evfemizm tushunchasiga to'la mos keladi. *Ma'oriz* muloqot madaniyati muhitida "ishora qilib gapirish" ma'nosida tushuniladi. Aytilishi noqulay bir so'z o'rniga boshqa so'zni ishlatib, asl maqsadni ochiq aytmay, "to'n kiydirib" gapirish ta'rifini olgan bu so'z ba'zan *ta'riz* ham deyiladi. Ular – o'zakdosh. Shunday Hadisi sharif bor:

"Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z safarlaridan birida edilar. Sarbon xirgoyi boshladi. Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

"Muloyim bo'l! Hoy Anjasha! Billurlarni ehtiyot qil!" dedilar". Hadisning mazmuni shunday. Rasululloh vidolashuv haji safariga ketayotganlarida sarbon – karvonni boshlab ketayotgan tuyakash xirgoyi qilib qolibdi. Bu arab karvonboshilariga xos odat bo'lib, karvondagi tuyalar o'sha xirgoyining maromiga qarab qadam tashlashga o'rganar ekan. Sarbonning xirgoyisiga

qarab, tuyalar tezroq yoki sekinroq yurishi ham mumkin. Rasululloh *billurlar* deb shu karvonda birga ketayotgan onalarini nazarda tutganlar. Karvondagi ayollar *xavdaj* deb nomlangan chodir tutilgan, egarning ustiga mahkamlangan maxsus o'rindiqda yurardilar. Tuya tez yurganda xavdaljar qattiq silkinib, ayollarga biroz noqlaylik tug'diradi. Shuning uchun Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sarbonga tuyalarni shoshirmslikni buyurib, buni ta'riz, ya'ni go'zal ibora bilan ifodalagan.

Ko'rindiki, evfemizmlarning qo'llanishi muloqot madaniyati darajasini ko'rsatuvchi hodisalardan bo'lib, unga muloqot madaniyati ko'zgusi orqali munosabatda bo'lish lozim.

Eslatib o'tish joizki, ayrim hollarda metafora va vazifadoshlik, metonimiya va sinekdoxa hodisalari orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun tilshunoslikda metafora va vazifadoshlikni birlashtirib, metafora, metonimiya va sinekdoxani birlashtirib, metonimiya sifatida qarash kerakligi haqidagi fikrlar ham mavjud.

3. Leksema semantikasidagi lisoniy o'zgarish.

Ma'lum bo'ladiki, leksema semantikasidagi lisoniy o'zgarish quyidagi natijalarga olib keladi:

1.Leksema nutqiy ma'nosining ixtisoslashuvi natijasida yangi sememaning vujudga kelishi.“Qushning ikki yonida harakatlanib uchish vositasi” sememasigagina ega bo'lgan *qanot* leksemasi bugungi kunda “samolyotning ikki yonidan chiqib turgan havoda suzish va muallaq turish vositasi” sememasiga ham ega polisemantik leksemaga aylangan.

2.Aniq ma'noning mavhum ma'noga aylanishi natijasida ixtisoslashuvga zid ma'noviy kengayish yuz berib, yangi sememaning vujudga kelishi. Masalan, *otlanmoq* leksemasining dastlabki sememasi “otga minish” bo'lib, bugungi kunda bu semema o'ta kuchsizlanib, leksema, asosan, “biror joyga borish uchun hozirlanish» sememasi bilan yashaydi.

Mustaqil o'qish uchun

Gugurt uyni ham isitadi, yong'in ham chiqarishi ham mumkin

Disfemizm (qo'pol ifoda) larning muloqot xulqini ifodalovchi vosita sifatidagi roli o'ziga xos. "Demokratiya"ning jadallahuvi natijasida, qolaversa, 1948- yil 10- dekabrda BMT bosh Assambleysi tomonidan inson huquqlari Deklaratsiyasida so'z erkinligi to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi natijasida G'arb OAV va boshqa axborot manbalarida disfemizmlardan foydalanish ommalashib ketadi. Hatto endilikda uni o'rganish, tasnif qilish, talqin va tahlil etish davr taqozosi sifatida qaralmoqda. Biroq disfemizm nafaqat bo'yoqsiz, beteraf ma'noni buzish, qo'pollashtirish bilan, balki tabulashtirilgan mazmunning o'zini ochiq ifodalashi bilan ham xarakterlanadi. Sharq madaniyatida bunday ifodalardan, aksariyat hollarda, voz kechiladi. Masalan, "Qur'on — maxluqdir" degan gap chiqib, ixtilof kuchayib, hatto xalifalar odamlarni shu gapni aytishga majburlashgacha ham borishgan. Fitna jarayonida "mashhur ulamolar hammaning oldida shu gapni aytса, keyin xalq shunga ergashadi" degan maqsadda buyuk olimlarni ham aytishga majburlashgan paytlar bo'lgan. Biroq Ahmad ibn Hanbal boshliq ulug' olimlar bunga ko'nmay turib olishgan. Urib-kaltaklab, qamab, qiyashsa ham, bu gapni aytishmagan. Shunda ba'zi olimlar bu gapni ishora bilan aytib, vaziyatdan qutulib chiqib ketishgan. Ularning ichida imom Shofe'iy rahmatullohu alayh ham bo'lgan ekanlar. U kishini xalifaning oldiga olib kelib, hammaning oldida shu gapni aytishga majburlashganda imom Shofe'iy:

Qo'lingda turgan narsani aytyapsanmi? – deb so'raganlar.

Ha, shuni, – deyishgan.

Ha, u maxluq, – deganlar.

Shu javobidan keyin u zotni tinch qo'yishgan. Aslida imom Shofe'iy xalifaning qo'lida turgan qog'oz kitobga ishora qilganlar va maxluq deganda Allohnning kalomini emas, balki qog'ozga chop qilingan, muqovalangan kitobni nazarda tutganlar. Ko'rindiki, zakiy alloma disfemik vositadan unumli va mantiqli foydalanib, o'z e'tiqodiga putur yetkazishdan saqlangan.

Leksema semantik imkoniyatining torayishi. Leksema sememasining biror tomondan ixtisoslashuvi boshqa sememaning butkul so'nishiga olib keladi. Masalan, keng qamrovli tushunchani ifodalovchi leksemalarning qamrovi torayib ketadi. Bu, ayniqsa, turdosh otning atoqli otga aylanishida, so'zning terminologik mohiyat kasb etishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mantiqiy mushohada uchun

Bir kishi yo'lovchi avtomobilni to'xtatib:

Aka, qayoqqa ketyapsiz, men falon joyga bormoqchi edim, olib ketmolmaysizmi, iltimos, – dedi.

– Olib ketardim, endi olib ketmayman, – dedi haydovchi va mashina yeshigini shartta yopib, jo'nab ketdi.

Hadovchi nega ranjidi?

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Hosila semema qanday vujudga keladi?
- 2.Metaforaga ta'rif bering.
- 3.Sinekdoxaning mohiyatini tavsiflang.
- 4.Metonimiya nima?
- 5.Sinekdoxa va metonimianing umumiy va xususiy jihatlari haqida gapiring.
- 6.Vazifadoshlikni tavsiflang.
- 7.Sinekdoxa va vazifadoshlikning umumiy va xususiy jihatlari haqtida gapiring.

Test

1.Polisemantik leksema ma'nolarini farqlovchi omil: A) sinonimik va antonimik qator B) uyadoshlik va graduonimik qator C) variantdoshlik va omonimik qator D) ko'chish usuli

2.Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi xuddi shunday belgiga o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nosining ko'chimi qanday nomlanadi? A) metonimiya B) sinekdoxa C) vazifadoshlik D) metafora

3.*Bandangman, xudoyimsan* jumlasidagi *xudoyim* so'zi qanday ko'chim hisoblanadi? A) metonimiya B) metafora C) kinoya D) vazifadoshlik

4.*Men otamga qarayman, parvarish qilaman* gapida *qaramoq* so'zida qanday ko'chim mavjud? A) metonimiya B) metafora C) kinoya D) vazifadoshlik.

5. Metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan leksemani aniqlang. A) Samolarga usharman, yulduzlarni qucharman B) Qahratonqish keldi C) Tuyog'imiz ko'paysa ko'paydiki, kamaygani yo'q D) To'g'riga zavol yo'q.

6. *Bitta shu tayoq bilan oltita bolani boqdim.* Ushbu gapdaga ma'no ko'chish yo'lini toping. A) leksemalar o'z ma'nosida qo'llangan B) metonimiya C) metafora D) vazifadoshlik

Glossariy

hosila semema – leksemaning bosh sememasi asosida vujudga kelgan, alohida paradigmatik, sinonimik va sintagmatik munosabatlar bilan bog'langan semema

metafora – borliqdagi narsa/hodisalarning mohiyatidagi o'xhashligiga ko'ra bir leksemaning boshqa o'rinda qo'llanishi asosidagi ko'chim

sinekdoxa – butun va qism munosabati asosidagi ko'chim

metonimiya – o'zaro bog'liqlik munosabati asosidagi ko'chim

vazifadoshlik – denotatlardagi vazifa o'xhashligiga asoslangan ko'chim turi

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

14- ma'ruza

LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

Reja:

1. Leksik munosabat turlari.
2. Sinonimiya.
3. Antonimiya.
4. Graduonimiya.
5. Giponimiya.

Kalit tushunchalar

sema, atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi, relevant belgi, irrelevant belgi

O'zlashtiriladigan tushunchalar

leksik-semantik munosabat, leksik-shakliy munosabat, sinonimik munosabat, sinonim, antonimik munosabat, antonim, graduonimik munosabat, graduonim, giponimik munosabat, giponim

1. Leksik munosabat turlari. Tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ma'no asosida bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajratish mumkin:

- 1) leksik-semantik munosabatlar;
- 2) leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarlarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabatlardir. Leksik-shakliy munosabatlar sirasida omonimiya (shakldoshlik) va paronimiya (talaffuzdoshlik) hodisalari qaralib, ular bevosita til strukturasiga daxldor bo'limgaganligi sababli bizning tahlil obyektimiz sifatida qaralmaydi.

Mantiqiy mushohada uchun

- 1.Assotsiativ munosabat leksik-semantik munosabatlar bilan qanday bog'lanadi?
- 2.Turq va jamol leksemalari antonim bo'lishi mumkinmi?
- 3.hujra va koshona leksemalari zidlik munosabatiga kirisha oladimi?

2. Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar *sinonim* deyiladi (gr. *synonymos* – "bir nomli"). Sinonim leksema orasidagi munosabat *sinonimiya* yoki *sinonimik munosabat* deb yuritiladi.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida *yuz* – *bet* – *aft* – *bashara* – *turq* qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: "odam boshi old tomoni", "peshonadan iyakkacha". Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos. Aniqrog'i, "shaxsiy munosabat" semasi har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo'lgan. U *yuz* leksemasida "shaxsiy betaraf munosabat" ko'rinishida bo'lsa, *turq* leksemasida "o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat" tarzida.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
- 2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: "eskirgan", "yangi", "o'ta yangi", "arxaik", "tarixiy";
- 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: "shevaga xos", "so'zlashuvga oid", "kitobiy", "ko'tarinkilik" va h.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, *katta* – *ulkan* – *bahaybat* sinonimik qatori "kitobiylilik", "ko'tarinkilik" ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi *katta* leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), *ulkan* va *katta* leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma'nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o'ziga xos xususiyati bor:

- 1) dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan "kambag'alroq" bo'ladi. Qiyoslang: *chiroyli*, *go'zal* va *suluv*. Qatordagi *chiroyli* leksemasida *go'zal* va *suluv* leksemasidagi ko'tarinkilik bo'yog'i yo'q;
- 2) dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi;
- 3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtida o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi;
- 4) ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta sistemaga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, "kishi tanasi a'zolari" lug'aviy-ma'noviy guruhiga *yuz* dominanta leksemasi kirib, *qulqoq*, *burun*, *lab*, *qosh*, *peshona* leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksema "betaraf" bo'lolmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va uning betaraf vakili bu huquqqa ega bo'la oladi, xolos.

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema

sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi.

Sinonimik qator leksik paradigma hisoblanmaydi.

3. Antonimiya (gr. *antionymo* – "zid nom") leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: *katta* – *kichik*, *yosh* – *qari*, *mitti* – *ulkan*, *oq* – *qora* va hokazo. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim. Masalan, *katta* va *kichik* leksemalari umumiy – "belgi", "ko'lam" semasi bilan birga, qarama-qarshi – "nisbatan ortiq" (*katta*) va "nisbatan katta bo'lмаган" (*kichik*) semasiga ham ega. Yoki *qish* – "yilning eng sovuq fasli", *yoz* – "yilning eng issiq fasli", *kirmoq* – "ichkariga", *chiqmoq* – "tashqariga".

Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar: *issiq* – *sovuj* (harakat), *katta* – *kichik* (hajm), *erkak* – *ayol* (jins) va hokazolar.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

- kontrar qarama-qarshilik;
- komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, *kichik* – *o'rta* – *katta*, *yosh* – *o'smir* – *o'rta yosh* – *qari* kabi. Bunda *kichik* va *katta*, *yosh* va *qari* leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in bor. Yuqoridagi *o'rta* leksemasida *kichik* va *katta* leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: *rost* – *yolg'on*, *arzon* – *qimmat*, *oson* – *qiyin*. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q.

Antonimlar strukturasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- har xil o'zakli antonim: *katta* – *kichik*, *kirmoq* – *chiqmoq*, *muhabbat* – *nafrat*;
- bir xil o'zakli antonim: *madaniyatli* – *madaniyatsiz*, *aqli* – *aqlsiz*, *ongli* – *ongsiz*.

Mustaqil o'qish uchun

Sotsialingvistikami, sotsiolingvistika

"Kiyimlar" do'konida ishlaydigan kishining besh yoshli o'g'li bir kuni shunday deb qoldi: "Men hammani birday yaxshi ko'raman, ammo oyijonimni esa bir razmer ko'proq!"

Tahririyatda ishlaydigan ota o'g'li bilan parkka aylanishga chiqqanda shunday dedi: "Dadajon, karuselning muharririga aytинг, bizni tezroq qo'yisin!"

Ma'lum bo'ladiki, ota-onha, oila kichik "jamiat", undagi muhit bolaning nutqi, leksikoniga ham ta'sir qiladi. Hatto kattalar ongli yoki ongsiz ravishda shunday xususiyatga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy muhitning tilga va nutqqa ta'siri tilshunoslikning ikki xil sohasi tomonidan o'rganiladi.

Ijtimoiy muhitning umuman tilga ta'siri sotsialingvistika tomonidan o'rganilsa, uning alohida shaxs

yoki kishilar guruhiga ta'siri sotsiolingvistika tomonidan tekshiriladi. Ikki soha nomi bir tovush (**a/o**) bilan farqlanadi. K o'pchilik bu iiki termini chalkashtiradi/

"Sof" lingvistika til hodisalarini "quruq", tashqi muhit ta'sirlaridan xoli o'rganadi. Masalan, so'zning tovush qobig'i, undagi fonetik xususiyatlar, ma'nosni, ma'nodoshlari, birikuvchilari va h. Sotsialingvistika davr va jamiyatning tilga ta'siri bilan shug'ullanar ekan, masalan, *vazir* so'zining o'zbek tili leksik qatlamida o'z vaqtida nega eskirganligi, bugungi kunda uning yana faollashish sabablari yoki *-lar* ko'plik qo'shimchasining ortiqcha qo'llanish holatlari sodir bo'lganligi (*o'nta o'quvchilar* kabi) sabablari bilan qiziqadi.

Sotsiolingvistika ijtimoiy guruh va qatlam nutqidagi jargon va slenglar bilan maxsus shug'ullanadi. Masalan, *svetnaya mast* ("toj gul"), *bosyak* ("past tabaqa"), *malyutka* ("yosh"), *shirmach* ("kissavur") kabi ifodalarning qo'llanish doirasi kabilar shular jumlasidan.

4. Graduonimiya (gr. *gradatio* – "ko'tarilish", "o'sish", *onymo* – "nom"). Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum va uning eng yorqin namunasi – *o'rta* so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatori. Masalan:

katta – *o'rta* – *kichik*

yosh – *o'rta* – *qari*

uzoq – *o'rta* – *yaqin*

baland – *o'rta* – *past*

uzun – *o'rta* – *qisqa*.

Ma'lumki *o'rta* so'zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir-biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. *O'rta* leksemasi antonimlar oralig'idan o'rin olsa, *katta* – *o'rta* – *kichik* darajalanishi kam seziladi. Lekin *o'rta* leksemali birlikkarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini:

a) g'ayrilisoniy asos;

b) sof lisoniy asosgatayanib ajratish mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson go'daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatini, o'simlik navnihollik, ko'chatlik, yetilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi – o'sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo'yoqchilar birgina qora rangning hatto o'ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo'lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalananadi. Chunonchi, *nihol* – *ko'chat* – *daraxt*, *ninni* – *chaqaloq*, *go'dak* – *bola*, *buzoq* – *tana* – *g'unajin* – *sigir* kabi.

Graduonimik lug'aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

a) ma'noviy omil;

b) so'zlararo paradigmatic munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil

darajalariga ishora mavjud. Masalan, *darcha* – *eshik* – *darvoza* leksemasining “O’zbek tili izohli lug’ati”dagi izohini kuzataylik:

1. **Darcha** – ilgari vaqtarda deraza vazifasini o’tagan bir yoki qo’sh tavaqali, eshik yoki devorga o’rnatilgan kichkina eshikcha (O’TIL, I, 212.)

2. **Eshik** – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o’rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama (O’TIL, II, 457).

3. **Darvoza** – hovli, qo’rg’on, qal’a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa (O’TIL, I, 209).

Ajratilgan so’zlar miqdoriy ko’rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu *darcha* leksemasi izohidagi *kichkina* va *eshikcha* so’zlari, *darvoza* leksemasi izohidagi *katta* so’zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: *gulobi* – *pushti* – *qizg’ish* – *qizil* – *ol* – *qirmizi*.

Bu leksemalar qayd etilgan lug’atda quyidagicha izohlangan:

1. **Gulobi** – gulob rangli, pushti (O’TIL, I, 197).

2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil (O’TIL, II, 608).

3. **Qizg’ish** – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg’imtir (O’TIL, II, 573)

4. **Qizil** – qon rangidagi, qirmizi, olvali (O’TIL, II, 570).

5. **Ol** – qizil, qirmizi (O’TIL, II, 529).

6. **Qirmizi** – qizil rangli, qizil, ol (O’TIL, II, 581).

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o’zining graduonimik sistemidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a’zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo’lishar edi:

1. **Gulobi** – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo’yoqli rang.

2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to’qroq.

3. **Qizg’ish** – pushtidan to’qroq, qizildan ochroq, qizg’imtir rang.

4. **Qizil** – qon rang.

5. **Ol** – qizildan to’qroq rang.

6. **Qirmizi** – to’q qizil rang.

Bu leksemalar denotativ ma’nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi:

«qizillik»

-3 -2 -1 0 1 2

gulobipushtiqizg’ishqizilolqirmizi

Demak, lug’aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma’noviy omil o’zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma’lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo’ladi. Shu asosda ma’noviy omilning o’zi ikki turga bo’linadi:

1) bir-biriga yaqin va o’xhash tushunchani ifodalashi;

2) ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug'aviy paradigmaga qo'yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

- 1) lug'aviy paradigmanning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;
- 2) lug'aviy paradigmanning ochiqligi;
- 3) lug'aviy paradigmanning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;
- 4) lug'aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab, lug'aviy ma'noviy qatorda, sistemada namoyon bo'lishi bo'lib, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Lug'aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiyl qonunlari mavjud:

- a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni tajallilanadi;
- b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;
- d) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatordi – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Bo'sh vaqtda bajarish uchun

MUSADDAS

Subhidam max/murluqtin/ tortibon dar/di sare,
Azmi dayr et/timki, ichgay/men sabuhiy/ sog'are,
Chiqti sog'ar/ to'ldurub ko/firvashi mah/paykare,
Naqdi din o/lib ichimga/ soldi maydi/n ozare,
Vahki, dinim/ kishvarin to/roj qildi/ kofire,
Kufr eliga/ homiyu di/n ahlig'a yag'/mogare.

Demakim, nev/chun hayoting/din sanga yo'q/ hosile,
Ishqdin ol/lingda har dam/ mushkil uzra/ mushkile,
Chun bilursen/, nevchun aylab/sen o'zungni/ g'ofile,
Bo'yla bo'lg'ay/ kimga yori/ bo'lsa sendek/ qotile,
Chobuke, ra'/noqade, no'/shinlabe, xo/rodile,
Mahvashe, nas/rin uzore/, gulruhe, siy/minbare.

Ul quyosh ish/qidakim ko'ng/lumga yo'qtur/ toqate,
Shomi zulfi/din agar jo/nimg'a yetsa/ mehnate,
Orazi meh/rig'a qilsam/, mayl ermas/ hayrate
Kim, erur har/ kimsakim, naz/zora qilsa/ soate,
Zulfi ko'zlar/ni qora qil/moqqa shomi/ furqate,
Shomi furqat/ daf'ig'a rux/sori mehri/ anvare.

Ko'hi darding/ za'fliq tan/ birla chektim/ muddate,

Kim, visol um/mididin ko'ng/lumda erdi/ quvvate,
 Emdi rahm et/kilki, yuzlan/mish ajoyib/ holate,
 Ne ko'ngulda/ quvvate qol/mish, ne tanda/ sihhate,
 Ne qaroru/ sabru ne to/bu tavon, ne/ toqate,
 Ne ko'ngul, ne/ jonu ne ru/hu ravon, ne/ paykare.

...

Alisher Navoiy

Vazifa

Leksik-semantik munosabatdagi leksemalarni va munosabat turlarini aniqlang.

5. Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog'i, gipo-giperonimiya), ya'ni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda *giperonim* (tur) va *giponim*(jins) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrosistemaning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimiga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylilik tushunchasi bilan bog'liq. Masalan, *daraxt* giperonimi tur ma'nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan *daraxt* leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *daraxt - qayin, daraxt - terak, daraxt - dub, daraxt - archa*.

Giponimlar teng huquqli bo'lib, giperonimga munosabati bir xil. O'z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog'lanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *daraxt* nomi dastlab ikki guruhga bo'linadi: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt*. Mevali daraxt o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko'p ma'noli bo'lganligi bois bir tomondan *meva*, ikkinchi tomondan *daraxt* giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

Meva: *olma - o'rik - shaftoli - behi*.

Daraxt: *olma - o'rik - shaftoli - behi*.

Daraxt giperonimi tur tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu turning jinsini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. *Daraxt* leksemasi uning jinsi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *o'rik daraxti, shaftoli daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *daraxt* giperonim leksemasining sememasi "tanasidan shoxlanuvchi o'simlik" bo'lib, "qizil, yashil, yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv

meva beruvchi daraxt” sememasiga ega *olma* leksemasining “daraxt” semasi – *daraxt* giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va “xiraroq” (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va “yorqinroq”. Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'shliq) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* so'z birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunaga ega bo'ladi. Bu bo'shliq ayni bir turning turli belgisi bilan cheklanmagan miqdorda to'lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun o'zbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lug'aviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham (“mevali daraxt” va “mevasiz daraxt” tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani ma'lum bir kishining bilmasligi) bo'lishi mumkin.

Mantiqiy mushohada uchun

1. *Kibr* va *g'urur* leksemalari qanday leksik-semantik munosabat hosil qiladi?
2. *Nodon*, *ahmoq*, va *dono* leksemalarini muhim belgisi asosida lug'atdan foydalanib, darajalanish qatoriga tizing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Leksik-semantik va leksik-shakliy munosabatlar qanday farqlanadi?
- 2.Leksik-semantik munosabatlar o'z ichiga qaysi munosabatlarni oladi?
- 3.Sinonimik qatorda farqlovchi belgi qanda semadan iborat bo'ladi?
- 3.Sinonimik qatorning antonimik juftlikka munosabati qanday?
- 4.Darajalanish va sinonimiya munosabatini oydinlashtiring,
- 5.Darajalanish va sinonimiya ko'lamenti farqlang.
- 6.Uyadoshlik munosabati nima va u qanday lug'atlarda aks etadi?

Glossariy

Leksik-semantik munosabat – leksemalarlarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari

leksik-shakliy munosabat – leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari

sinonimik munosabat – bir turkumga mansub leksemalarning atash semalari asosida farqlanib, ifoda semalari asosidagi birlashish munosabati

sinonim – bir turkumga mansub atash semalari asosida tuzilgan leksik qatordagi ifoda semasi bilan farqlanuvchi leksema

antonimik munosabat – bir turkumga mansub leksemalarning zid denotativ semalar asosida qarama-qarshi qo'yilishi
antonim – zid denotativ semalar asosida qarama-qarshi qo'yilgan bir turkumga mansub ikki leksemadan biri
graduonimik munosabat – bir turkumga mansub ikkitadan ortiq leksemalarning o'zaro biror belgining oshib yoki kamayib borishiga asoslangan munosabati
graduonim – darajalanish qatoriga kiruvchi leksema
giponimik munosabat – bir turkumga mansub ikkitadan ortiq leksemalarning o'zaro tur-jins belgisiga asoslangan munosabati
giponim – biror turga kiruvchi jinsni ifodalovchi leksema

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

15- ma'ruza

O'ZBEK TILI LEKSİKASI TASNIFI. BARQAROR BIRIKMALAR.

Reja:

1. O'zbek tili leksikasi tasnifi turlari.
 - 1.1. Leksemalar o'zlashgan-o'zlashmaganligiga ko'ra tasnifi.
 - 1.2. Leksemalarning qo'llanishiga ko'ra tasnifi.
 - 1.3. Ifodaviylik jihatdan o'zbek tili leksikasi.
2. Barqaror birikmalar.
 - 2.1. Maqol.
 - 2.2. Matal.
 - 2.3. Ibora.
 - 2.4. Tasviriy ifoda.

Kalit tushunchalar

Leksema, so'z, tasnif, leksika, qatlam, qo'llanish doirasi, qo'llanish davri, ifodaviylik

O'zlashtiriladigan tushunchalar

o'z qatlam, qo'llanishi chegaralangan leksika, arxaik leksika, tarixiy leksika, bo'yoq dor leksika

1. O'zbek tili leksikasi tasnifi turlari.

Leksemani turlicha tasniflash mumkin. Quyida uning ayrimlariini ko'rib o'tamiz.

1.1. Leksemalar o'zlashgan-o'zlashmaganligiga ko'ra tasnifi.

Leksemalar o'zlashgan-o'zlashmaganligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- a)o'z qatlam;
- b)o'zlashma qatlam.

O'zbek tilidagi turkiy so'zlar o'z qatlam deyiladi: *men, sen, biz, o'qi, oq, ket, bir, besh*.

O'z qatlamga oid leksemalarning muhim belgilari quyidagilar:

1) bu qatlamga oid leksemalarning o'zagi assosan, bir-ikki bo'g'inli bo'ladi: *ol, ber, qol, ota, uka, qo'y, echki kabi*;

2) bir bo'g'inli so'z ko'proq [unli+undosh], [undosh+unli+undosh] shakliga ega: *ol, kun, kul, bo'l, qil*;

3) ikki bo'g'inli so'z ko'proq ochiq bo'g'indan tuziladi: *ikki, olma, ola*;

4) leksema[r], [l], [v], [h] tovushi bilan boshlanmaydi;

5) leksema oxiri [e], [u], [o] unlisi bilan tugamaydi (undov, taqlid so'z, de fe'li bundan mustasno);

6) leksema tarkibida sirg'aluvchi [j], bo'g'iz [h] tovushi uchramaydi (undov va taqlid bundan mustasno);

7) leksemada ikki unli yonma-yon kelmaydi: *saodat, baayni, mutolaa, maorif* kabi;

8) sof o'zbekcha qo'shimcha undosh bilan boshlanadi: *-chi*, *-li*, *-lik*, *-la* kabi. Ayrimi unli bilan ham boshlanadi: *-im*, *-ib* kabi. Bunda tovush orttirilishi mavjud;

9) [f], [d] kabi yumshoq va lab-tish [v] undoshi sof o'zbekcha leksemaga xos emas: *daftar*, *dard*, *dil*, *dunyo*, *falak*, *vagon* kabi;

10) o'zak holidagi fe'l, son, taqlid leksema faqat o'z qatlamga mansub;

11) o'z qatlamga mansub leksemao'zagi alohida talaffuz qilinganda, tovush o'zgarishi yuz bermaydi. O'zak holida tovush o'zgarishiga uchragan leksemao'zlashma qatlamga mansub: *go'sht*, *dard*, *hukm*, *daftar*, *kitob* kabi;

12) boshqa tildan o'zlashgan leksema asosida shu tilda yasalgan so'z ham o'z qatlamga mansub bo'ladi: *kitobxona*, *nonchi*, *ma'rifatli*, *komputerchi* kabi.

13) o'z qatlam leksemasi tutuq belgisi bilan yozilmaydi.

Qarindosh bo'limgan tildan kirib kelgan leksema o'zlashma, olinma yoki o'zlashma qatlam deyiladi: *kitob*, *daftar*, *non*, *ma'rifat*, *telefon*, *komputer*.

O'zbek tilidagi o'zlashma leksemaning asosiy qismini fors-tojik, arab tilidan o'zlashgan ham ruscha, xalqaro leksema tashkil qiladi.

O'zbek tilidagi fors-tojikcha leksemani fonetik ko'rinishiga ko'ra o'zbekcha leksemadan farqlash qiyin. Lekin ayrim muhim belgisi mavjud:

1) sirg'aluvchi *dj* tovushi fors-tojikcha leksemada uchraydi: *mujda*, *gijda*, *mujgon* kabi;

2) leksema oxirida undosh qator keladi: *taxt*, *baxt*, *dard*, *go'sht*, *farzand*, *daraxt* kabi;

3) o'unli cho'zib aytildi: *non*, *darmon*, *bahor* kabi.

Lekin buning barchasi ham asosiy belgi bo'lolmaydi.

O'zbek tilida arabcha o'zlashmalar ham talay. Ularning muhim belgisi:

1) tutuq belgili so'z arab tiliga mansub (ruscha, xalqaro leksemalar mustasno);

2) ko'plik qo'shimchasi leksema oldida bo'ladi: *xulq-axloq*, *she'r-ash'or*, *xabar-axbor* kabi.

3)-ot, -at, *illo*, *-ullo*, *-iy*, *-viy* unsuri bilan tugagan leksemalar, asosan, arab tiliga xos: *axborot*, *hayvonot*, *nabotot*, *shaxsiyat*, *tabiat*, *Abdullo*, *adabiyot*, *oilaviy*, *ilmiy* kabi;

4) arabcha leksema tarkibida *g*, *dj*, *ch*, *p*, *ng* tovushlari uchramaydi;

5) leksema boshida *-ik*, *-iq*, *-ak*, *-mu*, *-ma* unsuri bo'ladi: *ikrom*, *iqror*, *akram*, *muallim*, *maktab*, *mahorat* kabi.

O'zbek tili leksikasi tarkibi quyidagicha bo'lgan:

Qatlam	1923- yil	1940- yil
O'zbekcha leksema	61 %	69 %
Arabcha-forscha leksema	37,4 %	25 %
Ruscha, xalqaro leksema	2 %	25 %

Mustaqil o'qish uchun

Turkiylar ham boshqa tilga ko'plab so'z bergan. Masalan rus tiliga *chugun, tovar, kirkich, utyug, aliy, bumaga, topor, yarlik, bara, karakuli, arik, djugara, xirman, dengi, altın, izumrud, jemchug, bazar, kazna, chulok, karman, tulup, sarafan, kaftan, yapancha, tyubeteyka, xalat, kolbasa, kavardak, shurpa, plov, kumis, ayran, jir, arbuz, vishnya, uryuk, ayva, kumach, churek, xalva, alcha, injir, Barsunov, Baskakov, Tolmachov, Turgenev, Saltikov, Polivanov, Arakcheyev, Chirikov, Saratov, yessentuki, Berdichev, Arbatskaya* kabi so'zlarni.

1.2. Leksemalarning qo'llanishiga ko'ra tasnifi. leksema qo'llanish miqdoriga ko'ra farqlanadi. Ko'pgina leksemalar cheklanmagan, ba'zisi kam qo'llanishga ega. Shu jihatdan leksemalar ikki turga bo'linadi:

- qo'llanishi chegaralanmagan leksema;
- qo'llanishi chegaralangan leksema.

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalar. O'zbek tili lug'at tarkibining assosini ana shu qatlam tashkil etadi. Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalarni shu tilda so'zlashuvchi kishi, qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, cheklanmagan darajada ishlatadi.

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalar barcha turkumda mavjud:

Fe'l: *ishlamoq, kelmoq, olmoq, ko'rsatmoq, buyurmoq, saylamoq.*

Ot: *ota, ona, non, suv, stol, eshik, tog', yer, shamol, radio.*

Sifat: *shirin, achchiq, qizil, ko'k, katta-kichik, xunuk, go'zal.*

Son: *bir, o'n, yuz, ming.*

Ravish: *hamisha, ba'zan, ataylab, hozir, ilgari.*

Olmosh: *kim, nima, qanday, nima qilib, qancha, shu, biz, hamma.*

Undov va modal: *xo'p, mayli, rahmat.*

Ko'makchi: *uchun, bilan, singari:*

Bog'lovchi: *ham, va, bilan, ammo.*

Yuklama: *faqat, xuddi, hatto.*

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalarning aksariyati umumturkiy va o'zbekcha. Ammo, shu bilan birga, ular orasida o'zlashmasi ham ko'p. Masalan :

Tojikcha: *go'sht, non, dard, bobo, dugona, do'st.*

Arabcha: *avlod, bilan, inson, sinf, millat, himoya:*

Qo'llanishi chegaralangan leksemalar ikki guruhgaga bo'linadi:

- qo'llanish davri chegaralangan leksemalar;

- qo'llanish doirasi chegaralangan leksemalar.

Qo'llanish davri chegaralangan leksemalar. Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning leksikasida ancha sezilarli. Bunda to'rt holat kuzatiladi. *Birinchidan*, ayrim leksemalar eskirib, iste'moldan chiqib ketsa, *ikkinchidan*, allaqachon iste'moldan chiqib ketgan leksemalar qayta "jonlanadi", *uchinchidan*, yangi-yangi leksemalar paydo bo'ladi, *to'rtinchidan*, nofaol so'z faollashadi, iste'mol doirasi kengayadi, ma'nosida o'zgarish yuz beradi.

Hozirgi adabiy tildagi eskirgan leksemalareski leksemalar, yangi leksemalarning jami *yangi* leksemalar, na eskirgan, na yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'z *zamonaviy* leksemalar deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtai nazaridan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin: 1) *zamonaviy* leksika; 2) eskirgan leksika; 3) yangi leksika.

Zamonaviy leksemalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining asosini *zamonaviy* leksika tashkil etadi. Bu leksika umumiste'mol leksemalar, qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalar, faol leksemalar kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Eskirgan leksemalar. Eski qatlamga oid leksemalaro'ziga xos xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) tarixiy leksemalar;
- 2) arxaik leksemalar.

Tarixiy leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiradi:

- 1) ijtimoiy-siyosiy nom: *podsho, xon, qul, quloq, batrak, qarol, chorikor,*
- 2) mansab, amal, unvon nomi: *qozi, amin, bek, amir, arbob, udaychi, g'unchachi, shotir, zakotchi;*
- 3) buyum nomi: *qalqon, dubulg'a, sovut, charx, duk, halaj, kajava, foytun, dilijon, kashkul;*
- 4) o'lchov, pul birligi nomi: *botmon, dirham, miri, paqir, qadoq, tanob, arshin;*
- 5) kiyim-kechak nomi: *kuloh, choriq, paranji, chachvon, qalami, hirqa;*
- 6) hujjat nomi: *vasiqa, sanad, taraka, vaqfnoma;*
- 7) maorif atamasi: *mudarris, xalfa, haftiyak.*

Tarixiy leksemalar bildiradigan narsa-hodissa iste'moldan chiqib, o'tmish voqeligiga aylanganligi sababli, uning ko'pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo'lishi mumkin.

Ayrim ko'p ma'noli leksemalarning ba'zi ma'nosi tarixiylashib, boshqasi saqlanib qoladi. Masalan, *millat* so'zining *Millatingni ayt*: - *Ibrohim Xalilulloh millatiga* davoqelangan "biror dinga mansublik" tarixiy ma'nosi eskirgan. Misollar:

Eski ma'no	Yangi ma'no
rais- diniy rasm-rusum nazoratchisi	rais – rahbar
arbob – qishloq oqsoqoli	arbob – unvon
saroy – podsho qarorgohi	saroy – madaniy tadbir joyi
boy – feodal, yer egasi	boy – mo'l, ko'p
oqsoqol – mahalla xo'jayini	oqsoqol – keksa, hurmatli shaxs

Arxaik leksemalar – o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib bergen leksemalardir. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib,

avvalgisi iste'moldan chiqib ketadi: *ulus* (xalq), *afandi* (o'qituvchi) *lang*(cho'lloq), *tilmoch* (tarjimon).

Eslatma

Bundan tashqari, arxaik qo'shimcha (-g'a (-ga), -g'an (-gan), -g'i (-gi), -ur (-ar) -g'ay (-gay, -sin)), arxaik ibora (*jismini dol aylamoq* – *qaddini bukmoq*, *fotiha olmoq* – *javob so'ramoq*, *yoqasini chok etmoq* – *faryod solmoq*) ham mavjud.

Tarixiy va arxaik birliklarning muhim belgilari:

- 1) arxaik leksemalar hozir mavjud narsa, tarixiy leksemalar – o'tmisht narsa-hodisasi atamasi;
- 2) arxaizmnинг hozirgi tilda sinonimi mavjud, tarixiy leksemalarning sinonimi yo'q;
- 3) tarixiy leksemalar yakka nom, arxaik leksemalar birdan ortiq nomning biri.

Yangi leksemalar – tilda endi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan *so'z:lizing, audit, market, test, internet*kabi. Ular fanda *neologizm* deb ham yuritiladi.

Neologizm quyidagi turga ega:

- a) yangi yasalgan: *serverxona, dendixona, devonxona, oraliq nazorat, yakuniy nazorat*;
- b) yangi ma'no kasb etgan: *tadbirkor, halqa* (yo'l), *nazorat, do'kon, foiz*;
- v) yangi kirib kelgan: *reyting, test, audit, market*.

Yangi leksemalar davr o'tishi bilan zamondosh leksika tarkibiga o'tib ketadi. Masalan, yaqin vaqtgacha neologizm sifatida qaralgan *kosmos, televideniye*leksemalari bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotdi.

Mantiqiy mushohada uchun

Nexia so'zi inglizcha **next** ("navbatdagi") so'zidan kelib chiqqan.

Matizquyidagi so'zlarning bosh harflaridan olingan: **marvel** – "mo'jiza", **attraction** – "yoqimli, **tiny** – "chaqaloq", **infatuate** – "hayratli", **zoom** – "uchqur".

Malibu – AQShning Kaliforniya shtatidagi shahar nomi. So'z anglo-sakson tiliga mansub bo'lib, "baland yangramoq" ma'nosini ifodalaydi.

Izohlarga variantingiz bormi?

Internet lug'atlaridan foydalanib, "Lasetti", "Damas", "Spark", "Cobalt" so'zlarining ham ma'nolarini toping.

Faollashgan leksemalar bir vaqt iste'moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo'llana boshlagan: *hokim, viloyat, tuman, oqsoqol, sardor* kabi.

Qo'llanish doirasi chegaralangan leksemalar. Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksemalarni uchgaga bo'lib o'rghanish mumkin:

- a) shevaga xos leksemalar;
- b) termin (atama);
- v) argo va jargon.

Mustaqil o'qish uchun**So'z xaridori**

Atoqli tilshunos Aleksey Aleksandrovich Shaxmatov (1864–1920) bolaligidan tillarga qiziqardi. Alyosha haqiqiy vunderkind edi.

Bola yoshligidan yetim o'sdi. Unii xolasasi tarbiyaladi. Xorijiy tillar – ingliz, nemis, lotin tillarini o'rganishiga sharoit yaratib berdi. Bolada tabiat ato etgan yorqin filologik iste'dod bor edi. U tillarga shunday qiziqib ketdiki, hatto o'rtoqlaridan so'zlarni "sotib olaadigan bo'ldi". Gimnaziyada o'qib yurganida u shunday hisob-kitob olib borgan: «50 ta sanskrit va 3 ta got so'ziga – 60 ta island so'zini oldim. 40 ta forscha va 8 ta arabcha so'zga 50 ta fin va litva, 257 qadimgi german so'ziga 60 ta kam uchraydigan got so'zini almashtirdim.” Alyosha har xil tillarning so'zlarini yig'ib, o'rtoqlari bilan almashtirar edi. Bora-bora gimnaziyada bu o'yinga qo'shilmagan o'quvuchi qolmadi.

Bolalikdagi sevimli mashg'uloti – o'qish va so'zlarni to'plash – uning kelajakdag'i filologik tadqiqotlari uchun poydevor bo'ldi. “Qadimgi rus matnlarining tanqidiga doir” degan maqolasini e'lon qilganida hali 17 yoshli gimnaziya o'quvchisi edi.

Moskva davlat universitetida o'qib yurgan paytida bir amallab topgan pullarini sarflab ta'til paytlari rus xalq og'zaki ijodi, xalq so'zlarini to'plash bilan shug'ullanar edi. Sutkasiga 10-12 soatlab ishlari edi.

Qisqa vaqt ichida Aleksey Shaxmatov Rossiyadagi eng yosh va talentli filolog sifatida tanildi.

“Rus fonetikasi sohasidagi tadqiqotlar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi monografiyasi uchun 1894-yilning 12-martida 29 yoshli tadqiqotchiga Moskva davlat universiteti ilmiy kengashi bir ovozdan rus tili va rus so'zshunosligi doktori ilmiy darajasini berdi. Bungacha hali rus filologiyasi bunday hodisani ko'rmagan edi!

A.A.Shaxmatov nafaqat filologiya bo'yicha eng yosh fan doktori, balki Peterburg Fanlar akademiyasi tarixida eng yosh akademik ham bo'ldi.

Vladislav Dmitriyevich Yanchenko (Moskva)

Shevaga xos leksemalar. Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos so'z shevaga xos leksema deyiladi: *kalapo'sh* (Buxoro) – *do'ppi*, *g'o'z*(Xorazm) – *yong'oq, mishiq* (Farg'ona) – *mushuk, poku* (Samarqand) – *ustara*.

Sheva leksemalari fanda *dialektizm* deb ham yuritiladi.

Badiiy adabiyot va kinofilmarda mahalliy ruhni aks ettirish, asar qahramoni nutqini aniq berish maqsadida shevaga xos leksemalardan foydalilaniladi.

Ayrim leksemalar adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda ishlataladi. Masalan, *pashshaleksemasi* adabiy til lug'atida “yozgi qo'sh parda qanotli hasharot” deb izohlangan. Biroq ayrim shevada u *chivinleksematio*'rnida ishlataladi. *Ajal yetmay o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni* («Alpomish») gapidagi *chivinleksemacu* kunduzi uchadigan qo'ng'ir-qora tusli mayda hasharotni ifodalasa, *Atrofda g'uv-g'uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi* (Oybek) gapida *pashsha* so'zi mazkur hasharotning atamasi. Yoki *irkit* leksemasi abadiy tilda “kir, iflos” degan ma'no bilan qo'llansa, ayrim shevada “ayron xalta”, boshqasida esa “beo'xshov, qo'pol ko'rinishli” ma'nosiga ega. Sheva leksemalarini uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik lozim.

Termin. *Fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos leksemalar termin deyiladi.*

Terminning chegaralangan qo'llanishga egaligi boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Masalan, *to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezliktermini* ko'pchilik uchun tushunarli, lekin kam qo'llanadi.

Termin ko'pincha umumiste'mol so'zidan ma'lum bir ma'nuning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, *fojia, ega, ot, termik, qo'shish, ayirish* so'zi umumiste'mol so'z. Lekin ular fanga termin bo'lib o'tgan.

Mantiqiy mushohada uchun

"www.wikipedia.ru" va boshqa saytlardan *devalvatsiya, villa, sement, astronomiya, astrologiya, etnografiya, etnologiya, virus, gepatit, veteran, valyuta, margarin, kilo* so'zlarining etimologik ma'nolarini topib, ularning o'zbek tilidagi qo'llanishida qanday ma'noviy taraqqiyot yuz berganligini aniqlang.

Kasb-hunarga oid leksemalar – turli kasb-hunar egasi nutqida qo'llanuvchi birliklardir. Kasb-hunar atamasi shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kiradi. Masalan, Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan leksemalar Buxoro shevasida bo'lmasligi mumkin. Kasb-hunarga oid leksemalar, birinchidan, ma'lum bir sheva doirasida bo'lsa, ikkinchidan, shu shevada so'zlashuvchi ayrim kishi nutqiga xos.

Jargon (fransuzcha **g'argon** – "buzilgan til") ham qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi. Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan leksemalar jargon, jargonizm deyiladi. Masalan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, aslzodalar jargoni, o'g'rilar jargoni, artistlar jargoni va h.

1) talabalar jargoni: *yopmoq*(sessiyani tugatmoq),*vozdux*(stipendiya),*yaxlamoq*(imtihindan stukach(chaqimchi), *qulqoq* (agent); *qaytmoq*,

2) yoshlar jargoni: *g'isht* (xunuk), *sindirmoq* (lol qilmoq), *krutoy* (ketvorgan), *risovka* (ko'z-ko'z qilmoq), *uxlatib ketmoq* (aldamoq).

Jargon termini bilan birga *sleng* atamasi ham qo'llanadi. *Sleng* inglizcha *slang* ("daydilar tili") leksemasining o'zbek tiliga ham o'zlashgan ko'rinishi.

Argo (fransuzcha **argot** – "lahja") ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsuridan iborat qorishiq va ko'p holda, boshqaga tushunarsiz nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Argo tili o'z grammatikasiga ega emas. Unda umumxalq tili grammatikasiga tayaniladi. Argo ikki maqsadning biri uchun qo'llaniladi:

- 1)fikrni sir tutish;
- 2)o'zini ajratib ko'rsatish.

Argo umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositasining o'ziga xosligi bilan farqlanadi:

- 1)otarchilar argosi: *yakan* (pul),*hasut* (non);
- 2)o'g'rilar argosi: *xurmo* (buxoro tillo tangasi), *shirmach* (kissavur), *krot* (metrodagi kissavur)

3) mahbuslar argosi: *maymun* (oyna), *timsoh* (qaychi), *oq kaptar* (geroin), *yashil* (militcioner); *ksiva* (xat).

Jargon va argo terminlarini almashtirib qo'llash holatlari ham uchraydi.

Jargon va argolarning eng muhim xususiyati ularning davr o'tishi bilan tez-tez yangilanib turishidir. Masalan, o'n yil oldingi jargon yoki argo bugungi kunda qo'llanmasligi, o'rnini boshqa unsurlarga bo'shatib berishi mumkin.

Mustaqil o'qish uchun

"Quyushqon"

- Mumkinmi? Salom!

Ruxsatingiz bilan o'zimni tanishtirsam... Men, k sojaleniyu, sizning sochinenuyalaringizni o'qigan emasman. Xotya eshitganman. V asnavnom, mamashkalar to'g'risida yozarkansiz..

Mening ham to'rtta bolam bor... Nima? "Unaqaga o'xshamaydi-ku", deysizmi? Rahmat, kompliment uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga o'xshayman. Mamam oltmis yoshidayam appetitniy edi. Kak kukolka!

Kechirasiz, olovingiz bormi?.. Yo'q-yo'q, men «More» chekaman... Senkyu! Zajigalkangizga gap yo'q!

Itak, to'rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku... Yoshi poyemu... o'n to'rtda. Shu yil o'n to'rtga kiradi. Papasiga o'xshagan krasavchik, Maratik! Smugliyligi, ko'zlarining razrezi... Papasi bilan birinchi vstrechamiz praktikaga borganimda bo'lган. Zam ministr edi. Shunaqa abayateliy, shunaqa intelligentniy!.. Ikki yilcha turdik.. Sivilizovanniy ajrashdik. To'g'risini aytди. "Jannochnka dedi, jonim dedi, dorogusha dedi, buyog'i prokol bo'ladiganga o'xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoyejonstva uchun partiyadan o'chirishlari mumkin", dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa masalalar strogiy edi. "Maratik uchun volnavatsa qilma, o'zim opekaniga olaman, sen Toshkentga ketaver, tez-tez borib turaman" dedi. "O-key" dedim...

...Nigorochka – Samarqandda. Tois, Nigorochka emas, Nargizochka! Nigorochka – Qo'qonda...

Gde-to ikki yil oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom – tak sebe, ammo direktori nishtyak ekan! Dilda! Bo'yi pachti ikki metr! "Bratan, dedim, Nargizochkadan xabar olishim qiyin, ishim ko'p", dedim. "Xotirjam bo'ling, Nargizochkaga o'zim otalik qilaman", dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-r-rutoy erkak ekan! Molodets!

Kstati... Dubayda bo'lганmisiz? Obyazatelno boring! Texnika – pachti darom! Tilla – navalom! Arablar temperamentniy bo'... nu mayli, bunisi nevajno...

O'tkir Hoshimovdan

Qo'llanishi chegaralangan leksemalarning uslubiy xususiyati.

Bunday leksemalarga eskirgan va yangi, sheva va kasb-hunarga oid leksemalar, atama, jargon, argo, vulgar va varvar leksemalar kiradi. Nutqda bu kabi leksemalar ham muhim uslubiy vazifa bajaradi. Arxaizm badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini berish uchun qo'llansa, tarixiy leksemalardan o'tmish voqelagini jonli ifodalash maqsadida foydalaniadi. Sheva leksemalari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atama ilmiy va badiiy asarda fan-texnikaga oid tushunchani aniq ifodalash uchun qo'llanadi, jargon esa ma'lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarur. Bu – qo'llanishi chegaralangan leksemalarning badiiy uslubdagi vazifasi.

Albatta, bu guruh leksemalardan me'yorida foydalanish lozim, aks holda nutqda g'alizlik paydo bo'ladi: *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko'tarimchi ajratildi.* 2. *Buning ustiga tokarlik stanogining rezioderjateli o'rniغا maxsus moslama tayyorlanib, unga grebenlarni*

tozalovchi frez o'rnatildi. Birinchi gapda *ko'tarimchio'rinsiz* yasalgan yangi so'z bo'lsa, ikkinchi gapda atamalar me'yordan ortiq ishlatalganligi natijasida gap mazmuni tushunarsiz bo'lib qolgan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqol ham ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboradagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyati, tasviriy ifodadagi balandparvozlik, maqoldagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyat yaratadi: *Bir yoqadan bosh chiqarmoqiborasi* badiiy nutqqa mansub bo'lsa, *bir jon, bir tan bo'lmoqiborasi* umumnutqqa xos. Yozuvchi va shoirlar ham ibora va maqol ijod qilishadi: *O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeydi bu* (Abdulla Qahhor), *O'qsiz soldat- qilichsiz qin* (Oybek) kabi.

1.3. Ifodaviylik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan bирgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy sistemada bu hissiy munosabatni tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemadir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi.

Mustaqil o'qish uchun

“So'z latofati”

“Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig'lagan Layli otidan – sizga boshimdagи sochlаримниг тукларигача behad salom. Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O'tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni esga olish mening uchun o'sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari. Ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'zimning oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo'lib qochgansiz, ikki yil bo'yi Marg'ilon kelib yurishlaringizni men - o'zimcha yechdim, lekin topib yechdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o'ch olish uchun bo'lganini angladim. Yo'qsa, meni ko'rар edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham, boshqalar sizni ko'rар edilar, tuyaredilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko'p sizni zir keltirib, jondan to'ydirgan bo'lsa, ajab emaski, qocha boshlagansiz... Qochsangiz, qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab, birovlarни quvishga bel bog'ladim. Otam bilan onam rafoqatlarida xizmatingizga – cho'rilingizingizga erta-indin yuraman, sevganingiz kundoshim oldida qadru qiyamatimning nima bo'lismeni ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonlar hurmatiga, ko'ngil uchun kulib boqarsiz... Loaql shugina bilan ham baxtsizni mas'ud qilarsiz! Ammo... sevganingiz – kenjangizning jerkishlaridan, qarg'ishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin oradagi uning bilan bo'ladijan mas'ud daqiqalaringizda xudo yo'liga va'da olingiz – meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'yamasin. Nihoyati maqsadim – ikki do'stga bir cho'rilik va shu munosabat bilan birovlarни ko'rib yurish..”.

Abdulla Qodiriydan

Bo'yoqsiz leksika. O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Masalan, *bor, yo'q, katta, mazali, daryo, urmoq, chiroyli, tez, husn* kabi leksemalar borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi

mumkin. Masalan, *katta* leksemasining lisoniy mohiyati – sememasi bo'yoqsiz. Biroq u nutqda boshqa nolug'aviy tajallilar bilan qorishib, bo'yoq kasb etadi. *Dengiz k-a-tta edi* gapida fonetik tajalli ta'sirida *katta* leksemasi bo'yoqdor nutqiy birlikka aylangan.

Bo'yoqdor leksika. Bunday leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo'rtib turadi: *ulkan, badnafs, qiltiriq, oniy, tashrif, oraz, yovqur, mahliqo, badbashara* va h.

Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra bo'yoqdor leksemalar **ijobiy bo'yoqdor** leksema va **salbiy bo'yoqdor** leksemaga bo'linadi.

Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo'ladi. Misollar: 1. *Onam deganimda, oqsoch, jafokash munis* va *mehribon chehrang bo'lar namoyon* (G.G'ul.). 2. *U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi* (M.Ism.). 3. *Orazin yopqoch, ko'zimdan sochilur har lahza yosh* (Nav.)

Salbiy bo'yoqdor leksema borliq hodisasiga so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo'rtib turadi. Misollar: 1. *So'ngra yakkam-dukkam iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi* (Oyb.) 2. *U bir ko'ngli borib, muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi, yo iflosbasharasiga tupurgisi keldi.* (M.Ism.)

Ijobiy bo'yoqdor leksema nutqda salbiy bo'yoqdor leksema o'rnida voqelanishi mumkin. 1. *Jamolingizni* ("basharangizni" ma'nosida) boshqa ko'rmay! 2. *Rosaxursand qildingiz* ("xafa qildingiz" ma'nosida).

Leksemaning ijobiy va salbiy bo'yog'ini ijobiy va salbiy ma'nodan farqlash kerak. Masalan, *yaxshi* leksemasi ijobiy ma'noga ega, ammo uning ifoda semasi bo'yoqdorlikni ko'rsatmaydi, ya'ni u bo'yoqsizdir. *xunuk* salbiy ma'noga ega bo'yoqsiz leksema.

Glossariy

o'z qatlam – tilga boshqa tillardan o'zlashmagan qatlam

qo'llanishi chegaralangan leksika – qo'llanishi hudud, davr yoki soha bilan cheklangan leksika

arxaik leksika – o'rnini boshqa leksemalarga bo'shatib bergen leksika

tarixiy leksika – ifodalanmishi bilan birga iste'moldan chiqqan leksemalar

bo'yoqdor leksika – ifoda semasi ustuvor leksika

bo'yoqsiz leksika – ifoda semasi ustuvor bo'limgan leksika

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.O’zbek tili leksikasi tasnifi turlari haqida gapiring.
- 2.O’zlashma qatlam nima? Misol keltiriring.
- 3.O’z qatlam leksemalari haqida gapiring.
- 4.Qo’llanishi chegaralangan leksemalar haqida gapiring.
- 5.Qo’llanishi chegaralanmagan leksemalar haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O’qituvchi, 1993.
2. Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O’qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G’afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O’qituvchi, 1997.
4. Ne’matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. - Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O’zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so’z, 2013.

2. BARQAROR BIRIKMALAR

Kalit tushunchalar

leksema, semema, ma’noviy munosabat, atash semasi, ifoda semasi, birikma

O’zlashtiriladigan tushunchalar

barqaror birikma, maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda

Barqaror birikmalar haqida. Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ham ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo’lib qolganlikni ta’sirchan ifodalash uchun *hayron bo’lmoq fe’li* yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo’llanadi: *Og’zi ochilib qoldi*.

Og’zi ochilib qoldi – ibora. U ikki mustaqil so’zdan iborat bo’lib, nutqqacha tayyor holga kelgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning atash ma’nosi *hayron bo’lmoq fe’lining* atash ma’nosiga teng bo’lsa-da, qo’shimcha, ya’ni hissiy va uslubiy ma’nosi, ifoda semasi bilan farqlanadi.

O’zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda e’tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmani o’rganuvchi bo’limi *paremiologiya* (lotincha *parema* – “barqaror”, *logos* – ta’limot), uning lug’atini tuzish bilan mashg’ul bo’luvchi soha *paremiografiya* (lotincha *parema* – “barqaror”, *grapho* – yozmoq) deyiladi.

Tilda ikki yoki undan ortiq so’zning bog’lanishidan hosil bo’lgan birlik ko’p. Masalan, so’z birikmasi, so’z qo’shilmasi, gap, qo’shma so’z, tasviriy ifoda, maqol, matal va hokazo. Shuning uchun dastlab, turg’un bog’lanish va erkin bog’lanishni bir-biridan farqlash kerak.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi *erkin bog'lanish* deyiladi. So'z birikmasi va gap erkin bog'lanishga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

Ikki yoki undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishi barqaror, turg'un bog'lanishni tashkil qiladi.

Barqaror birikma qo'shma leksema va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib, ko'chma ma'no ifodalaydi.

2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.

3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismlari qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Demak, alohida shakllangan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan yaxlitlangan so'zlar bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi.

Barqaror birikmani "buzib" – tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi.

2.1. Maqol. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma *maqoldeyiladi*. Misol: *To'g'ri o'zadi, egri ozadi. Ko'ngli qoraning yuzi qora*. Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatlarga ega.

Mantiyy mushohada uchun

- 1) *Odamning olasi ichida* maqolining asos va hosila ma'nosini izohlang.
- 2) *O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l* maqoliga nutq vaziyatidan kelib chiqib baho bering.

Maqolning aksariyati qo'shma gap shaklli bo'ladi: 1. *O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l*. 2. *Bekorchining beti yo'q, qozon osar eti yo'q*. 3. *Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan*. 4. *Kamtar bo'lsang osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p*. Sodda gap tipidagi maqol ham tilda ancha: 1. *Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas*. 2. *Arg'amchiga qil quvvat*. 3. *Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r*. To'liqsiz gap shaklli maqol ham ko'p uchraydi: 1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan*(qaytmas). 2. *Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda* (bilinadi).

2.2. Matal.

Matal ham barqaror birikma holida bo'ladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lмаган hikmatli birikma nazarda tutiladi. Masalan, *qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga yetganda, dumi xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha* kabi. Matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalananadi. Masalan, **Berdisini aytguncha** jim tur. **Tuyaning dumi yerga yetganda** qarzini to'laydi kabi.

Mantiqiy mushohada uchun

dumi xurjunda matalining shakllanishi haqida fikringiz qanday?
berdisini aytguncha matalining shakllanish asosini toping.
Dastin alif lom qilib, kallasini xam qilib matalining shakllanishi haqida fikr bildiring.

Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so'zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdek "chala" fikr ifodalashi bilan o'zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko'chma xarakterda bo'lishi bilan o'xshash.

2.3. Ibora.

Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko'pincha ma'nosi bir so'zga teng va ko'chma bo'ladi. So'zning bunday barqaror bog'lanmasi ibora (frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologizm) dir.

Tilshunoslikning iborani o'rghanuvchi maxsus bo'limi *frazeologiya* deyiladi.

Qismlari qat'iy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, ko'chma ma'no anglatib, gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma frazeologik birikma (ibora) deyiladi: 1. *Eshon mayizning tagiga turna ekibdi* ("tugatmoq") .2. *Boshi osmonga yetdi* ("xursand").

Leksema kabi ibora ham lug'aviy birlik sanaladi. Tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Ibora so'z birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki xuddi leksema kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki lisoniy birlikdir.

Ibora leksema kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomoni tovushlardan iborat bo'lsa, iboraning shakliy tomonini so'zlar tashkil etadi: *rahmdil (r+a+h+m+d+i+l)* – *ko'ngli bo'sh (ko'ngli+bo'sh)* *xursand (x+u+r+s+a+n+d)* – *boshi osmonga yetdi (boshi+osmonga+yetdi)*.

Ibora tarkibidagi so'zlarmustaqlil ma'noga ega emas. Ibora so'zlar yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir necha so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida keladi: **Ko'z ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi.** (A.Qah.) Ko'z ochib-yumguncha iborasining ma'nosi "juda tez" va gapdagi vazifasi – payt holi.

Lug'aviy birlik sifatida ibora so'zga xos qator xususiyatga ega.

Iboraning ma'no tarkibi frazeologik (atash semasi) va qo'shimcha ma'no (ifoda semasi) dan iborat.

Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no (iboraning atash semasi) deyiladi. Masalan, *Qizim boshimni osmonga yetkazdi* (A.Qah.) *Endi to'rtinchchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi* (I.Rah.) Birinchi gapda harakat ("juda xursand qildi"), ikkinchisida belgi ("juda yaxshi") ifodalangan. Iboraning atash semasi biror leksemaning atash semasiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi (ifoda semasi) leksemada ko'pincha bo'lmaydi yoki iboranikidan kuchsiz

bo'ladi. Masalan, *xufiya* leksemasi va *yeng ichida* iborasining atash semasi bir xil. Ammo iborada uslubiy va hissiy ma'no (ifoda semasi) bo'rtgan.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan leksema sememasidan farqlanadi. Chog'ishtiring: *xufiya - yeng ichida, beqiyos - yer bilan osmoncha, xursand - og'zi qulog'ida*. Ayrim ibora bildirgan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: *Qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi*.

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (*shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi*) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin (*og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, tili tutildi, temirni qizig'ida ur*). Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'limgan ma'no anglatadi (*boshi osmonga yetdi, tepa sochi tik bo'ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi*).

Ibora tarkibidagi so'z boshqa oddiy birikmadagi so'zga shaklan o'xshab qolishi mumkin: 1).*Qodirqul mingboshining bundaqangi ishlarga suyagi yo'q*(Hamza.) – *Bu go'shtning suyagi yo'q*.2).*Mirzakarimboyning qo'li uzun, bu ishlarni uddalaydi* (Oyb.) – *Basketbolchining qo'li uzun edi*. Bunday holda frazeologik ma'no matnga qarab aniqlanadi.

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga tushib qolganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr chalkashligiga olib keladi.

Ibora so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi:

1) so'z birikmasi shaklidagi ibora: *anqoning urug'i, bosh ko'tarmoq, og'ziga olmoq*.

2) gap shaklidagi ibora: *ko'zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi*.

Iboralar ham bir sememali va ko'p sememali bo'lishi mumkin. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p sememali ibora deyiladi: *Bosh ko'tarmoq*: 1) "sekin sog'aymoq"; 2) "sekin qaramoq"; 3) "qo'zg'olon qilmoq"; *o'ziga kelmoq*: 1) "sekinlik bilan tushunmoq"; 2) "sekinlik bilan sog'aymoq"; *ko'zi ochildi*: 1) "qoqilib tushundi"; 2) "ko'rди".

Ibora ham leksemalar kabi boshqa leksema yoki iboralar bilan ma'no munosabatiga ko'ra aloqadorlik kasb etadi:

1).*Sinonim iboralar*. Shakli har xil, ma'nosи bir-biriga yaqin bo'lgan ibora sinonim ibora (frazeologik sinonim) deyiladi: *toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq; yaxshi ko'rmoq - ko'ngil bermoq; terisiga sig'madi - boshi osmonga yetdi*.

Lug'aviy birlik sifatida ibora leksema bilan sinonimlik tashkil qila oladi: g'azablanmoq – joni chiqmoq, sevmoq – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko'klarga ko'tarmoq.

4).*Antonim iboralar*. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora (frazeologik antonim) deyiladi: *ko'kka ko'tarmoq - yerga urmoq; qo'li uzun - qo'li kalta, ko'ngli oq - ichi qora*.

Iboralarda darajalanish o'ta kuchli.

2.4. Tasviriy ifoda.

Tasviriy ifoda – predmet, voqea va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi barqaror birikma: *oq oltin-paxta, oq oltin ijodkori – paxtakor, kumush tola – pilla, zangori kema kapitani – mexanizatorva* h.

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitadi.

Leksema ma’nosining kengayishi va ko‘chgan holda qo‘llanishi tilning, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyligini oshiruvchi omildan biridir. Leksemani ko‘chma ma’noda qo‘llash – lug‘at boyligini boyituvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta’minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.

Tasviriy ifoda ko‘proq ot va sifat turkumiga mansub bo‘ladi. Ba’zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo‘llanishi (*zangori ekran, oynai jahon – televizor*) mumkin.

Demagogiya

Demagog atamasi (gr. demagogos) so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “xalq yo‘lboshchisi”, “xalq yetakchisi” degan ma’nolarni anglatadi. So‘z Afina demokratiyasi zamonlarida paydo bo‘lgan. Bu davrda siyosat oshkora yuritilar – siyosiy masalalar xalq majlislarida ommaviy muhokama qilinar edi. Shuning uchun Afinada siyosatchi (demagog)lar notiqlik san’atini puxta egallagan, ommaviy yig‘inlarda qizg‘in nutq so‘zlaydigan kishilar bo‘lishar edi. Afinada og‘ir sharoit, siyosiy inqiroz hukm surgan paytlarda demagoglar o‘zlarining so‘z qo‘llash mahoratlarini ishga solib, jazavaga tushgan olomonni, garchi bu davlat manfaatlariga butkul zid bo‘lsa ham, o‘z fikrlariga ishontirib, orqalaridan ergashtirishar edi. Omma demagoglarning qutqusiga uchib, hatto mamalakatni inqiroz holatidan chiqarishga qodir buyuk mutafakkirlari bo‘lmish Protagor, Suqrot, kichik Perikl kabi daholarini ham qatl qilishgan edi. Bunday voqealardan keyin odamlar o‘z manfaatlari yo‘lida hatto davlatga ziyon yetkazishdan ham toymaydigan notiqlarni demagoglar deb atay boshlashdi. Shu tariqa demagogiya atamasi “tuturuqsiz siyosatdon”, “shuhratparast” degan ma’nolarga ega bo‘lib qoldi.

Demagogiya – vaziyat va sharoit nuqtai nazaridan o‘rinsiz bo‘lsa-da, xuddi to‘g‘ridek tuyuldigan fikrlarni ko‘tarinki, balandparvoz, obrazli ifodalarni qo‘llash bilan bayon etishdir. Demagogiya bugungi kunda masalaning oqilona yechimi yo‘lidan bormay, tinglovchilarning hissiyotlarini junbushga keltirish (ko‘proq qo‘rquv va nafrat uyg‘otish) mazmunida tushuniladi. Demagogiya – noo‘rin, balandparvoz va havoyi notiqlik. U ommaning sog‘lom fikrini chalg‘itishning eng eski va keng tarqalgan usuli.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Barqaror birikma nima?
2. Iborani ta’riflang va misol keltiring.
3. Maqolni ta’riflang va misol keltiring.
4. Matalga ta’rif bering va misol keltiring.
5. Iboraning belgilari haqida gapiring?
6. So‘z va iboraning o‘xhash va farqli tomonlari haqida gapiring, misol keltiring.
7. Tasviriy ifoda nima?
8. Tasviriy ifoda va so‘zning o‘xhash va farqli tomonlari haqida gapiring.

9. Bir ma'noli tasviyriy ifoda haqida gapiring, misol keltiring.

Test

1. *Soyaga qarab to'n bichma* maqolidagi *to'n bichmoq* iborasining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan? A) andaza olmoq B) rag'batlantirmaslik C) xato ish qilmoq D) baho bermoq.
2. Qaysi iboralar *og'ziga tolqon solmoq* iborasi bilan mazmunan yaqin? 1) mum tishlamoq; 2) *lom-mim demaslik*; 3) *og'ziga qoqmoq*; 4) *og'ziga qatiq uyutmoq*; 5) *og'ziga olmaslik*; 6) *damini chiqarmaslik* A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 2, 6 C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 2, 5, 6.
3. Qaysi qatorda tasviriy ifoda ma'nosi noto'g'ri berilgan? A) *Traktor - po'lat etak* B) *Pomir - dunyo tomi* C) *Farg'ona - yashil vodiy* D) *Pilla - kumush tola*.
4. Qaysi tasviriy ifodalar muqobili noto'g'ri berilgan? A) *mo'yqalam ustasi - rassom* B) *kumush tola - paxta* C) *barcha tasviriy ifodalar muqobili to'g'ri berilgan* D) *so'z san'tkori - yozuvchi*.

Glossary

- barqaror birikma** – sintaktik qurilma ko'rinishidagi ko'chma ma'noli lisoniy birlik
- maqol** – gap shaklidagi, tugal hukm ifodalaydigan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan, barqaror til birligi
- matal** – to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lмаган hikmatli birikma
- ibora** – qismlari qat'iy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, ko'chma ma'no anglatib, gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma
- tasviriy ifoda** – predmet, voqeа va hodisani o'z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi barqaror birikma

Adabiyotlar

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

BO'LIM BO'YICHA YAKUNLOVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksikologiya nima?
2. So'z til birligi sifatida qaysi yo'nalishlarda o'rganiladi?

3. Leksikologiyaning qaysi bo‘limida so‘zning semantik xususiyati – bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik, umumiyligi va xususiy, mavhum va muayyan, bosh va hosila, to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari tekshiriladi?
4. Leksikologiya til lug‘at tarkibining boyishini tushuntirib bering.
5. Nazariy va amaliy leksikologiyaning farqi nimada?
6. Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda nima deb nomlanadi?
7. Lisoniy birlik bilan nutqiy birlik orasidagi farqni tushuntiring.
8. Leksema deb nimaga aytildi?
9. So‘z deb nimaga aytildi?
10. Leksema bir tushunchani ifodalasa, u nima deyiladi?
11. Leksema nutqda necha ma’noli bo‘ladi?
12. Nutqiy yasama so‘zning lisoniy sathga ko‘tarilishi qanday bosqichlarda kechadi?
13. Yasamaligini yo‘qotmagan, ya’ni o‘zida qolipning shakliy tomoni izini saqlagan, biroq ma’noviy tomonidan qolipdan uzilgan, ma’nosini qolipning o‘ng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkonini bo‘lmagan, toraygan ma’noli leksema nima deb ataladi?
14. Soddalashgan leksema nima?
15. Tublashgan leksema haqida nimalarni bilasiz?
16. Leksemaning tashqi qobig‘i nima deb ataladi?
17. Semema va tushuncha munosabati haqida gapiring.
18. Sema mohiyatiga ko‘ra necha xil bo‘ladi va ular qaysilar?
19. Qachon atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchayish holati yuz beradi?
20. Sema darajasiga ko‘ra qanday semaga ajratiladi?
21. Sememaning nutqiy lug‘aviy ma’no sifatida voqelanishi qanday kechadi?
22. Sememaning tayyor va nutqiy ma’noning tayyor emasligi haqida nimalarni bilasiz?
23. Sememaning takrorlanuvchanligi va nutqiy ma’noning betakrorligi haqida gapiring.
24. Hosila ma’no qanday yo‘l bilan vujudga keladi va ular qaysilar?
25. Metaforik ma’no nima?
26. Qanday yo‘l bilan hosil qilingan ko‘chma ma’no biror narsanining nomi bilan uning biror qismini atash va, aksincha, biror narsanining qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi?
27. Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan hosila ma’no haqida nimalar deya olasiz?
28. Leksema semantikasidagi lisoniy o‘zgarish qanday natijalarga olib keladi?
29. Sinonimiya, a ntonimiya, graduonimiya, giponimiya nima?
30. Ma’nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning qanday o‘ziga xos xususiyati bor?

31. Antonimlarning mantiqiy asosini qanday qarama-qarshilik tashkil etadi va ular qanday yuz beradi?
32. Antonimlar strukturasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
33. Dialektikaning lug‘aviy graduonimik qatordagi eng umumiyl qonunlari haqida ma’lumot bering.
34. Qo’llanilishi chegaralanmagan leksika haqida gapiring.
35. Qo’llanilish chegaralanmagan (umumiste’mol) leksika haqida gapiring.
36. Qo’llanilish davri chegaralangan leksika haqida gapiring.
37. Tarixiy so‘z nima?
38. Arxaik so‘z nima?
39. Neologizm nima?
40. Dialektal leksika haqida gapiring.
41. Terminologik leksika nima?
42. Noadabiy leksika haqida gapiring.
43. Argo nima?
44. Jargon nima?
45. Uslubiy betaraf leksika haqida gapiring.
46. Uslubiy xoslangan leksikaga tavsif bering.
47. Badiiy leksika haqida gapiring.
48. So‘zlashuv leksikasiga tavsif bering.
49. *Frazeologiya* atamasini tavsiflang.
50. Frazeologizm nima?
51. Frazeologizmdagi semantik munosabat haqida gapiring.
52. Frazeologik sinonimiya nima?
53. Frazeologik antonimiya haqida gapiring.
54. Maqollardash shakl va mazmun o‘ziga xosligi nimada?
55. Matallarning shakllanish asoslari haqida nima bilasiz?
56. Tasviriyl ifodaning tildagi o‘rni va roli haqida gapiring.

BO‘LIMNI O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva D. O‘zbek tilida antisemiyah: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2010.
2. Bazarov O. O‘zbek tilida darajalanish: filol.fan. dokt. ...diss.avtoref. – Toshkent, 1997.
3. Begmatov E.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent:Fan, 1985.
4. Bobojonov Sh. Semema, uning nutqiy voqelanishi va izohli lug‘atdagi talqini: filol. fan. nomz...diss. avtoref. –Samarqand, 2004.
5. Bobojonov Sh., Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009.

6. Hamrayeva Y. O’zbek tilining o’zlashma so’zlar o’quv lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
7. Iskandarova SH. O’zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o’rganish (shaxs mikromaydoni): filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1999.
8. Madrahimov I. So’zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
9. Mengliyev B. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –Qarshi: Nasaf, 2004.
10. Mengliyev B., Xoliyorov O’. O’zbek tilidan universal qo’llanma. – Toshkent: Fan, 2008.
11. Narziyeva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili//O’zbek tili va adabiyoti. 1986. -№ 5. -B. 47-48.
12. Ne’matova G. O’zbek tilida o’simlik nomlari leksemalari:sistemasi va badiiy qo’llanilishi: filol. fan. nomz....diss. –Toshkent, 1998.
13. Norxo’jayeva X. O’zbek tilining eskirgan so’zlar o’quv lug’ati. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2009.
14. Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari: oliv o’quv yurti talabalari uchun qo’llanma. – Toshkent: O’qituvchi, 1995.
15. Nurmonova D. O’zbek tilida paradigma a’zolari o’rtasidagi zidlanishlarning mo’tadillashuvi: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1998.
16. Orifjonova Sh. O’zbek tilida graduonimiya: filol.fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1996.
17. Qilichev B. O’zbek tilida partonimiya: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1997.
18. Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
19. Saidova X. O’zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo’llanishi: filol. fan. nomz. ... diss. –Samarqand, 1995.
20. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M.va boshq. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
21. Sobirov A. O’zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. –Toshkent:Ma’naviyat, 2004.
22. To’rayeva U., SHodmonova D. O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
23. Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst: filol. fan. nomz. diss....avtoref. – Toshkent, 2007.
24. Vafoyeva M. O’zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2009.
25. Yunusova Z. O’zbek tilida lug’aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (Samoviy yoritgichlar lug’aviy guruhi asosida): filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005.
26. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild.

27. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 2-jild.
28. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 3-jild.
29. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 4-jild.
30. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 5-jild.